

Salohiddinov A.T.

Ashirova O.A.

SUV RESURSLARINI HAVZAVIY REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH





**Salohiddinov A.T.
Ashirova O.A.**

SUV RESURSLARINI HAVZAVIY REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan 5450200 – "Suv xo'jaligi va melioratsiya" va boshqa turdosh ta'lif yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**TOSHKENT – 2020
Info Capital Group**

UDK 631.6(075.8)
KBK 40.6ya73

**Salohiddinov A.T, Ashirova O.A.
Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish**

O'quv qo'llanma. Toshkent. TIQXMMI. 2020. – 216 b.

Mas'ul muharrir:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti kafedra mudiri, t.f.d., prof. **Mirsaidov M.M.**

Taqrizchilar:

- Suv xo'jaligi vazirligi "Suv kadastro va sunni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish" boshqarmasi boshlig'i, **Qo'chqorov Sh.**
- Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, t.f.d., prof. **Ikromov R.K.**

ISBN 978-9943-5786-4-7

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Ilmiy Kengashi tomonidan olly ta'limning bakalavriat bosqichi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma AQSh Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) orqali ko'rsatilgan Amerika xalqining yordami asosida yaratildi va chop etildi. Ushbu nashrning mazmuni bo'yicha mas'uliyat muallifda bo'lib, Markazi Osiyo mintaqaviy ekologik markazi, USAID yoki AQSh hukumati nuqtai nazarini aks ettirishi shart emas.

Ushbu o'quv qo'llanma Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi tomonidan amalga oshirilayotgan va AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) tomonidan moliyalashtirilgan "Suv, ta'lim va hamkorlik" loyihasi doirasida, uning moliyaviy yordamida tayyorlangan.

O'quv qo'llanmasida suv resurslarini suv xo'jaligi majmuasining qatnashchilari, ya'ni manfaatdor tomonlar ishtirokida suv ob'yektlari havzalari darajasida boshqarish va rejalashtirish asoslari yoritilgan. O'quv qo'llanmasi oliv ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur o'quv qo'llanmasiga kiritilgan ma'lumotlar, shuningdek ilmiy xodimlar, maxsus fan o'qituvchilari hamda Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish muammolari bilan qiziqqan mutaxassislarning keng doirasi uchun ham mo'ljallangan.

В учебном пособии представлены основы бассейнового планирования и управления водными ресурсами на уровне бассейнов водных объектов с участием заинтересованных сторон водохозяйственного комплекса.

Учебное пособие рассчитано для студентов уровня бакалавриата высших учебных заведений. Материалы, включенные в учебное пособие, также могут быть полезными научным работникам, преподавателям, а также широкому кругу специалистов, интересующихся проблемами рационального использования и устойчивого управления водными ресурсами в Центральной Азии.

The textbook provides basics of on basin level water resources planning and management with active participation of stakeholders. The textbook designed for underground students of higher education institutions. Materials and information included into the textbook also useful for researchers, faculty members and wide range of specialists interested in problems of sustainable water resources management and its rational use in conditions of the Central Asia.

MUNDARIJA

Asosiy atamalar va ta'riflar	7
KIRISH.....	11
I bob. Suv resurslarini boshqarishning turlari va darajalari.....	15
1.1 Suv resurslarini boshqarish tushunchasi.....	15
1.2 Suv resurslarini boshqarishdan maqsad.....	18
1.3 Suv resurslarini boshqarishning gidrologik jihatlari.....	29
1.4 Suv resurslarini boshqarishning siyosiy jihatlari.....	33
1.5 Suv resurslarini boshqarish turlari, darajalari va evolyutsiyasi.....	39
1.6 Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish choralar.....	45
II bob. Havzaviy tashkilotlar hamda ularning suv resurslarini havzaviy boshqarish rejalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdagi roli	49
2.1 Suv resurslarini boshqarishda ishtirok etuvchi havzaviy tashkilotlar, ularni tashkil etish zaruriyati va roli	51
2.2 Havzaviy tashkilotlarning tashkil etilishi, vazifalari, vakolatlari va rivojlanishi.....	55

III bob. Suv resurslarini havzaviy boshqarish	89
3.1 Suv resurslarini havzaviy boshqarishning mohiyati va afzalliklari	89
3.2 Suv resurslarini havzaviy boshqarishning huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik asoslari va imkoniyatlari.....	111
IV bob. Havzaviy rejalarini ishlab chiqish. Suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejalashtirish sikli.....	129
4.1 Suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejalashtirish jarayoni: Rejalashtirish sikli	129
4.2 Strategik nazar. Strategik nazarni ishlab chiqish bosqichlari.....	133
4.3 Mavjud vaziyatni tahlil qilish va baholash.....	134
4.4 Maqsad va vazifalarni aniqlash	142
4.5 Suv resurslarini havzaviy boshqarish rejasi (Havzaviy reja) matnini ishlab chiqish va tasdiqlash	146
4.6 Havzaviy rejalarini muhokama qilish va ularni amalga oshirishda havzaviy tashkilotlarning o'rni.....	149
4.7 Havzaviy rejalar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash.....	150
4.8 Uzoq muddatli strategik rejalashtirish	152
4.9 Suv resurslarini havzaviy boshqarish va rejalashtirish jarayonida bahsli vaziyatlar va ularni boshqarish yo'llari.....	159

V bob. Havzaviy rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash	197
5.1 Havzaviy rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda zaruriy xaratatlar	197
5.2 Havzaviy rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni moliyalashtirishning ehtimoliy manbalari	200
5.3 Havzaviy rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda moliyaviy manbalarni jalb etishning muqobil usul va yo'llari.....	204
Adabiyotlar	211

Asosiy atamalar va ta'riflar

Antropogen yuklama – inson va xalq xo'jaligining atrof-muhitga umuman yoki uning alohida komponentlariga (landshaftlar, tuproqlar, atmosfera, suv muhiti, biota va b.) bevosita va bilvosita ta'sirining ko'lami;

Havzaviy tuman (suv xo'jaligi tumani) – suv ob'yektlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida boshqaruvning asosiy birligi bo'lib, daryo havzalari va ular bilan bog'liq bo'lgan yer osti suvlarini ob'yektlari va dengizlardan tashkil topadi. Havzaviy tumanlarning chegaralari ularning tarkibiga kiritilgan gidrografik birliklar chegaralari va ichki dengizlarning ularga tutashgan chegaralari va mamlakat territorial dengizlari chegaralari bo'yicha belgilanadi;

Yirik daryo – havzasi bir necha geografik hududlarda joylashgan va gidrologik rejimi har bir geografik zonadagi daryolariga xos bo'lмаган daryo;

Suv ob'yekti – suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to'planadigan va suv rejiminining o'ziga xos shakllari va belgilari bo'lgan tabiiy (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun'iy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko'llar, dengizlar, yer osti suvli qatlamlari) va sun'iy (suv omborlari, sel suvlarini to'planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa ob'yektlar;

Suv xo'jaligi ob'yekti – suv resurslarini to'plash, boshqarish, yetkazib berish, ularidan foydalanish, ularni iste'mol qilish, ajratib berish va muhofaza qilish maqsadida suv xo'jaligi faoliyatini amalga oshiriladigan suv ob'yekti;

Suv rejimi – suv ob'yektlari va tuproq-grundda suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo'yicha o'zgarishi;

Suv resurslari – suv ob'yektlarida mavjud bo'lgan, uning

miqdori va sifatini vaqt va makonda boshqarish yo'li bilan foydalilgan, foydalanilayotgan yoki foydalanish mumkin bo'lgan yer usti va yer osti suvlari;

Suv muhofazasi zonasi – dengizlar, daryolar, soylar, kanallar, suv omborlari, ko'llar va boshqa suv ob'yektlari qirg'oqlariga tutashgan va unda suv ob'yektlarining ifloslanishi, loyqa bosishi, suv resurslarining barvaqt kamayib ketishi hamda suv biologik resurslari va boshqa hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish maqsadida xo'jalik faoliyatini yuritishning maxsus rejimi o'rnatilgan hudud;

Suv iste'moli (suvni iste'mol qilish) – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni manbadan belgilangan tartibda olib, foydalanish jarayonida ularning bir qismini o'zlashtirish (bug'lantirib yoki mahsulot tarkibiga o'tkazib va h.k.), qolgan qismini sifatini o'zgartirib manbaga qaytarib tashlash, natijada suv resurslarining miqdoriga, sifatiga yoki rejimiga ta'sir ko'rsatgan holda foydalanish;

Suv iste'molchisi – o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslarini manbadan belgilangan tartibda olib foydalanish jarayonida ularning bir qismini o'zlashtirib (bug'lantirib yoki mahsulot tarkibiga o'tkazib va h.k), qolgan qismini sifatini o'zgartirib manbaga qaytarib tashlovchi, natijada suv resurslarining miqdoriga, sifatiga yoki rejimiga ta'sir ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxs;

Suvdan foydalanish – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv resurslarini manbaidan olmagan holda ulardan miqdoriga, sifatiga yoki rejimiga putur yetkazmay o'z ehtiyojlarini uchun foydalanish;

Suvdan foydalanuvchi – suv resurslarini manbadan olmagan holda o'z ehtiyojlarini uchun yo'l-yo'lakay, ularning miqdoriga, sifatiga yoki rejimiga putur yetkazmay foydalanuvchi yuridik va

jismoniy shaxs;

Suvlarning zararli ta'siri – suv toshishi, suv bosishi, zax bosishi va suvlarning o'zga ta'sirlari natijasida ayrim tabiiy-xo'jalik ob'yektlari va hududlarning yuvilishi, buzilishi, loyqa cho'kishi, botqoqlanishi, sho'rланishi va boshqa salbiy hodisalar;

Suv xo'jaligi majmuasi – mavjud suv resurslari bilan atrof-muhit va barcha xalq xo'jaligi tarmoqlarining suvga bo'lgan talabini optimal ravishda qanoatlantirish imkoniyatini beruvchi, suv va suv bilan bog'liq tabiat resurslaridan oqilona foydalanishi amalga oshiruvchi tadbirlar va inshootlar majmuasi;

Suv xo'jaligi majmuasi qatnashchilar – bir suv havzasining suv resurslarini birgalikda iste'mol qiluvchi va ulardan foydalanuvchi xalq xo'jaligining turli tarmoqlari;

Suv xo'jaligi balansi – suv xo'jaligi majmui qatnashchilarining daryo, irrigatsiya tizimlari, suv xo'jaligi tumanlari havzasida yilning turli suvlilik sharoitlarida suvga bo'lgan talablarining mavjud suv resurslariga solishtirilgan holda bajarilgan hisoblari;

Suv xo'jaligi rayonlashtirilishi – suv xo'jaligi balanslarini ishlab chiqish maqsadida gidrografik birliklarning suv xo'jaligi tumanlariga bo'linishi;

Suv xo'jaligi tizimi – suv ob'yektlari hamda suv resurslaridan ratsional foydalanish va ularni muhofaza qilishni ta'minlashga mo'ljallangan suv xo'jaligi inshootlari majmuasi;

Suv xo'jaligi uchastkasi – daryo havzasining suv ob'yektidan suv resurslarini olish limitlarini va suvdan foydalanishning boshqa parametrlarini o'rnatish imkoniyatini yaratuvchi xarakteristikaga ega bo'lgan qismi;

Gidrografik rayonlashtirish – mamlakat hududining gidrografik birliklar – daryo, irrigatsiya tizimlari havzalari va subhavzalarga bo'linishi;

Gidrografik birlik – daryo, irrigatsiya tizimlari havzasi yoki daryo havzasining asosiy daryosiga qo'shiluvchi subhavzasi;

Suv ob'yeqtalarining davlat monitoringi – davlat, turli tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bo'lgan suv ob'yeqtalarining holati o'zgarishini kuzatish, baholash va bashorat qilish tizimi;

Davlat suv reestri – davlat, turli tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufida bo'lgan suv ob'yeqtleri, ulardan foydalanish holati, daryo havzalari va havza tumanlari to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlar to'plami;

Suvlarning barvaqt kamayib ketishi – yer usti va yer osti suvlari zaxiralarining doimiy kamayib va sifatining yomonlashib borishi;

Suv sifati – suvning muayyan maqsadlarga yaroqliliginini ko'rsatuvchi tarkibi va xossalari xarakteristikasi;

Transchegaraviy suv ob'yeqtлари – ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan suv ob'yeqtleri;

Transchegaraviy suvlar – ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday yer usti yoki yer osti suvlari.

KIRISH

Nazariy jihatdan qaralganda, suv resurslari tuganmasdir, chunki ularning umumiy miqdori (sifatini e'tiborga olmagan-da) mavjud talablarga nisbatan ancha katta hamda chuchuk suv resurslari suvning tabiatdagi aylanma harakati jarayonida tiklanib, yangilanib turadi. Ammo suvni iste'mol qilish shunday jadal sur'atlar bilan o'smoqdaki, insoniyat bugungi suv resurslari taqchilligi va ularning sifati yomonlashib borishi sharoitida kelajakda o'zining suvga bo'ladicidan ehtiyojlarini qanday ta'minlashi kerakligi haqida chuqur o'ya tolmoqda. Bugungi kunga kelib suv resurslarini barqaror boshqarish va ular-dan samarali foydalanishni ta'minlash – dunyoda butun boshli mintaqalar va mamlakatlarning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti-da hal qiluvchi ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biriga ay-landi. Mazkur masala suv resurslari cheklangan, iqtisodiyoti va aholisi tez o'sib borayotgan (demak, suvga bo'lgan talabi ortib borayotgan), iqlim o'zgarishi ta'sirlari tobora ko'proq sezila-yotgan (ya'ni suv bilan ta'minlanish sharoiti murakkabroq bo'lgan) Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik realliklar sharoitida o'ta dolzarb va yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Cheklangan suv resurs-laridan ham iqtisodiy va ham ekologik talablar barqarorligini ta'minlagan holda foydalanish samaradorligini oshirish zamон-ning dolzarb muammosidir.

Istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari ko'p jihatdan mavjud suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish dara-jasiga, jamiyatning suvdan foydalanishga bo'lgan munosabatiga bevosita bog'liqdir. Yaqin kelajakda suvga o'sib borayotgan ta-blarni suv resurslari boshqaruvini takomillashtirish, ulardan foydalanishni oqilonalashtirish va ichki zaxiralarni topish hiso-biga qondirish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, suv resurslarini barqaror boshqarish va ulardan samarali foydalanish nafaqat davlat tashkilotlarining, balki jamiyatning har bir a'zosi tomonidan doimiy e'tibor talab etadigan o'ziga xos murakkab jarayondir. Bugungi kunda muqobili bo'lмаган eng muhim hayotiy resurs hisoblangan suv resurslarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – ularning "umumfoydalanuvchi resurs" ekanligidir. Ya'ni suvdan foydalanish jarayonida bir vaqtning o'zida millionlab suv iste'molchilari ishtirok etadilar. Suv resurslaridan foydalanishning umumiyligi samaradorligini ta'minlashga erishish uchun faqat suv xo'jaligi yoki unga tegishli bo'lgan tashkilotlarning samarali faoliyatigina emas, balki har bir sohada va har bir suvdan foydalanuvchi tomonidan suvdan yuqori samara bilan foydalanishga erishilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv xo'jaligining asosiy vazifalari – xalq xo'jaligi barcha tarmoq va sohalarining shuningdek, atrof-muhitning talablaridan kelib chiqqan holda ularni zaruriy miqdordagi va sifatdagi suv bilan ta'minlash, suv bilan bog'liq salbiy oqibatlarning oldini olishni o'z ichiga oladi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni boshqarish turli mexanizmlar, jumladan, texnik, iqtisodiy, tashkiliy va ijtimoiy mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishi suv resurslari va suvgaga bo'lgan tabablarni barqaror boshqarish, suv xo'jaligi majmuasi qatnashchilari, ya'ni xalq xo'jaligi sohalarida samarasiz suv iste'moli miqdorini qisqartirishga yo'naltirilgandir. Mazkur masalada ikkinchi yo'nalish – suvdan foydalanishning barcha bosqichlarida katta miqdordagi suv yo'qotilishlariiga barham berishdan iboratdir. Bugungi kunda suv yo'qotilishi holati suv xo'jaligi majmuasining barcha qatnashchilari tizimlarida ham uchraydi. Suv resurslarini boshqarish zaruriyati

quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

- mavjud suv resurslarining cheklanganligi va notejis tarqalganligi;
- suvga bo'lgan talabning keskin ortib borishi;
- suv resurslari miqdorining, ularning shakllanish sharoitlari va manbalariga bog'liq ravishda vaqt davomida o'zgaruvchanligi va o'zgarish amplitudasining kattaligi;
- tabiiy va antropogen omillar ta'sirida suv resurslari ifloslanishining kuchayib borishi;
- suv ob'yektlarining tabiatga va xalq xo'jaligi ob'yektlariga salbiy ta'siri (suv toshqini, suv bosishi va b.).

BMT tomonidan qabul qilingan va 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan barqaror taraqqiyot sohasidagi rivojlanish kun tartibini amalga oshirishda suv resurslarini integral boshqarish (SRIB)ga erishilishi muhim ahamiyat kasb etadi. SRIBning asosiy maqsadi barcha mamlakatlarning barqaror rivojlanishi uchun chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. SRIB har bir alohida holatda o'ziga xos xususiyatlarga ega jarayon sifatida ko'rildi. SRIBning asosi suvdan foydalanishning barcha turlari o'zaro bog'liqligini tan olishdan iborat. SRIBda suv resurslari taqsimoti va boshqaruvi bo'yicha qabul qilinadigan hamda barcha manfaatdor tomonlar tomonidan ma'qullanadigan qarorlarida, suvdan foydalanish har bir turining boshqasiga bo'lgan ta'siri hamda havzalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojlanish maqsadlari hisobga olinadi.

Shu tariqa SRIBning asosiy maqsadi – barcha darajada suv resurslarini barqaror boshqarish va rivojlantirishdir. Havzaviy rejerashtirishni qo'llash esa SRIBni ta'minlashning eng muhim shakli bo'lib, ushbu qo'llanmaning asosini tashkil etadi.

Ushbu o'quv qo'llanmasi Havzaviy rejalarashtirish bo'yicha qo'llanma va Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) tomonidan tayyorlangan Havzaviy Rejalarashtirish bo'yicha Trenerlar uchun mintaqaviy trening materiallari asosida ishlab chiqilgan.

I bob. Suv resurslarini boshqarishning turlari va darajalari

1.1 Suv resurslarini boshqarish tushunchasi

Suv resurslarini boshqarish tushunchasi ostida suv resurslarini vaqt va hududlar bo'yicha qayta tarqatish, ekologik barqarorlik talablarini hisobga olgan holda atrof-muhit barqarorligini ta'minlash va iqtisodiyot sohalarining suv resurslariga bo'lgan (tabiatning ekologik va jamiyatning iqtisodiy) talablarini optimal ravishda qondirish uchun suv resurslarini kerak bo'lgan joyga, talab etilgan miqdor va sifat bilan zarur bo'lgan vaqtida yetkazish tushuniladi. Yana ham qisqaroq qilib, suv resurslarini boshqarishni suv resurslarining vaqt va makonda tabiiy tarqalishi hamda sifat ko'rsatkichlari rejimini iste'molchilarning talablariga moslashtirish jarayoni deb talqin etilishi mumkin.

Ko'pincha suv resurslarini boshqarish – bu suvni imkon daramasida kerakli vaqtida va kerakli miqdorda kerakli nuqtaga yetkazishdan iborat, degan sodda tushunchaga duch kelamiz. Ammo suv resurslari hamda ularga bo'lgan talablarning shakllanishida bo'ladigan tabiiy va antropogen, tashqi va ichki omillar ta'siri oqibatida dunyoda shakllanayotgan tendensiyalarni inobatga oladigan bo'lsak, hozirgi davrda suv resurslarini boshqarish ancha murakkab jarayondir. Shunday qilib, "Suv resurslarini boshqarish" – tabiat va jamiyatning zaruriy sifatdagi va miqdordagi suvga bo'lgan ehtiyojlarini doimiy tarzda, barcha vaqt davrlari (operativ, yillik, ko'p yillik va istiqbolli) bo'yicha ta'minlashi lozim. Boshqacha qilib aytganda, suv resurslarini boshqarish suv resurslari va suvga bo'lgan talablar o'rtasidagi doimiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur muvozanat yuzaki qaraganda juda sodda va chuqur-roq qaraganda juda murakkab bo'lishi mumkin. Ushbu murakkab

tizimda quyidagilarni alohida ajratib ta'kidlash mumkin:

- tabiiy suv resurslari (yog'inlar, yer usti va yer osti suvlar oqimlari) hamda insoniyatning antropogen ta'sirlari ostida vujudga keluvchi qaytuvchi suvlar. Mazkur resurslar iqlimning o'zgarishi oqibati ta'sirida o'zgarishi mumkin;
 - iqtisodiyot tarmoqlarining suvgaga bo'lgan (ularning qaytmas suv iste'molini hisobga olgan holdagi) talablar;
 - ekologik sharoit va talablar;
 - ijtimoiy muhit va iqtisodiy taraqqiyot;
 - siyosiy muhit.
- Shu bilan birga, quyidagilarni nazarda tutish lozim:
- mavjud suv resurslari suvgaga bo'lgan talablar bilan mos kelmaydi;
 - turli iste'molchilarining suv iste'moli muddatlari turlicha bo'lib, bir-biriga mos kelmaydi (masalan, sug'orish va energetika; rekreatsiya va baliqchilik va h.k.);
 - suv sifati yomonlashuvi. Mazkur holat amalda jamiyat uchun mavjud toza suv resurslarining miqdorini keskin kamaytiradi.

Eng muhimi shundaki, suv resurslari boshqaruvda alohida, o'ziga xos resurs bo'lib, ularning xossalari suvgaga bo'ladigan har qanday ta'sirlar yoki undagi o'zgarishlarni barcha o'zaro bog'liq bo'lgan muhitlar va sohalarga vaqt va makonda tarqalishiga olib keladi.

Albatta, suv resurslarini barqaror boshqarishda suvgaga bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik talablar, boshqaruvda avvaldan qo'llanib kelingan deklaratasiyalar hamda boshqarishni tashkil etishning qat'iy tartibiga asosan barcha suv resurslari ni jalg' etish, ularning shakllanish sharoitlarini yaxshilash, bir vaqtning o'zida suv resurslari bilan birga suvgaga bo'lgan talablar ni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishda katta rol o'ynaydi. Suv resurslari tizimidagi murakkab o'zaro bog'liqliklarning

barcha jihatlari o'zaro uzviy birlikda ko'rilmaga muammolar nisbatan yengilroq hal etiladi. Shuning uchun har bir mamlakat doirasida suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq harakatlarni muvofiqlashtirish, birlashtirish va bog'lash bo'yicha zaruriyat tug'iladi. Inson va tabiat o'rtasidagi raqobatning oldini olish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur. Jumladan:

- vaziyatni, trendlar va potensialni baholash uchun:
 - ma'lumotlar va ularning tahlili
- resurslar va ehtiyojlarni bashorat qilish uchun:
 - ma'lumotlar va ularning tahlili
- suv resurslari mahsuldarligining potensial texnik darajasi-
ga erishish bo'yicha tadbirlarni rejalahtirish bo'yicha:
 - texnik baza;
 - texnik yechimlar
 - moliyaviy resurslar
 - boshqaruvni tashkiliy amalga oshirish bo'yicha:
 - huquqiy baza
 - potensial tashkiliy tuzilmalar
 - suv uchun to'lov tizimi, resurslar
 - suvning ifloslanishi
 - suv iste'molchilarining ishtiroki
 - suvni tejamkor ishlatishdan moddiy manfaatdorlik

Umuman suv resurslarini boshqarish bo'yicha barcha harakatlar mamlakat miqyosida va havza darajasida barcha gidrografik birliklar doirasida muvofiqlashtirilishi lozim. Aynan shunday tizim Ispaniyada (1926-yildan), Fransiyada, Gollandiyada va dunyoning boshqa qator rivojlangan mamlakatlarida mavjud. Bunday tizim 1926-yildan Markaziy Osiyoda Zarafshon daryosi havzasida ham mavjud edi. Ammo yaqin o'tgan davrda mazkur tizim o'zgartirilib, oxir-oqibat ma'muriy hududiy viloyat tizimi-
ga aylantirilgan edi. Keyingi davrda esa mintaqqa mamlakatlarida

asta-sekin gidrografik havzaviy tamoyilga o'tish tendensiyasi kuzatilmoxda.

1.2 Suv resurslarini boshqarishdan maqsad

Suv resurslari tabiiy muhitning ajralmas qismi va insonning fiziologik ehtiyojlarini qondirishning tengsiz manba-si hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanish insonning yashashga bo'lgan huquqi bir qismi bo'lishi bilan birga u inson faoliyatining barcha turlari uchun zarur resursdir. Undan komunal-maishiy maqsadlar, shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlash, energetika, sanoat, xomashyo olish va qator boshqa maqsadlar uchun foydalaniлади. Suvdan, shuningdek, transport, harakat va yog'och oqizish, sport, tibbiyot-sog'lomlashtirish va boshqa qator maqsadlar uchun ham foydalaniлади. Suv resurslariga xos yana bir muhim jihat ularning ko'p sonli xossa va xususiyatlarga ega bo'lishi hamda ko'p sonli maqsadlar va ko'p sonli iste'molchilar tomonidan foydalaniuvchi yagona, muqobili bo'lмаган umumfoydalaniluvchi resurs ekanligi bilan bog'liqdir. Dunyodagi umumiyl suv zaxiralari qariyb 1,5 milliard km³ bo'lgani holda uning 2%ga yaqin qisminigina chuchuk suvlar tashkil etadi. Insoniyat o'z ehtiyojlari uchun ishlatsi mumkin bo'lgan chuchuk suvlar resurslari esa olimlar hisoblariga ko'ra atigi 41 ming km³ni tashkil etadi. Dunyodagi mayjud cheklangan chuchuk suv resurslari – ularning taqchilligi ortishi va sifatining yomonlashib borishi bilan ham xarakterlanadi. Dunyoda chuchuk suv taqchilligi jiddiy global muammoga aylanib ulgurdi va oqibatda tabiiy muhit holatining yomonlashushi, tirikchilik uchun zarur vositalarning kamayishi va aholi kasallanishi holatlarining ortishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda asosiy iste'mol mahsuloti hisoblangan suvning yetishmovchiligidan dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida istiqomat qiluvchi

2 milliarddan ortiqroq kishi aziyat chekmoqda.

Suv bilan bog'liq eng asosiy muammo – mavjud cheklangan suv resurslarining tobora oshib borayotgan talablarga mos kelmasligi bilan bog'liqdir. Dunyoda suv xo'jalik muammolarining asosiy kelib chiqish sabablarini:

1. Sayyorada chuchuk suv zaxiralari o'ta chegaralangan miqdorda ekanligi;

2. Chegaralangan chuchuk suv resurslarining qit'alar bo'yicha hududiy jihatdan o'ta notekis tarqalganligi (buning oqibatida sersuv va kansuv mintaqalar hosil bo'lishi);

3. Mavjud, chegaralangan, chuchuk suv resurslardan noto'g'ri foydalanish oqibatida (antropogen omillar) ularning ifloslanishi, ya'ni yaroqli holatdan yaroqsiz holatga o'tib qolishi bilan izohlash mumkin.

Suv resurslaridan bir vaqtda millionlab iste'molchilar o'zlarining turli-tuman ehtiyojlari uchun foydalanadilar. Suvning turli foydali xossa va xususiyatlaridan foydalanishda nafaqat kishilik jamiyatining iqtisodiy va atrof-muhit barqarorligi uchun zarur bo'lgan ekologik ehtiyojlari o'rtasida, balki alohida iste'molchilar va hatto mamlakatlar manfaatlari o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. Ziddiyatlar suvning miqdori, sifati yoki rejimi (suvning kerakli miqdorda va zarur sifat ko'rsatkichlarida mavjud bo'lishi vaqtiga va muddati) ko'rsatkichlari bo'yicha yuzaga kelishi mumkin. Tarix bunday ziddiyatlarning juda ko'plariga shohid bo'lgan.

Cheklangan suv resurslari tanqisligi esa suvgaga bo'lgan tabab ortib borgan sari keskinlashib borishi tabiiy. Suv bilan bog'liq munosabatlarning rivojlanish ta'rixiga e'tibor qaratilsa, uning asosan ikki davrni o'z ichiga olganligini ko'rish mumkin. Ularning birinchisi taxminan XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr asosan mavjud suv resurslariga nisbatan ularga bo'lgan ehtiyojning kamligi (aholi soni kam – 2.5 mlrd. kishi, iqtisodiyot rivojlanmagan), insoniyatda faqat o'sha

davrgagina to'g'ri keluvchi "suv resurslari cheksiz, u tugallanmas tabiiy resurs, bu Xudoning insonlarga in'omi, undan xohlagancha foydalanish mumkin, u tugamaydi, daryo suvini olib ishlatish uning miqdoriga ta'sir etmaydi, suvning sifati ham o'zgarmaydi, chunki u yetti marotaba dumalasa yana toza bo'lib qoladi" degan noto'g'ri (yoki aynan o'sha, suv resurslari suvga bo'lgan talablar miqdoridan ancha katta bo'lgan davr uchungina to'g'ri) fikr yoki tushuncha odamlar ongidan o'rin olishiga asos bo'lgan edi. Suv bilan bog'liq munosabatlar rivojlanish tarixining ikkinchi bosqichi esa XX asrning o'rtalarida, ya'ni II-Jahon urushidan so'ng tinch hayotning boshlanishi, katta-katta maydonlarning o'zlashtirilishi, sanoat rivojlanishi, aholi soni keskin oshib boriishi natijasida suv resurslariga bo'lgan talabning keskin ortishi bilan xarakterlanadi. Mavjud suv resurslari deyarli to'liq o'zlashtirilib, endi kelajak qaysi suv resurslari hisobiga ta'minlanadi, degan savol kun tartibiga qo'yila boshladи. Suv resurslarining xalq xo'jaligida katta miqyosda ishlatilishi suv balansini o'zgartirdi va suv ob'yektlari ifloslanishiga olib keldi. Insoniyat tomonidan kichik maydonlarning o'zlashtirilishi va sug'orish uchun suv olinishi yoki boshqa ishlab chiqarish maqsadlari uchun kichik hajmda suv ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan ta'sirlarni XX asrning elliginchi yillaridan keyingi davrda katta maydonlarning o'zlashtirilishi hamda xalq xo'jaligi tarmoqlarining keng miqyosda rivojlanishi bilan bog'liq atrof-muhitga ta'siri oqibatlari bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Butunjahon sog'lijni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi barcha kasalliklarning 80 foizi suv tufayli yoki suv orqali tarqaladi. Shunday qilib, suv resurslari barqaror boshqarish va ularidan samarali foydalanish zaruriyatining birinchi sababi ilmiy-texnik taraqqiyot, xalq xo'jaligi tarmoqlarining intensiv rivojlanishi bo'lsa, uning ikkinchi sababi oziq-ovqat muammosidir. Yuqorida ta'kidlangan suvga bo'lgan

munosabatlarning rivojlanish tarixi ikkinchi bosqichi davrida ham suvgaga birinchi bosqichdagi munosabatlarga tayangan holda “Tabiatni inson izmiga bo‘ysundirish” jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar oqibatida Sayyoramizda bugungi kunga kelib suv, tinchlik va xavfsizlik muammolarini chambarchas bog‘lovchi chuchuk suv muammosi paydo bo‘ldi. Bugungi kunda chuchuk suv muammosi o‘zida suv, tinchlik va xavfsizlik shartlarini mujassam etgan, nafaqat alohida mamlakatlar, balki butun boshli mintaqalarning barqaror taraqqiyotini belgilab beruvchi muammoga aylandi. Shuning uchun yangi sharoitlarda umumiyligi va cheklangan suv resurslarini birgalikda barqaror boshqarish, ulardan samarali foydalanish, ularga bo‘lgan munosabat masalasiga munosib e’tibor qaratish zaruriyati – o‘zaro chambarchas bog‘liq suv, tinchlik va xavfsizlik muammosini o‘zida mujassamlashtiradi.

Markaziy Osiyoning umumiyligi cheklangan suvlari masalasiiga o‘tsak, avvalo ta’kidlash lozimki, Orol dengizi havzasi deb nomlanuvchi bizning mintaqamiz aynan chuchuk suv resurslarining qit’alar bo‘yicha hududiy jihatdan o‘ta notekis tarqalishi (tabiiy omil) oqibatida shakllangan cheklangan suv resurslariga ega berk havza hisoblanadi. Orol dengizi havzasining suv resurslari tabiiy holda shakllanadigan va qayta tiklanib turadigan yer usti va yer osti suv resurslari hamda qaytariladigan suvlardan tashkil topgan. Orol dengizi havzasining umumiyligi o‘rtacha ko‘p yillik suv oqimi 115.6 km^3 ni tashkil etadi, shu jumladan Amudaryo bo‘yicha 78.5 km^3 va Sirdaryo bo‘yicha 37.1 km^3 ga teng. Mavjud umumiyligi suv resurslari mintaqada yashovchi 60 milliondan ko‘proq aholining hayotiy ne’mati, mintqa barqaror taraqqiyotining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Transchegaraviy suv ob‘yektlari maqomiga ega bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryo daryolarining o‘rtacha ko‘p yillik suv oqimi miqdori katta diapazonda o‘zgarib turibdi. Umumiyligi cheklangan suv resurslari mintqa mamlakatlari tomonidan birgalikda

iqtisodiy va ekologik ehtiyojlar uchun foydalaniladi.

Suvga bo'lgan ehtiyoj aholi zichligi va bu suvni olish uchun tabab etiladigan xarajatlarning miqdoriga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Suvga ehtiyoj suvga bo'lgan talabdan farq qiladi. Suvga bo'lgan talab belgilangan va o'zgarmaydi hamda suvning mavjud miqdori va narxiga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, o'simliklar uchun talab etilgan suv odatda o'simliklarning yashashi uchun zarur bo'lgan suv miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Suvga bo'lgan ehtiyojlar – har qanday mamlakatda ustun bo'lgan huquqiy tizim, institutsional cheklovlar, urf-odatlar va an'analar, din, iqtisodiy va moliyaviy afzalliliklar kabi qator ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq holda o'zgarib turishi mumkin. Iqlim – suvga bo'lgan ehtiyojga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omil. Masalan, qurg'oqchil zonalar namgarchilik katta bo'ladigan zonalarga nisbatan ko'proq suv talab etadi. Nihoyat, suvga bo'lgan ehtiyojga suvning sifati ham ta'sir ko'rsatadi. Tarkibida ko'p miqdorda tuz bo'lgan suvdan maishiy yoki qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilmaydi. Sug'orish maqsadlari uchun suvga bo'lgan ehtiyoj miqdoriga tuproqning zichligi, strukturasi, suv o'tkazuvchalligi, unumдорлиги, minerallashuvi, drenaj va topografiyasi kabi xarakteristikalari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Suv resurslari iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikka to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Mavjud suv miqdorining unga bo'ladigan istiqbolli ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli bo'lishini ta'minlashga uch omil yordam beradi. Bular, suvdan foydalanish uning yo'qotishlarini kamaytirish hisobiga yaxshilanishi mumkin, ikkinchidan suvning qayta tarqatilishi va nihoyat yangi suv loyihalari, yangi suv manbalari yaratilishi va ochilishi suvningadolatli tarqatilishi va iqtisodiy taraqqiyotga yordam berishi kerak.

Suv resurslarini boshqarishning maqsadi – mavjud suv resurslari va ularga jamiyat, tabiat talablarining hajm, sifat va vaqt bo'yicha doimiy muvozanatiga erishish hisoblanadi.

Suv resurslarini boshqarish – keng mazmunda suv taqsimotini ta'minlash bilan bog'liq barcha – siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa funksiyalar spektrini, ya'ni suv hokimiyati (boshqaruvi, qarorlar qabul qilish) va suv resurslarini boshqarish (tor mazmunda) tushunchalarini o'z ichiga oladi. Suv resurslarini boshqarishni aynan suv hokimiyati bosqichida suv xo'jaligi majmuasi turli ishtirokchilarining faol demokratik ishtiroki ta'minlanadi va qabul qilingan qarorlarning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Ikkinci bosqichda esa, ya'ni suv resurslarini boshqarish (tor mazmunda) bosqichida qabul qilingan qarorlarning ijrosi ta'minlanadi. Shunday qilib, suv resurslarini boshqarish (keng mazmunda) ikki bosqichdan, ya'ni suv hokimiyati (birinchi bosqich) va suv resurslarini boshqarish (tor mazmunda – ikkinchi bosqich)ni o'z ichiga oluvchi jarayon-dan iboratdir.

Suv resurslarini boshqarish – tor mazmunda suv resurslarini tarqatish hamda suv xo'jaligi tizimlari ishchi holatini ta'minlashga qaratilgan texnik, texnologik, moliyaviy va tashkiliy tadbirlarni rejalaشتirish va amalga oshirishni o'z ichiga oluvchi faoliyatdir. Bunga «ekspluatatsiya» so'zining sinonimi sifatida ham qaraladi.

Suv resurslarini boshqarish turlari (keng mazmunda)

Suv resurslarini (taklifni) boshqarish vazifasi institut-sionalga nisbatan ko'proq injenerlik masalasi hisoblanadi. Suv resurslarini boshqarish – suv xo'jaligi infratuzilmasini (to'g'onlar, suv omborlari, kanallar, kollektorlar va boshq.) yaratish va modernizatsiya qilishga ko'proq urg'u beriladigan tuzilmaviy (texnik) yondashuv bilan xarakterlanadi. Suv xo'jaligi rivojining dastlabki bosqichlarida iqtisodiy tizimning turidan qat'i nazar odatda ko'proq suv resurslarini boshqarishga urg'u beriladi.

Suvga bo'lgan talabni boshqarish vazifasi nisbatan ko'proq

institutsional masala hisoblanadi. Suvga bo'lgan talabni boshqarish faoliyati maqsadga erishishning nostrukturaviy, ya'ni texnik ob'yektlarga emas, balki inson komponenti vositalariga tayanishi bilan xarakterlanadi. Suvga bo'lgan talabni boshqarish, bir tomondan, suvga bo'lgan talabni shakllantirishda ishtirok etuvchi (fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa egalari va boshqa suv iste'molchilari) va, ikkinchi tomondan, suv resurslarini boshqarishda ishtirok etuvchi (suv xo'jaligi tashkilotlari xodimlari) odamlarga tayanadi.

Suv hokimiyyati va uning funksional darajalari

Suv hokimiyatining (руководство водой – water governance) quyidagi funksional darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Konstitutsiyaviy (tashqi suv hokimiyyati)
- Tashkiliy (ichki suv hokimiyyati)

Tashqi suv hokimiyyati – qonunlar qabul qilish, mulkchilik huquqlarini tartibga solish, bozor munosabatlarini joriy etish (suv xizmati uchun to'lov), investitsiyalar, subsidiyalar, soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish kabi mexanizmlar vositasida amalga oshiriladi.

Ichki suv hokimiyyati – moliyaviy resurslarni tarqatish, suv limitlarini belgilash, tashkilotlarning tuzilmasini, shtatlarni, moshchlarni tasdiqlash, yo'riqnomalarini joriy etish mexanizmlari vositasida amalga oshiriladi.

Masalan, magistral kanallar darajasidagi suv hokimiyyati funksiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kanalni boshqarishning istiqbolli rivojlantirish rejalarini muvofiqlashtirish;
- Suv tarqatish rejalarini muvofiqlashtirish va monitoring qilish;
- Ifloslantirish limitlarini muvofiqlashtirish;
- Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish rejalarini

muvofiqlashtirish;

- Byudjet va shtatni muvofiqlashtirish;
- Kanal boshqarmasi boshqaruvchisi lavozimiga nomzod(lar)ni kiritish;
- Suv xizmatlari xarajatlar, suv xizmatlari uchun to'lovlar hamda to'lovlar yig'imi monitoringini muvofiqlashtirish;
- Kanal boshqarmasi va suvdan foydalanuvchilar hamda suv iste'molchilari o'rtaсидagi bahsli masalalar yechimini topish (bahsli masalalarni kanal boshqarmasi hal eta olmagan hollarda)

Magistral kanallar darajasidagi suv resurslari boshqaruvi funksiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Suv taqsimoti rejalarini tuzish va ularni korrektirovka qilish;
- Suvdan foydalanish rejalarini amalga oshirish;
- Kanal boshqarmasi byudjetini ishlab chiqish;
- Infratuzilmani ekspluatatsiya qilish va unga texnik xizmat ko'rsatish;
- Suv taqsimotini baholash va monitoring qilish;
- Kanal boshqarmasi va suvdan foydalanuvchilar hamda suv iste'molchilari o'rtaсидagi bahsli masalalarni hal qilish.

Magistral kanallar darajasida suv hokimiyati va suv resurslari boshqarish organlari quyidagilardan iborat.

Suv hokimligi organlari:

1) tashqi hokimlik: Prezident, Parlament, Hukumat (Vazirlar Mahkamasi).

2) ichki hokimlik: Vazirlilik, Bosh boshqarma, **ITHB**, Kengash.

Suv resurslarini boshqarish organlariga misollar tariqasida **JFKB**, **AMKB** va h.k.larni keltirish mumkin.

Umuman jamiyatni davlat va fuqarolik jamiyatiga ajratish shartli xarakterga ega. Muayyan holatlarda bir xildagi shaxslar

va tashkilotlar ham davlatning, ham fuqarolik jamiyatining va killari sifatida faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Davlat va jamiyatning rollari nisbati boshqaruv jarayonida ichki (jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy taraqqiyoti darajasi) va tashqi omillar (xavfsizlik darajasi) bilan uyg'unlashgan bo'lishi lozim. Suvdan foydalanish muammolarini fuqarolar jamiyatni va davlatning (davlat tor ma'noda) o'zaro munosabatlari muammolaridan ayro ko'rib bo'lmaydi. Davlat (tor ma'noda) – insoniyatning tarixiy rivojlanishi davomida fuqarolik jamiyatini boshqarish uchun paydo bo'lgan jamiyat ustidagi hokimlik tuzilmalari (siyosiy va ma'muriy institutlar) ko'rinishidagi ustqurmadir. Bunday uyg'unlikning buzilishi, masalan, «demokratianing haddan oshib ketishiga», hukumatning zaiflashib ketishiga va natijada asosiy maqsad bo'lgan samarali boshqaruv va mos ravishda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishilmay qolishiga olib kelishi mumkin. Xuddi shuningdek, «kuchli hokimiyat – zaif fuqarolik jamiyat» rivojlanishda turg'unlikka olib kelishi mumkin.

Suv resurslarini boshqarish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- suv resurslari miqdorini boshqarish;
- suv resurslari sifatini boshqarish.

Suv resurslari miqdorini boshqarayotganda iste'molchilar tomonidan o'rnatilgan doira va o'lchamlearning o'rtacha hajmlarini hisobga olish, shuningdek, har bir iste'molchi xarakteristikasini, u yoki bu tadbirni o'tkazish zaruriyatini asoslangan holda o'rganish lozim bo'ladi.

Suv resurslari sifatini boshqarayotganda esa iste'molchilar talablariga asoslanish kerak. Amalda turli iste'molchilar suvning sifatiga rioya qilinishi shart bo'lgan belgilangan talablarni qo'yadilar.

Suv resurslarini boshqarishning oddiy va murakkab ko'rinishlari mavjud.

Oddiy boshqaruv tushunchasi ostida shunday boshqaruv

tushuniladiki, bunda suv resurslarini sifat va miqdor jihatidan suv inshootlari va texnik vositalar yordamida vaqt mobaynida qayta tarqatishni amalga oshirmasdan iste'molchiga yetkaziladi yoki yo'l-yo'lakay suv ob'yektining alohida foydali xossa va xususiyatlaridan foydalaniladi. Suv resurslarining sifatini oddiy boshqarish – bu shunday boshqaruvki, bunda iste'mol qilishdan oldin suv, undagi muallaq zarrachalar va suzib yuruvchi moddarlar cho'kishi uchun tindiriladi, zararsizlantiriladi va keyin turli inshootlar yordamida iste'molchiga yetkaziladi.

Murakkab boshqaruv tushunchasi ostida suv resurslarini iste'molchiga yetkazishdan oldin ularni tayyorlash talab etiladigan boshqaruv yotadi. Inshootlar yordamida (suv omborlari, yer osti sig'imi) suv resurslarining vaqt davomida qayta tarqatilishi amalga oshiriladi hamda suv miqdori va sifati o'zgarishining rejimi suv iste'moli jadvaliga bo'ysundirilganidan keyingina turli inshootlar va texnik vositalar yordamida (kanallar, lotoklar va b.) iste'molchiga yetkaziladi.

Suv resurslari sifatining murakkab boshqarilishida suv sifatini yaxshilashning maxsus usullari kabi kompleks tadbirlar amalga oshiriladi: suvdan uning tarkibidagi ortiqcha miqdordagi tuz va gazlarni yo'qotish; suvni yumshatish, temirsizlantirish, ftorsizlantirish, marganetsni chiqarish, kremlniy kislotasini chiqarish; suvning organoleptik xususiyatlarini yaxshilash yoki uning tarkibidagi mikroelementlarni ko'paytirish maqsadida suvg'a u yoki bu tuzlarni qo'shish (ftor va b.).

Suv resurslarini, jumladan yer usti suvlarini – suv omborlari va kanallarini qurish, oqimni boshqa hududga o'tkazish va boshqa uslublar bilan, shuningdek yer osti suvlarini – yer osti sig'imiridan foydalanish bilan boshqarish mumkin va zarur. Dunyo amaliyotida atmosfera yog'inlarini boshqarish bo'yicha ham katta tajriba to'plangan.

Markaziy Osiyodagi suv resurslari muammosining keskinligi

mintaqa mamlakatlari tomonidan ortib borayotgan suv tanqisligi bilan bog'liq bo'lgan tanglikning oldini olishga qaratilgan. Suvdan foydalanishniadolatli va barqaror boshqarish strategik yondashuvni talab qiladi. Suv Markaziy Osiyoning umumiy resursi hisoblanadi. Irrigatsiya, gidroenergetika suv ta'minoti va sanitariya tarmoqlaridagi suv xo'jaligi infratuzilmasi suvdan foydalanishning institutsional, moliyaviy va boshqaruv tizimlari sohalaridagi muayyan siyosatga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Baholanmagan suv resurslari ko'pincha noaniq taqsimlanadi, samarasiz boshqariladi va yo'qotiladi. Kapital mablag'lar kiritishning asoslanmagan dasturi va sohani noratsional boshqarish taqchil resurslarning noproportional ishlatalishiga olib kelishi mumkin. Suv resurslariga milliy va tarmoq miqyosida bir tomonlama qarashlar va suv resurslarining oshib borayotgan tanqisligi hozirgi kunda ortib borayotgan murakkab muammolar hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy va siyosiy bahslar daryo havzalarining turli qismida joylashgan mamlakatlар uchun iqtisodiy muammo larni keltirib chiqarayotgan muammo hisoblanadi. Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida suv resurslarini boshqarish bo'yicha umumiy muammolar mavjud, jumladan:

- Huquqiy va boshqarish me'yorlarining, shuningdek temamlili, ijtimoiy yo'naltirilgan va tabiatni muhofaza qilish masalalariga barqaror munosabatda bo'lgan va suv resurslarini barqaror boshqarishga qodir institutlarning yetishmasligi;
- Suvdan foydalanish bo'g'ini real ishtirokchilarining suv resurslarini boshqarish jarayonida va mas'uliyatida yetarli ishtirok etmasligi;
- Infratuzilmaning katta qismi o'zining iqtisodiy va ma'nanaq shirkish davriga yetib kelganligi sababli suv xo'jaligi sohasida tizim holatining yomonlashuvi, operativ samaradorlikning pastligi, infratuzilmaga va suv taqsimotiga ketadigan xarajatlarining

tez ortib borishi;

- Yo'qotishlar va suv tanqisligiga olib boruvchi suv resurslarini nomutanosib boshqarish holatlari;
- Daryolarning quyi va yuqori oqimlaridagi mamlakatlararo hamda tarmoqlararo qarama-qarshiliklar;
- Suv resurslari to'g'risidagi ma'lumotlardagi noaniqliklar (meteorologiya, sizot suvlari zaxirasi, gidrologik bashoratlash masalalari).

Shunday qilib, suv resurslarini boshqarishning zamonaviy ta'rifi quyidagicha:

Suv resurslarini boshqarish – jamiyat va tabiatninig kerakli sifat va miqdordagi suvgaga bo'lgan ehtiyojini barcha makon va vaqt kesimlarida muntazam qondirish (operativ, yillik, ko'p yillik va istiqbolli miqyoslarda) dan iborat. Boshqacha aytganda, suv resurslarini boshqarish – suv resurslari va unga bo'lgan ehtiyojlarning muvozanatini muntazam saqlashdir.

1.3 Suv resurslarini boshqarishning gidrologik jihatlari

Nazariy va amaliy jihatdan ma'lumki, suv xo'jaligi sohasining barcha mutaxassisları barcha turdagi suv resurslarini – moddalarining harakatlanishi va muvozanati qonuniga asosan gidrografik havzalar doirasidagi gidrologik sikllarga bog'liqligini yaxshi bilishadi. Ammo ularning hammalari ham buni o'z faoliyatlarida inobatga olmaydilar. Suv resurslari hidrografik havzalar doirasida shakllanadi, harakat qiladi, qaytadi va qayta foydalilanadi. Bu jarayonlarning barchasi uzviy o'zaro bog'liqlikda kechadi.

Har bir hidrografik havza o'zining asosiy daryo o'zani, uning daryogacha yetib boruvchi va yetib bormaydigan irmoqlari, yer osti suvlarining dinamik zaxiralari hamda shakllanadigan qaytuvchi suv resurslariga ega. Daryoning tabiiy suvliligi uning

havzasiga yog'uvchi yog'ingarchilik va mazkur havzadan amalga oshadigan bug'lanish, oqim moduli shakllanishi, muzliklar va qor qatlamlaridan shakllanadigan oqimlar hamda yer osti suvlari oqimlariga bog'liq bo'ladi.

Havza hududida mavjud bo'lgan suv resurslarining umumiy balansi suvning tabiiy oqib keladigan va oqib ketadigan oqimlari hamda inson tomonidan tabiatga qaytarilayotgan oqimning antropogen tashkil etuvchi qismlaridan iborat bo'ladi. Suv balansining mazkur tashkil etuvchilari shu qadar turli darajadaki, ularni sanab o'tish mushkul, biroq ularning bari mavjud va ular o'zlarini bilan bog'liq muhitlarga ta'sir etadi.

Ularni tizimlashtirishga harakat qilamiz:

O'zgarish, natija, oqibat:

- suv yig'ilishi havzasida o'rmonlarning ko'payishi (yoki kamayishi)
- grunt suvlari sathining pasayishi (ko'tarilishi)
- suv hajmi va oqimining yil davomidagi tarqalishi o'zgarishi;
- eroziyaning ko'payishi (yoki kamayishi);
- suv resurslarining shakllanish zonasida dehqonchilik, shu jumladan sug'orma dehqonchilik miqyosining kattalashuvi;
- yerlar mahsuldarligining oshishi;
- suv loyqaligining ortishi;
- pastki gorizontlarga suv oqimining ortishi va quyida joylashgan yerlarda yer osti suvi sathining ko'tarilishi;
- sug'orish va boshqa maqsadlar uchun yer usti suvlarini olishning ko'payishi;
- suv olish nuqtalaridan pastda suv oqimining kamayishi;
- daryoda suv sifatining yomonlashishi;
- qaytuvchi suvlarning shakllanishi;
- grunt suvlari oqimining ko'payishi va ularning sifati o'zgarishi;
- tuproq sifatining o'zgarishi;

- deltaga yetib boruvchi yer usti suvlarining kamayishi;
- deltaga yetib boruvchi yer usti suvlarining kamayishi – grunt suvlari sathining pasayishi;
- infiltratsion yog'inlar miqdorining ortishi;
- oqim modulining o'zgarishi;
- aeratsiya zonasi va suv iste'moli hajmining ortishi;
- ifloslangan suvlarning daryolarga tashlanishi – daryolarda suv sifatining yomonlashuvi;
- to'g'onlar qurilishi – suv havzalari sathidan bug'lanish miqdorining ortishi;
- suv havzalarida suvning turib qolish hodisalari;
- loyqa bosishi;
- daryoda suv loyqaligining kamayishi;
- suv oqimi rejimining o'zgarishi;
- daryolarning qishki rejimi yomonlashuvi;
- grunt suvlariga oqimning ortishi;
- suv bosgan zonalarning hosil bo'lishi;
- kanallarda suv bilan yuvilish hodisasining ko'payishi.

Biroq suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilishda gidroekologik barqarorlik shartidan kelib chiqib aniq mezonlar ishlab chiqilsa va unga amal qilinsa, yuqorida sanab o'tilgan o'zgarish va ta'sirlarning barchasi muayyan darajada tartibga solinishi mumkin. Bunda:

- daryo va uni to'yintiruvchi suv yig'iluvchi hudud o'rtasida suv va tuz almashinuvi minimumga intilishi lozim;
- aeratsiya zonasi va grunt suvlari o'rtasida suv va tuz almashinuvi nolga intilishi lozim;
- daryodan olinadigan jami suv resurslari miqdori, ularning tabiat talablariga (daryo deltasi, suv botqoqli hududlar va h.k.) zarar yetkazmaydigan limitidan ortib ketmasligi lozim.

Mazkur barcha mezonlarga nafaqat o'rtacha suvli, balki kam suvli va ko'p suvli yillarda ham amal qilinishi

ma'lumotlar, bashorat va modellarning aniqligini, shuningdek havza va uning alohida qismlarida suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanishda qat'iy tartibni talab etadi. Afsuski, amalda ko'pincha hatto alohida mamlakatlar miqyosida ham maqsadli ravishda disbalans va suv ta'minotining o'zgarishi holatlari vujudga kelmoqda.

Tabiiy va antropogen noaniqliklar parametrlari havzalarni gidrografik boshqarishda sezilarli darajadagi murakkabliklar keltirib chiqarmoqda. Amalda gidrografik noaniqlikning uchta turi mavjud:

- oqimning tabiiy o'zgaruvchanligi;
- bilimlarning yetarli emasligi, ma'lumotlardagi noaniqliklar yoki ularning yetishmasligi tufayli yo'l qo'yilgan xatoliklar;
- modellarning yetishmasligi va ulardagи xatoliklar miqdori;
- o'lchov tizimining rivojlanmaganligi, ulardagи xatoliklar, aproksimatsiyada qo'llanilgan noto'g'ri shakllar va h.k.;
- daryo yoki uning havzasini boshqarish bo'yicha qabul qilingan qarorlardagi daryo yoki havzaning boshqa bo'limlaridagi o'zgarishlarga, jumladan yer usti yoki yer osti suvlaridagi o'zgarishlarga olib keluvchi noaniqliklar.

So'nggi davrda mintaqada informatsion ta'minot darajasi hatto milliy miqyoslarda ham bir oz pasaydi. Hatto yirik daryolarda ham gidrometeorologik postlar soni kamaydi. Suv sifati to'g'risidagi ma'lumotlar esa juda kam. Ma'lumot almashinushi nafaqat mamlakatlar o'rtasida, balki mamlakatlar ichida ham yetarli emas. Bularning barchasi boshqaruvdagi noaniqliklar oshishiga sabab bo'lmoqda. Natijada mintaqada 2000-yilgi qurg'oqchilikni (kam suvlilikni) oldindan aniqlash imkonii bo'lmadi hamda Sirdaryo va Amudaryo havzalarining ayrim hududlarida katta zarar ko'rildi.

1.4 Suv resurslarini boshqarishning siyosiy jihatlari

Barcha mamlakatlarning, shu jumladan Markaziy Osiyodagi besh mamlakatning konstitutsiyalarida iqtisodiyot va jamiyatning suvgaga bo'lgan talabini qondirish davlatning majburiyati ekanligi ta'kidlangan. Bu tushunarli, albatta, chunki suv oziq-ovqat mahsulotlari kabi insonning hayot faoliyatini ta'minlovchi asosiy omildir. Shunday bo'lsa-da, mamlakatlarning suv resurslarini boshqarish masalalariga yondashuvlarida o'ziga xos farqlar mavjud. Suv resurslarini boshqarishning ayrim siyosiy jihatlari to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Suv resurslarining shakllanishi, ularni muhofaza qilish va rivojlantirish, shuningdek suv resurslarining mamlakat miqyosidagi taqsimotini amalga oshirish, shubhasiz, davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalardir. Shu bilan birga, davlat yana bir qator suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq boshqa asoslangan siyosiy funksiyalarni ham amalga oshirishi lozim.

Suv resurslarini boshqarish bir necha ierarxik darajalarda amalga oshiriladi va bu darajalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- milliy daraja;
- viloyat, havzaviy yoki subhavzaviy daraja;
- tuman tizimi darjasи;
- suv iste'molchilar, suv iste'molchilar uyushmalari va suvdan foydalanuvchilar darajalari.

Suv resurslarini boshqarishdagi birinchi tamoyil ma'muriy-hududiy deb nomlanadi va u barcha mamlakatlarda ma'lum darajada mavjud. Mazkur tamoyilning asosiy kamchiligi havzalar chegaralarining ma'muriy chegaralarga mos kelmasligi bilan bog'liq. Mazkur tamoyil asosida havza darajasida suv resurslarini boshqarish hamda aniq rejalahtirish imkoniyatlari yo'q. Bu esa o'z navbatida suv resurslari taqsimoti notejis amalga oshirilishi va suv resurslari samarali boshqarilmasligiga, jumladan

tashkiliy suv isroflarining oshib ketishiga olib keladi.

Suv resurslarini boshqarishdagi ikkinchi tamoyil gidrografik-havzaviy tamoyil deb nomlanadi. Mazkur tamoyil bo'yicha suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar havza hamda tizimlar bo'yicha qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Bu jarayonda viloyatlar va tumanlardagi suv iste'molchilar o'z vakillari orqali suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda demokratik asoslarda ishtirok etishadi. Ushbu tamoyil hozirda butun jahonda tan olinib, keng qo'llanilmoqda. 2003-yildan boshlab O'zbekistonda ham suv resurslarini boshqarish ma'muriy-hududiy tamoyildan gidrografik-havzaviy tamoyilga o'tkazildi. Bunda davlatning asosiy rollaridan biri mamlakat darajasida suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq masalalarning asosini belgilash va suv resurslarini barqaror boshqarish bo'yicha qulay siyosiy muhitni yaratishdan iborat bo'ladi.

Davlatning suv xo'jaligini moliyalashtirishdagi roli juda muhimdir. Hech bir rivojlangan mamlakat suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq moliyalashtirish yuki og'irligini to'laligicha suvdan foydalanuvchilar yelkasiga yuklamaydi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin:

- AQSH tajribasi. Suv resurslarining muhofazasi, yirik suv xo'jaligi tizimlarini boshqarish, suv resurslarining shakllanishi va ularni boshqarish hamda moliyalashtirish masalalari "distrikt"lar (bu taxminan bizning sharoitimizdagi irrigatsiya tizimlari boshqarmasiga to'g'ri keladi) darajasigacha AQSH Melioratsiya Byurosi, shtatlar xizmatlari, AQSH tabiatni muhofaza qilish agentligi hamda shtatlararo tashkilotlar vositasida davlat tomonidan amalga oshiriladi. Suv iste'molchilar suv va irrigatsion "distrikt"larga birlashadilar hamda suv xizmatlari uchun ularning hududi doirasida to'loymi amalga oshiradilar;
- Kanada tajribasi. Xuddi yuqoridaqiga o'xshash tajriba.

Kanada tajribasi AQSH tajribasidan fermerva boshqa suviste'mol-chilarining suv xo'jaligini yangilashga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarning 25 foizi doirasida to'lovdag'i ishtiroki bilan farq qiladi;

- Gollandiya tajribasi. Suv xo'jaligini boshqarish, rivojlantirish va rekonstruksiya qilish ishlari suv ta'minoti va dehqonchilik sohasida suv iste'molchilari darajasigacha bo'lgan bo'g'inda davlat tomonidan amalga oshiriladi;

- Hindiston tajribasi. Suv xo'jaligini boshqarish, rivojlantirish va rekonstruksiya qilish ishlari fermerlar va ularning uyushmalarigacha bo'lgan bo'g'inda davlat tomonidan amalga oshiriladi. Fermerlar va ularning uyushmalari o'zlarining o'zini o'zi ta'minlovchi tizimlari doirasida sug'o-rishning yangi texnikalarini qo'llash va uning elektr ta'minoti ehtiyojlari uchun davlatdan sezilarli darajadagi dotatsiyalar oladilar.

Suv resurslarini boshqarishning gidrologik va siyosiy jihatlarini uyg'unlashtirishga faqat "Suv resurslarini havza darajasi-da integrallashgan va adaptiv boshqarish tizimlari"ni amalga oshirish yo'li bilan erishish mumkin.

Suv resurslarini boshqarishda "qulay siyosiy muhitni yaratish" tushunchasiga quyidagilar kiradi:

- suv xo'jaligining davlat maqsadlaridagi ustuvorligi va siyosiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish;
- hukumat suv resurslarini boshqarishning turli ierarxik darajalarida mas'uliyatni belgilovchi va tarqatuvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Parlament:

- suv va ekologik qonunchilikni rivojlantiradi va unga amal qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi.

Hukumat:

- mamlakat darajasida barcha suv xo'jaligi faoliyatini

boshqarish va muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli davlat organini belgilaydi va uni nazorat qiladi;

- milliy suv siyosatini shakllantiradi;
- mamlakat ichida suv resurslari to'g'risidagi qonunchilik tabablari bajarilishini ta'minlovchi tartib, qoida va munosabatlarni belgilaydi;
- suv resurslarini boshqarish ierarxik tuzilmalarini boshqarish prinsipini (ma'muriy yoki gidrografik) tanlashni ta'minlaydi;
- ierarxiyaning boshqa darajalarida boshqarish masalalari uchun mas'ul bo'lgan organlarni belgilaydi va tasdiqlaydi;
- suv resurslari ma'lumotlar bazasini tashkil etadi va unga boshqa manfaatdor organlarning bog'lanishini ta'minlaydi;
- boshqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi vazifalarini ajratadi, xususiy sektorning suv resurslari boshqaruvi jarayonida, ayniqsa uning ierarxiyasi quyi bo'g'inlarida ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi va tartibga soladi;
- transchegaraviy suvlarda hamkorlikni ta'minlaydi;
- suv xo'jaligi tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida uni davlat manbalaridan moliyalashtirish tizimini ta'minlaydi;
- suv resurslarini boshqarishda zaruriy tashkiliy tuzilmalarni yaratishni qo'llab-quvvatlaydi;
- milliy suv siyosatiga mos ravishda suv xo'jaligiga investitsiyalarni ta'minlaydi.

Suv resurslarini boshqarish tizimi elementlari:

Maqsadlar. Suv resurslarini boshqarishda maqsadlarni garchi odamlar shakllantirsa ham, ularning asosida ob'yektiv shartlar bo'lishi kerak. Suv resurslarini boshqarish amaliyotida iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa maqsadlar yotadi. Ko'pincha bir maqsadning o'zi kompleks bo'ladi.

Funksiyalar. Murakkab ishlab chiqarishda Suv resurslarini boshqarishni alohida bo'limlar – funksiyalarga ajratishga to'g'ri


keladi.

Tuzilma. Suv resurslarini boshqarishning alohida funksiyalarini bo'lim, qismlar yoki boshqarishning alohida organlariga birlashgan odamlar bajarishi mumkin, ya'ni boshqaruv tuzilmalari tashkil etiladi.

Boshqaruv usullari. Ma'muriy, gidrografik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa usullarni o'z ichiga oladi.

Boshqaruv mexanizmlari. Bu boshqaruv turli usullarining kompleks tarkibidir.

Boshqaruv jarayoni. Boshqaruv jarayoni – har bir bo'g'in nima qilishi kerak, kim qilishi kerak, qayerda, qanday va kimning oldida hisob berishi kerakligi haqidagi ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan turli boshqaruv qarorlarini qabul qilish, amalga oshirish va tashkil etishdir. Qaror qabul qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim: kerakli ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, xulosa chiqarish va hal etish yo'llarini topish.



1.1-rasm. Suv resurslarini boshqarishda qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar va ularning bog'liqligi.

Suv resurslarini boshqarish jarayoni nimadan tashkil topishi ga e'tibor qarataylik. Birinchi qaraganda u go'yo oddiydek, ammo chuqurroq qaralsa, uning juda murakkab tizim ekanligini ko'rish mumkin. Bu murakkab tizimda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

* tabiiy suv resurslari (yog'inlar, yer osti va yer osti suv oqimlari), shuningdek, antropogen ta'sir ostida hosil bo'ladigan qaytuvchi suvlar. Bu resurslar iqlimning tashqi o'zgarishlari ta'siri ostida o'zgarishi mumkin;

* iqtisodiyot sohalari bo'yicha suvning qaytmas tarzda ishlatalishini hisobga olgan holda suvga bo'lgan talablar ham turlicha;

* ekologik sharoitlar va talablar;

* ijtimoiy muhit va iqtisodiy taraqqiyot;

* nihoyat, eng muhim tarkibiy qism – siyosiy muhit.

Shuningdek, suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- resurslar mavjud bo'lgan hududlar ularni iste'mol qilish hududlari bilan mos kelmaydi;

- turli iste'molchilarining suvga bo'lgan ehtiyojlari turli vaqt intervallariga ega ekanligi bilan xarakterlanadi (masalan, sug'orish va energetika; rekreatsiya va baliqchilik va b.);

- suv sifatining yomonlashuvi mohiyatan jamiyat uchun ya-roqli suvning miqdori keskin kamayib ketishiga olib keladi.

Suv resurslari – boshqaruving alohida mahsulidir, chunki uning hamma yerga kirib borish xususiyatlari undagi har qanday o'zgarishlar va ta'sirlarni o'zaro bog'liq bo'lgan turli muhitlarda tarqaluvchan qilib qo'yadi.

Sanoat va qishloq xo'jaligining intensiv taraqqiy etishi, aholi sonining o'sishi, yangi hududlarning o'zlashtirilishi va shu

jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan suv iste'molining keskin ortishi suv resurslarining gidrologik tartibi va holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bugungi kunda o'tkazilayotgan

tadbirlar ko'pgina xalq xo'jaligidagi sohalarning kelajakda rivojlanish tendensiylarini belgilab beradi. Suv xo'jaligida uzoq kelajakka mo'ljallangan siyosatning asosiy vositasi – bu istiqbolli bashoratlardir.

1.5 Suv resurslarini boshqarish turlari, darajalari va evolyutsiyasi

Dastlabki irrigatsion tizimlar Osiyo mamlakatlari va Misrning qurg'oqchil hududlarida eramizdan avvalgi 3000-chi yillarda qurilgan. Bunday tizimlar daryolardan uzoqda joylashgan dalalarni sug'orish tizimi sifatida qo'llanilgan kanallar va suv havzalarini o'zida aks ettiradi. Sug'orish jarayonini avtomatlashtirish va suvni kerakli balandlikka ko'tarish maqsadida turli xildagi mexanik vositalar, masalan «Arximed vinti» kabi vositalar qo'llanilgan. Shunday qilib, suv resurslarini boshqarishning evolyutsion rivojlanishi qadimgi davrlardan boshlangan va uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- suv resurslarini ibridoiy (eng sodda usullarda) boshqarish bosqichi;
- suv resurslarini muhandislik-texnologik boshqarish bosqichi. Mazkur bosqichda suv resurslarini boshqarish bo'yicha barcha hal qiluvchi qarorlar asosan muhandislik-texnologik fikrlar negizida qabul qilingan (hozirda ham keng qo'llanilmoqda va asta-sekin keyingi bosqichga o'tila boshladi);
- suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar ham e'tiborga olinadigan suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish bosqichi (zamonaviy, asta-sekin tarqalib borayotgan);
- yuqorida keltirilganlardan tashqari iqlim o'zgarishi, suv tizimlarining zaifligi va qarorlar qabul qilishdagi noaniqliklarni ham hisobga olgan holda qaror qabul qilish asosida

suv resurslarini adaptiv boshqarish (istiqbolli).

Vizantiya davrida Prokopyi – irrigatsiya jarayonini «hamkorlikda sug‘orish o‘rtoqligi» deb atagan va unga quyidagicha ta’rif bergen: «Daryo tog‘lardan tushib, tekisliklarga yetadi. U yerni aholi xohishlariga muvofiq sug‘oradi, chunki ular suv harakatini o‘zlari uchun eng foydali, deb hisoblaganlaridek boshqaradilar. Insonlar daryo suvlari oqadigan ko‘plab kanallar barpo etadilar. Daryoning bir qismi yer ostidan o‘tadi, keyin yana yuzada paydo bo‘ladi va o‘z suvlarini bir oqimda birlashtiradi. Shu tarzda tekislikning katta qismi daryo-kanallarni to‘silqlar bilan to‘sadi-gan, ularni ochib, suvdan o‘z xohishlariga ko‘ra foydalanadigan insonlar ixtiyoridadir».

Suv resurslarining sun‘iy boshqaruvi Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Yer sharining dehqonchilik uchun yaroqli yerlari katta qismida namlik yetishmaydi, shuning uchun qadim zamonlardan insonlar tabiiy omillar mutanosibligidagi disproportsiyani to‘g‘rilash va yerkarning suv ta‘minotini yaxshilashga intilib, katta kuch sarflaganlar.

Markaziy Osiyo, ayniqsa, ikki daryo oralig‘i (Sirdaryo va Amudaryo) sivilizatsiya, madaniyat va sug‘orma dehqonchilikning eng qadimiy o‘chog‘i bo‘lgan. Eramizning VI-VII asrlaridayoq mazkur mintaqani arablar «e’tiqodli musulmonlar xalifasining bog‘i» deb ataganlar, chunki mintaqa hududining deyarli 50%i u paytda bog‘ va uzumzorlardan tashkil topgan edi. Butun tarix mobaynida Markaziy Osiyo aholisi sug‘orma dehqonchilik bilan bir qatorda yaylov chor-vachiligi, bog‘dorchilik va shu kabilar bilan shug‘ullangan.

Markaziy Osiyo mintaqasida suv xo‘jaligi tarixi 4 bosqichga bo‘linadi:

1. Suv xo‘jaligining Rossiya istilosidan avval asosan xalqona usulda – aholini qurilish va tiklash ishlariga jalg etish yo‘li bilan

rivojlantirilishi davri;

2. Suv xo'jaligi inshootlari va tizimlarining muhandislik qurilishi va qayta joylashtirilishi davri;

3. Suv xo'jaligi inshootlari va tizimlarining muhandislik qurilishi va qayta qurilishi. Mintaqada yagona suv xo'jaligi tizimining yaratilishi davri;

4. XX asrning 50–80-yillarida qishloq xo'jaligining ekstensiv rivojlantirilishi sababli suv xo'jaligi sharoitlari va ekologik muammolarning murakkablashuvi davri;

5. Yagona suv xo'jaligi tizimidan milliy suv xo'jaligi tizimlariga o'tish bosqichi.

Mintaqaning suv xo'jaligi tarixi – bu Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy-iqtisodiy tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketgan dehqonlarning suv uchun ko'p asrlik kurashlaridir. Qadim o'tgan zamonlardayoq mintaqadagi dehqonlar daryolar tartibini uzoq vaqt kuzatish natijasida daryolardagi suv sathining ko'tarilish va tushish davrlarini yaxshi o'rganganlar. Yirik daryolarning toshqini kalendari mavjud bo'lgan: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, daryo oqimida yuz berayotgan o'zgarishlarning belgilari, vaqt va davomiyligi aniq ko'rsatilgan daryolar toshqini har yillik kalendari mavjud bo'lgan.

Suv resurslarini boshqarish uchun mintaqaga dehqonlari maxsus suv xo'jaligi ob'yektlari qurishgan. O'zbekiston, Janubiy Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qирг'изистон hududlarida qurg'oqchil va suvsizlik yillarida suv toplash uchun qurilgan kichik suv omborlari, kanallar va to'g'onlarning qoldiqlari topilgan. Mintaqaga suv xo'jaligi tarixining o'tmishida ibratli voqealar juda ko'p, ayniqsa, suv resurslarini taqsimlash prinsipi, qishloq xo'jaligini yilning suvlilagini hisobga olgan holda tartib bilan olib borish va b.

O'rta Osiyo hududini sun'iy sug'orish qadim zamondan

boshlangan. O'troq aholi dehqonchilik uchun maqbul sharoitlarni tog' oldi hududlari, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolari va ularning irmoqlari havzasidagi kichik daryolar yuqori qismidagi vohalar hududlarida topib, sug'orma dehqonchilikni amalga oshirgan. Taraqqiyotning o'sha bosqichida O'rta Osiyo xalqlari tez oqimlar, qirg'oqlarning yemirilishi (ayniqsa, yirik daryolarda) bilan samarali kurashishga qodir emas edilar. Bular sug'orish kanallariga suv olishdagi asosiy to'siqlar edi.

Keyinroq dehqonlar unumdar yerlarni, ko'proq Amudaryo va Sirdaryo o'rta oqimi va quyi qismidagi yerlarning ulkan maydonlarini sug'orish va o'zlashtirishni boshlashdi.

Irrigatsiya davlat birlashmalarining hosil bo'lishi va jamiyatning sinflarga ajralishi bilan birga rivojlanadi. Asrlar davomida O'rta Osiyo hududidagi davlat formatsiyalarining taraqqiyoti va tanazzuli o'zgarmas tarzda dehqonchilik va chorvachilik asosi sifatida sun'iy sug'orishning rivojlanishi va tanazzulga yuz tutishi bilan sodir bo'lgan.

Kuchli davlat qurilishi davrlarida yangi sug'orish tizimlari, to'g'on, suv olish va qirg'oqni himoya qilish dambalari, tonnellar, yirik suv taqsimlovchilari, akveduklar ko'rinishidagi yirik irrigatsiya inshootlari qurilgan, sug'orish maydonlari kengaytirilgan. Irrigatsiya inshootlari qurilishida minglab dehqonlar qatnashgan. Kanallar bo'yida voha va manzilgohlar hosil bo'lgan.

Saqlanib qolgan tarixiy hujjatlarda Xorazm irrigation inshootlari va maydonlari o'sha davr uchun yuqori darajali texnikaga ega bo'lган eng qadimiy sug'orish zonasasi sifatida ajralib turadi. Xorazmning o'ng qirg'oq yerlarini Sultonuiztog' tepaligigacha sug'orish uchun Amudaryodan chiqarilgan Gauxuare kanalining qurilishi davri eramizgacha bo'lган birinchi ming yillik o'rtasiga to'g'ri keladi. Eramizning birinchi asrida Sultonuiztog' tog' oldi yerlarini sug'orish uchun Tuproqqa'l'a kanalidan katta shoxobcha qurilgan. G'aznobod-Chermen-Yab

kanalidan sug'oriladigan yerlar maydoni ancha kengaygan. III asrda Uzoq-G'arbiy Qiyot kanali barpo etildi, VI asrda Guldursun va Burgutqal'a kanallari atrofidagi vohalarda dehqonchilik tiklandi. IX asrda Amudaryoning quyi deltasidagi Gurganja hudu-dining (Kunya-Urganch) irrigatsion o'zlashtirilishi, Gaznobod kanali quyi qismlarida dehqonchilikning tiklanishi boshlandi, o'sha paytda Shovot (Shoxobod) Buve kanallari qurilgan. X asrda Amudaryoning chap qirg'og'ida Xivaning Xekanis kanalidan ikki-ta kanal chiqarilgan.

XII-XIII asrlarda Xorazmda irrigatsiyaning jonlanishi kuza-tilgan; Gaznobod kanali (Gazovot) Chermen-Yab arig'i bo'ylab Shohsanamgacha, Giryo kanali Kvatkal hududigacha yetkazilgan. Keyinroq inshootlar buzilishi bilan bu hududlar suvsiz, odamsiz qolib qum qa'riga cho'kdi. Hozirgi vaqtgacha faoliyatda bo'lgan yirik qadimiy kanallardan O'rta Osiyodagi eng yirik Toshsoqa shoxobchalariga aylantirilgan Shovot, Polvon va Gazovotlarni misol keltirish mumkin.

Toshkent vohasida sug'orish tizimlari Chirchiq va Angren daryolarida qurilgan. Yunon tarixchilari Toshkent atro-fidagi yirik kanallar eramizgacha III-II asrlarda mavjud bo'lganligini ta'kidlashgan. Arab geograflari tomonidan Shosh davlati (Toshkent vohasi) batafsil ta'riflangan va 50 ta aholi punktlari haqida xabar berilgan. Ulardan ba'zilari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan, masalan, Biskent (Pskent), Ferikent (Parkent), Zerikent (Zarkent) va boshqalar. Shaharlar, qishloqlar va qadimiy Toshkentda aholi zich joylashgan, ularni ulkan uzumzorlar o'rab turgan. Shosh madaniyat vohasi shimo-li-g'arbdan ko'chmanchi qabilalar bosqinidan Bo'zsuv arig'i va arablar tomonidan qurilgan katta devor bilan himoyalangan. Mazkur devor izlari Kamirdevol nomi ostida va katta Bo'zsuv arig'i hozir ham saqlanib qolgan. Hozirda ham mavjud bo'lgan ayrim qadimiy kanallar islom diniga qadar bo'lgan nomlari bilan

ataladi, masalan, Zax, Salar.

Farg'ona vodiysida dehqonchilik madaniyati Chotqol va Farg'ona tog' tizmalaridan oqib tushadigan va Sirdaryoga qo'shiladigan Norin va Qoradaryoga quyiladigan mayda irmoqlarda rivojlangan. Tog' daryolarining suvidan eramizgacha X asrdayoq yerlarni sug'orish uchun foydalanilgan. Daryo va soylarning qirg'oqlarida yirik aholi punktlari – Kosonsoyda Kosonsoy va Axsikent, Marg'ilonsoyda Marg'ilon, Isfarasoymda Isfara, Xo'jaobodsoyda Xo'jand, Oqbura daryosi qirg'oqlarida esa O'sh va boshqa shaharlar qad ko'targan. So'x daryosidagi Qo'qon (200 yil avval), Namangansoydagagi Namangan (350 yil avval) shaharlarining paydo bo'lishi ancha kechroq davrda yuz bergen. Asrlar davomida xalq ustalari maxsus ilmlarni, gidravlika qonunlarini bilmay turib, mexanizm va murakkab asboblariga ega bo'lmay turib o'z tajriba va idroklariga tayanib sug'orish kanallari, irrigatsiya tizimlarini qurishgan va ajoyib gidrotexnik inshootlar barpo etishgan.

Suv resurslari mintaqaga hududi bo'ylab o'ta notekis tarqalgan. Intensiv xo'jalik faoliyati natijasida suv resurslari tanqisligi yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi vaqtida va yaqin istiqbolda chuchuk suv tanqisligi suv iste'molini kamaytirish yo'li bilan suvni tejash hisobiga pasayishi mumkin, masalan, sanoatni aylanma suv ta'minotiga, alohida sohalarida esa suvsiz texnologiyalarga o'tish; sug'orishning yangi progressiv usul-larini qo'llash, sug'orish tizimlari foydali ish koeffitsientlarini oshirish; yer osti va yer yuzi suvlarini vaqtida qayta taqsimlash; suv resurslarini makonda qayta taqsimlash; sho'r va sho'rroq suvlarni chuchuklashtirish; muzlik va tog' ko'llaridagi suv resurslarining 100 yillik zaxiralarini ishlatish; yog'inlar hosil bo'lishi jarayonlariga faol ta'sir o'tkazish va b. Shunday qilib, suv tanqisligi sharoitlarida suv xo'jaligi masalalari resurslar kabi talablarga ham ta'sir o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi.

Suv resurslariga ta'sir o'tkazish asosan texnik usullar bilan amalga oshiriladi (oqimni boshqarish, ko'chirish, qo'shimcha mahalliy resurslardan foydalanish).

Talabga ta'sir o'tkazish (suv resurslaridan oqilona foydalanish va tejash) suvlarni saqlash va ulardan foydalanish qonunlariga, shuningdek me'yoriy hujjatlar talablariga mos ravishda amalga oshiriladi. Bunday hujjatlar tarkibiga standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar, me'yorlar, cheklar, ruxsatnomalar va litsenziyalar, ma'muriy (yagona, regional va mahalliy suv xo'jaligi boshqaruvi tizimlarini yaratish), iqtisodiy (suv uchun va oqava suvlar chiqarish uchun to'lov, oqava suvlarni chiqarishning belgilangan me'yorlari buzilganligi uchun jarimalar, ifloslangan suv bilan yetkazilgan zarar o'rnnini qoplash, oqava suvlarni tozalash bo'yicha tadbirlarga dotatsiya va subsidiyalar ajratish, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini tatbiq etish uchun fond ajratish va ba'zi boshqa usullar) ko'rsatmalarini kiritish mumkin.

1.6 Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish choralar

- Mintaqalarning suv resurslariga haqiqiy talablarini ta'minlay oladigan yangi, samarali ishlashga qodir boshqaruv organlari va ularning tashkilotlarini yaratish yo'li bilan havzada suv resurslarini boshqarishning tashkiliy strukturasini yaxshilashni davom ettirish;
- hozirgi sharoitda mintaqalarning mamlakatlari o'rtasida suv resurslarini rejalashtirish, boshqarish va ulardan foydalanish, shuningdek, Orol dengizi havzasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari bo'yicha mavjud bitimlarni yaxshilash va takomillashtirish;
- suv xo'jaligini boshqarishning milliy tashkiliy tuzilmasini muntazam takomillashtirish;

- suv resurslarini boshqarishning barcha pog'onalarida – daryo va magistral kanallardan boshlab xo'jalik ichki kanallari, suv iste'molchilari uyushmalari va fermer xo'jaliklarigacha – suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish;
- suv resurslarini havzaviy boshqarish va rejalashtirish usullarini keng qo'llash.

Tashqi ta'sirlarga javob tariqasida suv resurslarini barqaror boshqarish o'z ichiga boshqarishga adaptiv yondashuvini ham olishi kerak. Boshqa yondashuv – preventiv, iqtisodiyot va optimallashtirish sohasida suv resurslarini boshqarishda foydalaniladigan qarorlarni qabul qilishning amaldagi qoidalarini qayta ko'rib chiqishni talab etmaydigan ishonchli loyiha yoki strategiyalarni izlash orqali ehtimoliy variantlarning yanada maqbul diapazonini shakllantirishni ko'zda tutadi. Suv resurslarining integratsiyalangan boshqaruvi borgan sari adaptatsiyalanayotgan bir vaqtda yanada faol ko'p sektorli hamkorlikka, ya'ni havzaviy boshqarish va rejalashtirishga bo'lgan ehtiyoj orta boradi.

Avval ta'kidlanganidek, suv resurslarini zamonaviy boshqarish juda murakkab jarayon. Suv resurslarini boshqarishning eng muhim belgilovchilaridan biri suv resurslari va ularning iste'molini mohirona moslashtirish hisoblanadi. Dunyodagi istiqboldagi suv ta'minoti destabillovchi qator omillarni, jumladan aholi sonining ortishi, iqtisodiyotning o'sishi, ifloslanishning ortishi kabilarni hisobga olishi bilan birga iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan suv miqdorning kamayishi ehtimoli kabilarni ham e'tibordan qochirmasligi lozim.

Shunday qilib, suv resurslarini boshqarish jamiyat va tabiatning suvgaga bo'lgan ehtiyojlarini kerakli sifat va miqdorda barcha vaqt davrlarida – operativ, ko'p yillik va istiqboldagi ehtiyojlarni qondirishni ta'minlashi zarur.

Suv resurslarini integratsiyalashgan tarzda boshqarish (SRIB) suv, yer va ular bilan bog'liq bo'lgan resurslarni hayotiy

ekotizimlar barqarorligiga zarar yetkazmasdan jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini maksimallashtirish maqsadi-da muvofiqlashtirilgan rivojlantirish va boshqarishga yordam beruvchi jarayon sifatida shakllanadi. Aynan barcha suvlarning o'zaro bog'liqligi ulardan foydalanishni integratsiyalashga chorlaydi.

Integratsiya o'zaro bog'lanishning ikkita bazisli kategoriyasini ko'zda tutadi: suv resurslari ehtimoli va sifatining kritik belgilovchisi bo'lgan tabiiy tizimlar hamda suv resurslaridan foydalanish ulushi, suv olish tizimi, resurslarni ifloslanishdan himoyalash va ijtimoiy barqarorlikning yomonlashuvini belgilovchi ijtimoiy tizim. SRIB vaqt va makondagi o'zgarishlarni va bu kategoriyalar orasidagi bog'lanishlarni e'tiborga oladi. Shuningdek, suv xo'jaligi faoliyatini maxsus yopiq tizim sifatida saqlashdan farqli ravishda, suv resurslarini boshqarish ishini ulardan foydalanuvchilar ishtirokidagi jamoat ishiga aylantirish SRIBni an'anaviy fragmentar yondashuvdan ajratib turadi. SRIB yondashuvlaridan foydalanish, suv resurslarini boshqaruvchilarga suvgaga bo'lgan ehtiyojga jamiyat munosabati qanday ta'sir ko'rsatayotgani va bundan kelib chiqib suv resurslari an'anaviy boshqaruvini suv tejovchi boshqaruvga o'zgartirishga yordam beradi. Bunda suv resurslarini havzaviy boshqarish va rejorashtirish eng muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi.

O'z o'zini nazorat qilish savollari:

1. Suv resurslarini boshqarishning turlari va darajalari;
2. Suv resurslarini boshqarish tushunchasi;
3. Suv resurslarini boshqarishning gidrologik jihatlari;
4. Suv resurslarini boshqarishning siyosiy jihatlari;
5. Suv resurslarini boshqarishning ekologik jihatlari;
6. Suv resurslarini boshqarishdan maqsad;

7. Boshqaruv tizimi elementlari;
8. Suv resurslarini boshqarish turlari, darajalari va evolyutsiyasi;
9. Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarishni takomil-lashtirish choralar;
10. Suv resurslarini boshqarishning gidrografik-havzaviy prinsipi;
11. Suv resurslarini boshqarishda ma'muriy-hududiy prinsip;
12. Suv resurslarini boshqarishda "mo'tadil siyosiy muhit" tushunchasi.

II bob. Havzaviy tashkilotlar hamda ularning suv resurslarini havzaviy boshqarish rejalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdagi roli

Suv resurslarini havzaviy boshqarish va rejalashtirishni joriy etishning asosiy shartlaridan biri havzaviy rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi havzaviy tashkilotlarni tashkil etishdir. Havzaviy tashkilotlar atamasi barcha turdag'i havzalarni boshqarishda ishtirok etuvchi tashkilotlarni xarakterlovchi umumiy atama sifatida qo'llaniladi. Bu juda katta yoki kichik rasmiy tashkilotlar yoki oddiy kishilarning norasmiy guruahlari ham bo'lishi mumkin. Havza tashkilotlari ularning maqsad va vazifalari hamda vakolatlari va ularning qonuniy asoslariga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Suv resurslarini boshqaruvchilar duch kelayotgan muammolar va murakkabliklar

Suv resurslarini va ulardan foydalanishda vujudga keluvchi ijobjiy hamda salbiy jihatlarni e'tiborda tutish muhim. Bir tomonдан suv insoniyat, hayvonot va o'simliklar dunyosi hayoti uchun o'ta muhim resurs. Masalan, suv resurslari samarali ishlab chiqarish faoliyati, qishloq xo'jaligi, gidroenergetika, sanoat, baliqchilik, turizm, transport rivoji uchun asos hisoblanadi. Boshqa tomonidan suv resurslari o'ta vayronkor bo'lib, kasalliklar tarqalishi va katta hududlarni suv bosishini keltirib chiqarishi ham mumkin. Suv taqchilligi yoki uzoq davom etgan qurg'oqchilik katta miqdordagi o'limalar va iqtisodiy inqirozni keltirib chiqarishi mumkin. Suv, shuningdek, milliy yoki bir yoki bir necha mamlakatlar birga foydalanuvchi transchegaraviy havzalarda yashovchi aholi o'rta sidagi mojarolarni keltirib chiqarishi yoki uning keskinlashuviga olib kelishi mumkin. Ko'pgina, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda chuchuk suv resurslari

holati, sifati va miqdori jihatidan suv ekotizimlari yomonlashib borayotganini ko'rish mumkin. Bu esa suv resurslaridan foydalanishda foydadan ko'ra ko'proq suv bilan bog'liq tavakkalchilik va xavflarga yo'l qo'yilayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda aholi sonining o'sishi, demografik o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot va iqlimning o'zgarishi kabi omillar suv resurslariga kritik ta'sir etmoqda. Shuningdek, suv resurslari ishlab chiqarish va iqtisodiy taraqqiyotga, aholi salomatligi va hayot darajasiga hamda milliy xavfsizlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Suvga bo'lgan ta'sirlar ortgani sari biz yangilanib turuvchi suv resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishimiz zarur. Biroq suv resurslarini boshqarish murakkablashib bormoqda. Ko'pgina mintaqalarda iqlim sharoitlari o'zgarishlaridagi noaniqliklar va tabiiy sharoitlar tufayli suv resurslarini boshqarish asosiy muammoga aylanib ulgurdi. Iqlim o'zgarishi tufayli bu murakkabliklar ortib bormoqda. Ayrim mintaqalarda bu yog'ingarchilik va daryo oqimlari kamayishiga olib kelса, boshqa mintaqalarda, aksincha, ko'proq suv bosishi hollatlarini keltirib chiqarmoqda. Bunday o'zgarishlar aholi va iqtisodiyotning o'sishi, urbanizatsiya va oziq-ovqatga talabning ortishi (demak, suvga talabning ortishi, suv tanqis bo'lgan hududlardagi manbalar va yer osti suvlarining degradatsiyasi ortishi) tufayli yanada kuchayishi kutiladi.

Bugungi kunga kelib havzalar boshqaruvchilari suv resurslarining sog'lom boshqaruvi va iqtisodiy taraqqiyot mutanosibligini ta'minlashda juda katta bosim, tavakkalchilik va muammolarga uchramoqdalar. Hukumatlar va havza boshqaruvchilari oldida turgan murakkab vazifa taraqqiyot va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. Bu har bir havzada suv resurslarini rivojlantirish va boshqarishning yanada aniqroq yo'llarini hamda oqibatlarga qarshi mutanosib uslublarni topish zaruriyatini ko'rsatadi.

Suv resurslari boshqaruvchilari oldida turgan murakkabliklarning ko'pi yangi paydo bo'lgan emas. Ammo muammolar o'zining miqyosi va xarakteri bo'yicha bir havzadan boshqa havzaga o'zgarib turadi va ularning yechimi ham turlicha bo'ladi. Mazkur muammolarning yechimi odatda ikki muhim tomonni: ya'ni ma'lumotlarni to'plash, infratuzilma va ularning ekspluatatsiyasi kabi strukturaviy muammolarni (strukturaviy intervensiya) hamda institutsional (ko'pincha "yumshoq" intervensiya deb nomlanuvchi), qarorlar va narxlar yoki bilimlar va ma'lumotlar kabi omillarni qamrovchi tadbirlar masalasini o'z ichiga olishi lozim.

Strukturaviy intervensiya odatda xizmatlarni ta'minlovchi va ko'zga ko'rinvuvchi bo'lgani uchun siyosiy jihatdan ma'qulroq va qimmatroq hisoblanadi. Ular ko'proq e'tibor tortadilar. Institutsional intervensiya esa arzon bo'lib, ayrim hollarda siyosiy va ijtimoiy jihatdan kamroq e'tibor tortadi.

2.1 Suv resurslarini boshqarishda ishtirok etuvchi havzaviy tashkilotlar, ularni tashkil etish zaruriyati va roli

Suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish va havzaviy rejalahtirishning asosiy tamoyillaridan biri havza darajasidagi suv resurslarini boshqarish rejalarini ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan muayyan tashkilotlarning tashkil etilishi hisoblanadi.

Amalda "butun havza darajasi"ga asoslangan yondashuv ta'sirlarni tizimli darajada baholash imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, havzaviy yondashuv asosida milliy qonunlar, xalqaro kelishuvlar va transchegaraviy suvlar bo'yicha mintaqaviy konvensiyalarning talab va qoidalari milliy havzalarga nisbatan qo'llaniladi. Natijada mamlakat ichida suv resurslarini

boshqarish va havza darajasida suv resurslarini boshqarish jayronlari yanada dinamik xarakterda bo'lib, turli o'zgaruvchan oqibatlarga (ekologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy) moslashuvchanroq bo'ladi.

Dunyoda havzaviy tashkilotlar sifatida ko'riluvchi institutsional tuzilmalarning turli ko'rinishlari mavjud. Ayrim hollarda bunday tashkilotlar maslahat organlarini ifodalovchi norasmiy tashkilotlar sifatida tashkil etilgan bo'lsa, boshqa holarda rasmiy havza tashkilotlaridan iborat bo'ladi. Hozirgi davrda ilmiy adabiyotlarda bunday havzaviy tashkilotlarning 8 turi mavjudligi asoslangan. Quyidagi 2.1-jadvalda havzaviy tashkilotlarning turlari va xususiyatlari keltirilgan.

Havzaviy tashkilotlarning turlari

2.1-jadval

Havzaviy tashkilotlarning turlari	Tarkibiy xususiyatlari va funksional vazifalari
1-tur: Qo'mitalar	Qo'mitaga a'zo bo'lgan mamlakatlar vakillik guruhlaridan tashkil topgan konsultativ-maslahat maqomli organlar. Funksional vazifalari: suv resurslarini boshqarish bo'yicha umumiylarni ishlab chiqish va havzadagi muayyan o'ziga xos yoki umumiylarni dolzargan masalalar muhokamasini o'tkazish. Qo'mitaning ishchi xodimlari shtati ko'zda tutilmagan.
2-tur: Suv xo'jaligi tashkilotlari	Havza doirasida barcha ishlarni bajarish bo'yicha vakolatli organ. Qabul qilingan qarolarning ijrosini ta'minlash barcha a'zo mamlakatlar uchun majburiydir. Tashkilotda doimiy ishlovchi shtat birliklari ko'zda tutilgan.

3-tur: Uyushmalar	Jamoat tashkilotlari bo'lib, ularning funksional vazifalari: havza bo'yicha umumiyligida masalalar bo'yicha manfaatdor tomonlarni xabardor qilish va ularga tegishli ta'lim berishdan iborat.
4-tur: Komissiyalar	Vakolatli organ bo'lib, uning a'zolari ishtirokchi bo'lgan mamlakatlar tomonidan saylanadi. Komissiyaning funksional vazifalariga havzadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish, amalga oshirish va monitoring qilish, shuningdek, xalqaro shartnomalar bo'yicha barcha mamlakatlarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlash kiradi. Komissiya o'z xodimlari shtatlari va texnik kotibiyatiga ega bo'ladi.
5-tur: Kengashlar	Kengash manfaatdor tomonlarni va jamoatchilikni o'z tarkibiga jalb etuvchi, tarmoqlararo vakillik guruhi hisoblanadi. Uning funksional vazifalari doirasiga havza darajasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish va muvofiqlashtirish, havzaviy rejalarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini monitoring qilish kiradi. Amalda kengashlar sub-havzalar yoki gidrografik tumanlar darajasida tuziladi. Moliyaviy imkoniyatlar bo'lganda o'z sekretariatiga ega bo'lishi mumkin.
6-tur: Korporatsiya / Aksiyadorlik jamiyati	Havzadagi barcha ishlarni tijorat asosida bajarish uchun tuzilgan yuridik shaxs hisoblanadi.
7-tur: Tribunal / arbitraj	Havzani boshqarish masalalari bo'yicha sud organi hisoblanadi. Funksional vazifalari: suv iste'molchilarini va suvdan foydalanuvchilar o'rtaсидаги bahsli va munozarali masalalarni hal etishdan iborat.

8-tur: Federatsiya	Federatsiya – turli manfaatdor tomonlar vakillarining umumiyoq pozitsiyalarini muvofiqlashtirish, havzaviy rejalarни ishlab chiqish, ishlarni bajarish va monitoring o'tkazish, axborot almashish va eng yaxshi amaliy tajribalarni keng joriy qilish yo'lidagi birlashuvi.
---------------------------	---

Hozirda butun dunyoda 108ga yaqin daryolarning Havzaviy tashkilotlari faoliyat yuritmoqdalar, shulardan 68tasi xalqaro yoki transchegaraviy tashkilotlar hisoblanadi. Amalda havzaviy tashkilotlar tarkibiy xususiyatlari va funksional vazifalari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Havzaviy tashkilotlarning eng keng tarqalgan turlari – Qo'mita, Komissiya, Suv xo'jaligi tashkilotlari va Kengashlar hisoblanadi.

Havzaviy tashkilotlarning har bir turi o'ziga xos xususiyat larga ega bo'lib, muayyan sharoitlarda qo'llash uchun maqbul bo'lishi mumkin. Boshqaruvdagi darajasi va vazifasiga qarab bir daryo havzasi uchun turli xildagi havzaviy tashkilotlar tuzilishi mumkin. Quyida dunyoning turli qismlarida faoliyat ko'rsatayotgan havzaviy tashkilotlarning bir necha ko'rinishlarini tahsil qilamiz.

Havzaviy tashkilotlarning "Havza Kengashlari" turini tashkil etishga zamonaviy amaliyotda suv resurslarini adolatli, iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik jihatdan barqaror boshqarish hamda suv xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlashning maqbul vositasи sifatida qabul qilinayotgan suv resurslarini boshqarishga integrallashgan holda yondashuv (SRIB)ning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Mazkur organ suv ob'yektlari masalalari bilan shug'ullanuvchi – suv va yer resurslarini boshqarish, tabiatni muhofaza qilish, ichimlik suvi sifatini ta'minlovchi organlarning, turli toifadagi suv iste'molchilarining va jamoat tashkilotlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun zarur

ijtimoiy asosni ta'minlaydi. Biroq xorijiy mamlakatlardagi havzaviy kengashlarning haqiqiy va huquqiy maqomlari har bir mamlakatda sezilarli darajada farq qilishini ko'rish mumkin.

Mohiyati bo'yicha havzaviy kengashlar suv fondini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha ixtisoslashgan organ hisoblanadi. Nazariy jihatdan havzaviy kengashlar mazkur sohadagi har qanday dolzarb masalalarni ko'rishlari mumkin. Biroq amalda ularning vakolatiga kiruvchi masalalar ko'lami havzaviy kengash maqomini belgilovchi hujjatlar bilan chegaralanadi. Eng avvalo bu muayyan havzaviy kengashning Nizomi va boshqa ichki hujjatlariga tegishlidir. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, mazkur organning faoliyat doiralari tegishli havzaviy kelishuvlar bilan shakllantirib berilishi mumkin. Aksariyat hollarda havzaviy kengashlar havzaviy kelishuvlarning amalga oshirilishini ta'minlovchi organ rolini o'ynaydilar.

2.2 Havzaviy tashkilotlarning tashkil etilishi, vazifalari, vakolatlari va rivojlanishi

Havzaviy tashkilotlarning eng mashhur va keng tarqalgan turlaridan biri bu fransuz modelidir. Fransuz modeli asosida havzaviy tashkilotlar mamlakatning barcha oltita gidrografik havzalarida tuzilgan havzaviy komitetlardan iborat. Ya'ni har bir havza o'z havzaviy komitetiga ega. Bu suv masalalari bo'yicha tuzilgan o'ziga xos mahalliy parlament bo'lib, muayyan havzaning suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi siyosatning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi. Ayni vaqtida suv ob'yektlarining texnik boshqaruvi hamda havzaviy komitet tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarning ijrosi uchun havzaviy agentlik mas'ul hisoblanadi. Umuman, mohiyati jihatidan fransuz modeli bo'yicha havzaviy komitet – bu mahalliy, vakillikka asoslangan, suv masalalariga ixtisoslashgan

hamda gidrografik havza doirasida o'z vakolatini yurituvchi qonun chiqaruvchi organdir.

Bugungi kunda muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan havzaviy tashkilotlarning yana bir yaqqol misoli AQSHdagi Kolorado daryosi havzasasi sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan havzaviy tashkilotdir. Mazkur daryo havzasida tashkil etilgan havzaviy tashkilot Havzaviy Kengash tarzida tuzilgan bo'lib, u funksiyasi jihatidan suv sifatini nazorat qiladi. Quyida mazkur kengash bilan bog'liq xususiy ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.

AQSHdagi Kolorado daryosi havzasini boshqarish va strategik rejalashtirish

Kolorado daryosi havzasasi Shimoliy Amerikadagi, havzaning maydoni 629 000 km², uzunligi esa 2330 km bo'lgan eng katta va eng rang-barang daryolardan biri hisoblanadi. Daryo balandligi 4300 m gacha bo'lgan qoyali tog'lardan boshlanib, Meksika bo'y lab oqib o'tadi, so'ngra Kaliforniya ko'rfaziga quyilib, o'z deltasini hosil qiladi.

Kolorado daryosi havzasasi har qaysisi yirik sub-havzalarni tashkil etuvchi yettita katta mintaqalarga bo'lingan. Bu yetti mintaqaning har biri uchun tegishli konsepsiylar, qoidalar va suv resurslarini boshqarishning tartib-qoidalari ishlab chiqilgan. Bunday katta havzani boshqarish maxsus havzaviy tuzilmani, havzaviy rejalarini ishlab chiqish esa muayyan qoidalarga rioya qilishni talab etadi.

Butun havza hududi bo'y lab 9 ta Mintaqaviy Kengash tuzilgan bo'lib, ular davlat tomonidan mutasaddi etib belgilangan tuman ma'muriyatları bilan uzviy hamkorlikda ish olib boradi. Har bir mintaqaviy kengash suv sifati standartlarini o'rnatish, oqava suvlarni chiqarish uchun ruxsatnomaga berish va bu ruxsatnomalarga rioya etilishini nazorat qilish, ruxsatnomalarga rioya etilmagan hollarda tegishli choralarini ko'rish bo'yicha

qarorlar qabul qilish vakolatiga ega.

Kolorado daryosi havzasidagi suv sifati masalalari bo'yicha tuzilgan har bir mintaqaviy kengashning maxsus veb-saytlari mavjud bo'lib, unda har qanday manfaatdor tomon uchun suv sifati bo'yicha turli xildagi maxsus ma'lumotlarni olish imkoniyatlari yaratilgan.



Butun Kolorado daryosi havzasi bo'yicha umumiylashtirilgan rasmiy Havzaviy Reja mavjud emas. Biroq har bir hududiy kengashda havzaning suv sifatini boshqarish bo'yicha «strategik rejalar» ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur rejalar doirasida Kolorado daryosi irmoqlarini boshqarish bo'yicha tashabbuslar ishlab chiqiladi.

Strategik rejalarни исхлаб чигишнинг асосиъ принциплари

iqtisodiy va boshqa manfaatlar bilan muvofiqlashtirilgan holda tabiiy resurslarni integral boshqarish dasturlarini amalda qo'llashdan iborat.

Shunday qilib, Kolorado daryosi havzasida havzaviy rejalahsh-tirish kompleks jarayon bo'lib, u monitoring, mintaqalar va sub-havzalar hududlarida suv resurslarini boshqarishning ustuvor masalalarini aniqlash, strategik maqsadlarni ishlab chiqish va konkret tematik masalalar bo'yicha tadbirlarni amalgalashni ko'zda tutadi.

Biroq, ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan Mintaqaviy Kengashlardan tashqari Kolorado daryosi havzasida maxsus Havzaviy tashkilotlar tashkil etilmagan. Suv resurslarini boshqarish bo'yicha asosiy mutasaddilar har bir shtatda atrof-muhitni himoya qilish agentligi bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradigan ma'muriyatlar hisoblanadi.

Rossiyada mazkur mamlakatning federativ tuzilishi bilan bog'liq holda havzaviy kengashlarni barpo etishning bosh-qacha tajribasi shakllandı. Ya'ni aynan ular federal markaz va suv ob'yekti havzasi hududida joylashgan alohida iqtisodiyot sohalari va federatsiya sub'ektlari o'rtafiga o'zaro hamkorlik va harakatlarni muvofiqlashtirishda hamda ularning manfaatlarini tartibga solishda muhim rolni bajaradilar. Shu bilan birga, Rossiya federatsiyasi Suv kodeksi suv iste'molchilari va jamoatchilik vakillarining havzaviy kengashlarda ishtiroki imkoniyatini ko'zda tutadi. Rossiyadagi havzaviy kengashlarning huquqiy maqomi bilan bog'liq o'ziga xoslik uning "Tabiiy resurslar federal vazirligi hamda suv ob'yekti havzasida joylashgan Rossiya federatsiyasi sub'ektlari ijro hokimiyyati o'rtafiga tuziladigan tegishli havzaviy kelishuv" bilan bevosita bog'langanligidadir. Bunda Rossiya Federatsiyasi Suv kodeksining 120-bandida havzaviy kengash havzaviy kelishuv doirasida sub'ektlarning muayyan suv ob'yektini qayta tiklash va muhofaza

qilishga yo'naltirilgan hamkorlikdagi faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida tashkil etilishi belgilab berilgan.

Shunday qilib, Rossiya tajribasida havzaviy kengash ko'proq suv masalalarida sohalararo va mintaqalararo muvofiqlashtirish masalalariga yo'naltirilgan hamda turli sub'ektlarning havzaviy kelishuv doirasida olgan majburiyatlarini amalga oshirishni ta'minlovchi organ hisoblanadi.

Tailand sharoitida havzaviy kengashlarning analogi hisoblangan havzaviy komitetlar endi shakllanish bosqichida turibdi. Ammo ta'kidlash lozimki, ularga suv ob'yektlarini texnik boshqarish vakolati berilgan.

Markaziy Osiyoda ham havzaviy tashkilotlar mavjud, biroq ular asosan suv resurslari taqsimoti jarayonlariga jalb qilingan va butun havza boshqaruvi masalalari bilan deyarli shug'ullanmaydilar. Bu borada endi dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Suv resurslarini integral boshqarish va havzaviy rejalahtirish bilan shug'ullana oladigan havzaviy tashkilotlar soni hozircha kam. Biroq, shunday bo'lsa-da, mintaqada bugungi kunga kelib havzaviy tashkilotlarni tashkil etish bo'yicha birmuncha tajribalar to'plandi. Hozirda mavjud havzaviy tashkilotlarning shakllari turlicha, turli xil darajalarni qamrab oladi, lekin ular kelgusida havzaviy tashkilotlarni ko'paytirishning modellari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarida Sobiq ittifoq davrida suv resurslarini boshqarish sohasidagi siyosat (suv siyosati) davlat tomonidan belgilab berilgan. Bunda muntazam ravishda "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihalari (SRMFvaMQ shakliy loyihasi)" ishlab chiqilgan va bu hujjatga qonun maqomi berilib, barcha tomonidan rioya etilishi majburiy etib belgilangan. Bu hujjat suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejalahtirish bo'yicha eng to'liq va klassik hujjat hisoblangan. Hozirda ham bu hujjat ayrim

mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ishlab chiqiladi va suv resurslari barqaror boshqarilishini ta'minlashda muhim asos hisoblanadi.

Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlar ichida so'nggi davr ichida Havzaviy tashkilotlarni tashkil etish va rivojlantirish masalalarida nisbatan kattaroq tajribaga ega bo'lgan davlat Qozog'iston hisoblanadi. 2006-2007 yillarda Qozog'istonda yirik gidrografik havzalar bo'yicha 8 ta havzaviy kengash tashkil etilgan. Mazkur masala bo'yicha mintaqada ko'proq rivojlangan Qozog'iston tajribasiga kengroq to'xtalib o'tamiz.

Ta'kidlash lozimki, Qozog'istonda havzaviy kengashlarga havzaviy suv xo'jaligi boshqarmalari boshliqlari rahbarlik qilsalar-da, ular havzaviy suv xo'jaligi boshqarmalarining yordamchi organlari hisoblanmaydilar. Amalda mamlakat Suv kodeksida havzaviy kengashlarda viloyatlar, Almati va Astana shaharlarining hokimlari hamda maslahatlari, iqtisodiyot sohalaringin hududiy bo'limlari va turli suv iste'molchilarining va killari ishtirokiga birdek ahamiyat beriladi. Umuman, o'zining tarkibi bo'yicha havzaviy kengashlar Qozog'istonda – vakolatli davlat organlari, suv iste'molchilar, suv xo'jaligi va turli manfaatdor jamoatchilikning vakillari o'zlarining manfaatlarini ifoda etuvchi, havzaviy kelishuvlarning bajarilishini ko'rib chiquvchi hamda uning ishtirokchilari uchun tavsiyalarni birqalikda ishlab chiqishda ishtirok etuvchi konsultativ-maslahat organi hisoblanadi. Boshqa tomondan mazkur organ muayyan darajada mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган tarmoqlararo organidan iborat.

Havzaviy kengashlarning tashkil etilishi va faoliyati bilan bog'liq eng umumiylar Suv kodeksining 43-moddasi bilan tartibga solinadi. Suv kodeksida qisqa talqinda bo'lg'usi havza kengashlarini tashkil etishning huquqiy asosi va ularning

huquqiy maqomi, tarkibi va faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha umumiy talablar hamda umumiy holda ularning kompetensiyalari belgilab berilgan. Havzaviy kengashlarga oid bat afsil tashkiliy-huquqiy jihatlar Suv resurslari davlat qo'mitasining 2004-yil 21-apreldagi 71-sonli "Havzaviy kengashlar hamda Havzaviy kelishuvlarni tayyorlash va tuzish bo'yicha namunaviy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i bilan belgilab berilgan. Mazkur buyruqqa asosan havzaviy suv xo'jaligi boshqarmalariga:

- 1) havzaviy kengashlarni tuzish va namunaviy Nizom asosida ularning nizommini tasdiqlash;
- 2) tegishli havza hududida joylashgan mahalliy ijob organlari va boshqa sub'ektlar bilan hamkorlikda suv ob'yeqtinrini qayta tiklash va muhofaza qilish to'g'risidagi havzaviy kelishuvlarni ishlab chiqish va imzolashni tashkil etish vazifalari yuklatilgan.

Bundan tashqari, Havzaviy kengash to'g'risidagi namunaviy Nizom tasdiqlanib, uning asosida Qozog'iston dagi 8 ta asosiy gidrografik havzalarning har biri bo'yicha individual nizomlarni tasdiqlash tavsiya etilgan. Ammo Suv resurslari Qo'mitasining mazkur buyrug'i o'rnatilgan tartibda normativ-huquqiy hujjat sifatida rasmiylashtirilmaganligi tufayli tar moqning ichki me'yoriy hujjati hisoblanadi va boshqa davlat organlari hamda huquq sub'ektlari uchun tavsiya xarakteriga ega.

Suv kodeksining 43-moddasida havzaviy kengash «havzaviy kelishuv» doirasida tuzilishi belgilangan. Havzaviy kelishuvlar ko'p tomonlama va ikki tomonlama shakllarda tuzilishi mumkin. Mazkur yuridik hujjat yuridik ixtiyoriy asosda turli sub'ektlarning havzadagi suv resurslaridan ratsional foydalanim bo'yicha ixtiyoriy ravishdagi hamkorlikdagi harakatlarini belgilash imkonini beradi. Havzaviy kelishuvlar ko'p tomonlama shaklda havzadagi asosiy boshqaruvchilar va suv iste'molchilari o'rtasida, ikki tomonlama shaklda, masalan, havza suv

xo'jaligi boshqarmasi va muayyan suv iste'molchisi o'rtasida tuzilishi mumkin. Shuningdek, havzaviy kelishuvlar xalqaro shaklda transchegaraviy suv havzasasi sharoitida mamlakatlarning davlat organlari va suv iste'molchilari asosida tuzilishi mumkin. Shunday qilib, havzaviy kelishuv berilgan muayyan havzaviy kengash uchun faoliyat predmetini belgilab beruvchi muhim yuridik hujjat bo'lib, amalda havzadagi tomonlarning majburiyatlari bilan mustahkamlangan suv xo'jaligi tizimini ekologik barqaror rivojlantirish sharoitida suv sifati va suvning zaruriy hajmiga erishish yo'lidi harakatlar dasturi hisoblanadi.

Havzaviy kengashni tashkil etishdan maqsad va vazifalar

Keng ma'noda havzaviy kengashning maqsadi suv resurslarini integral boshqarishni amalga oshirishning zaruriy tashkiliy asoslarini ta'minlashdan iborat. Mazkur ta'rif Suv resurslari bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan Namunaviy Nizomda berilib, unda havzaviy kengashlarni tuzishdan maqsad davlat va nodavlat sub'ektlari o'rtasida suv resurslarini boshqarish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari da o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda harakatlarni muvoqiflashtirish, deb belgilangan.

Namunaviy Nizom asosida Havzaviy kengashlarning asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- havzaning suv fondidan samarali foydalanish va uni muhofaza qilishning dolzarb muammolarini birgalikda muhokama qilish;
- suv fondini boshqarish, undan samarali foydalanish va uni muhofaza qilish masalalari bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;
- muayyan suv xo'jaligi havzasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari va rejali bo'yicha takliflar tayyorlash;

- mutasaddi organlar va donorlar ko'rib chiqishi uchun muayyan havzada investitsion loyihalar paketini tuzgan holda moliyalashtirish va tariflarni belgilash variantlarini tayyorlash;
- suv resurslarini integral boshqarish hamda suv muammolari yechimiga jamoatchilikni jalb etish loyihalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- suv resurslarini integral rejorashtirish va boshqarishda suv hamkorligi darajasini ko'tarish, davlat organlari, suv iste'molchilari hamda jamoatchilik o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlash;
- suv ob'yektlarini qayta tiklash va muhofaza qilish masalalarida birlashish, faoliyatlarni muvofiqlashtirish hamda hamkorlikdagi tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha havzaviy kelishuvlarni tayyorlash.

Ta'kidlash lozimki, turli havzaviy kengashlarning vazifalari farq qilishi mumkin. Jumladan, transchegaraviy havzalarda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish bilan bog'liq vazifalar ko'zdautilishi lozim. Havzaviy tashkilotlarning vazifalariga sezilarli ta'sir etuvchi omil tegishli havzadagi suvdan foydalanish tuzilmasi hisoblanadi. Umuman, vazifalar havzaviy kelishuvlar ishtiroychilari yoki muayyan kengash uchun nizomni tasdiqlovchi organ yoki tashkilotlar tomonidan belgilanadi.

Havzaviy tashkilotlarning tarkibi

Tahlillar ko'rsatadiki, havzaviy kengashlar tarkibi asosan amaldagi nizomlar asosida shakllanadi. Havzaviy kengashlarga kiruvchi ishtiroychilarning quyidagi toifalarini ko'rsatish mumkin:

- 1) masalan, Qozog'iston misolida Suv kodeksida belgilangan

– gidrografik havza hududida joylashgan havzaviy suv xo‘jaligi boshqarmalari hamda viloyatlarning hokimiyat va maslahatlari (shuningdek, respublika ahamiyatiga molik shaharlar - Nur-Sulton, Olma-ota va Chimkent)ning rahbarlari;

2) suv fondidan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi kompetensiyalar asosida belgilanadigan markaziy tarmoq vazirliklarining (ministrlik, qo‘mita, agentlik) hududiy bo‘limlari rahbarlari;

3) suv iste’molchilarining vakillari;

4) jamoat birlashmalarining vakillari;

5) boshqa tashkilotlarning vakillari.

Birinchi guruhga kiritilgan ishtirokchilar uchun havzaviy kengashlarda faoliyat ko‘rsatish qonuniy asosda o‘rnatilgan majburiyat hisoblanadi. Berilgan gidrografik havza hududida joylashgan viloyatlarning ijro hokimiyati organlari (Nur-Sulton, Olma-ota va Chimkent), majburiy tarzda hokim yoki uning o‘rinbosari darajasida havzaviy tashkilotlar ishida ishtirok etishlari lozim. Vakillik organlari esa havzaviy tashkilotlar ishida sessiya raisi yoki maslahat kotibi darajasida ishtirok etadi. Havzaviy suv xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i shaxsan ishtirok etadi va suv kodeksi talabiga ko‘ra havzaviy kengash ishiga rahbarlik qiladi.

Ikkinci guruhga kiritilgan ishtirokchilar ichidan muayyan havza uchun ularning suv fondidan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi kompetensiyalari bo‘yicha eng muhimlarini aniqlab olish lozim. Umuman, mazkur guruhnini quyidagi tarmoqlar davlat organlari hisobiga shakllantirish tavsiya etiladi:

- tabiatni muhofaza qilish sohasida davlatning vakolatli organi;
- aholining sanitar-epidemiologik xavfsizligini ta'minlash sohasida davlatning vakolatli organi;
- yer qa'ri boyliklaridan foydalanish sohasida davlatning vakolatli organi;
- favqulodda vaziyatlar sohasida davlatning vakolatli organi;
- gidroenergetika sohasida davlatning vakolatli organi;
- o'rmon xo'jaligi sohasida davlatning vakolatli organi;
- baliq xo'jaligi sohasida davlatning vakolatli organi;
- boshqa markaziy tarmoq vazirliklari.

Havzaviy kengashlarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan sohalar ularning mazkur suv havzasida joylashgan hududiy bo'linmalari rahbarlari yoki ularning muovinlari misolida ishtirok etishlari lozim. Ta'kidlash lozimki, mazkur guruhdagi potensial ishtirokchilar soni juda ko'p bo'lishi mumkin. Tuzilayotgan havzaviy kengash ishini faollashtirish uchun ularning sonini eng muhimlarini tanlash hisobiga cheklash lozim.

Suv kodeksi talabiga ko'ra, havzaviy kengashda albatta suv iste'molchilarini vakili ishtiroki ta'minlanishi lozim. Bunda muhim omillardan biri turli manfaatlar (qishloq xo'jaligi, gidroenergetika, ichimlik suvi ta'minoti va h.k.) balansini ta'minlash hisoblanadi. Manfaatdor tomonlar havzaviy kengash tarkibida nafaqat suv iste'molchilarini, balki jamoat tashkilotlari vakillari sifatida ham qatnashishi mumkin, lekin ularning ishtiroki shart etib belgilanmagan.

Havzaviy tashkilotlarning tuzilishi

Havzaviy kengashlarning tuzilishi uning ishtirokchilarini tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Masalan, Qozog'iston

misolida ham Suv kodeksida havzaviy kengashlar tuzilishiga oid asosan ikkita talab qo'yilgan:

- Havzaviy kengash ishiga muayyan havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i rahbarlik qiladi;

- Havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi kengash ishini tashkil etadi, ya'ni amalda sekretariat rolini bajaradi.

Shunday qilib, havzaviy tashkilotlar tuzilmasini belgilashda xalqaro tajribaga tayanish mumkin. Xalqaro tajribada havzaviy tashkilotlarning turli, shu jumladan, ancha murakkab tuzilmalari uchraydi. Jumladan, Fransiyada havzaviy qo'mitalar to'rtta kollegiya (suv iste'molchilari kollegiyasi, deputatlar kollegiyasi, Fransiyaning iqtisodiy va ijtimoiy kengashlari vakillari kollegiyasi, davlat ma'muriyati vakillari kollegiyasi)dan iborat. Kollegiyalar a'zolarining umumiyligini miqdori ayrim havzalar bo'yicha 61-114 kishini tashkil etadi. Bu organlar mohiyatiga ko'ra suv masalalari bo'yicha mahalliy parlament hisoblanadi. Ammo har bir havzada ham bunday murakkab va qat'iy tuzilmaga ega kengashlar bo'lishi shart emas. Chunki bu ancha qimmat va ishni tashkil etishda murakkabliklar keltirib chiqaradi. Masalan, havzaviy kengashlar qarorlari maslahat maqomiga ega bo'lgan Qozog'iston tajribasida havzaviy kengash kotibi suv xo'jaligi boshqarmasi xodimlari hisobidan tayinlanadi. Kengash kotibi kengash majlislarini o'tkazishda tashkiliy masalalarga mas'ul etib tayinlanadi. Biroq boshqa variantlar ham tanlanishi mumkin. Qozog'iston tajribasiga ko'ra alohida qatnashchilari guruhi uchun 20 foizli kvota belgilangan va havzaviy kengashlarning samarali faoliyati ularning a'zolari soni 10-25 kishi bo'lganda ta'minlangan.

Qonunchilikda havzaviy kengash a'zolarining huquq va majburiyatlarini belgilash ularning ichki ishi deb ko'rsatiladi. Odatda kengashning samarali faoliyatini ta'minlash uchun kengash a'zolariga quyidagi huquqlar beriladi:

- reglament asosida havzaviy kengash qarorlarini muhokama va qabul qilishda qatnashish;
- havzaviy kengash majlislarida muhokama qilish uchun masalalarни tayyorlash;
- havzaviy kengash faoliyatiga oid hujjatlar va ma'lumotlar bilan tanishish;
- havzaviy kengash majlislarining o'tkazilish vaqtি, joyи va uning kun tartibi to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot olish;
- havzaviy kengash majlislarini o'tkazish va uning faoliyati tartibiga oid e'tiroz va takliflarni kiritish;
- havzaviy kengash tomonidan tuziladigan ishchi guruhlar-da ishtirok etish;
- havzaviy kengash majlislariga ekspertlar, mutaxassislar, turli davlat organlari, tashkilotlar va manfaatdor jamoatchilik vakillarini taklif etish bo'yicha takliflar kiritish;
- havzaviy kengash faoliyatini rejallashtirishda ishtirok etish;
- qonunchilik va havzaviy kengashning ichki me'yoriy hujjatlari asosida boshqa huquqiy faoliyatlarni amalga oshirish.

Havzaviy kengash a'zolariga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

- organ ishida shaxsan ishtirok etish;
- havzaviy kengash maqsad va vazifalarining bajarilishiga amaliy yordam ko'rsatish;
- havzaviy kengash majlislarida va kun tartibidagi masalalar muhokamasida faol ishtirok etish;
- havzaviy kengash majlisida ishtirok etish imkoniyati bo'lmaganda o'z vaqtida ogohlantirish;
- havzaviy kengashning Nizomi, reglamenti va boshqa ichki hujjatlari talabini bajarish;
- o'z tashkilotining havzaviy kengashda amalgalashirilayotgan ishlar va qabul qilinayotgan qarorlar to'g'risida xabardorligini ta'minlash;
- manfaatlar to'qnashuvi talablarini bajarish.

Havzaviy kengash reglamenti

Havzaviy kengashlarning asosiy ishi majlislar ko'rinishida tashkil etiladi. Shuning uchun ularni o'tkazishning aniq sharoitlari va tartibi o'rnatilishi mazkur organning ishi ochiq va manfaatdor jamoatchilik uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Mazkur masalalar havzaviy kengashning o'zi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan maxsus reglament doirasida tartibga solinadi. Ular turli havzaviy tashkilotlarda turlicha bo'lishi mumkin. Jahondagi havzaviy tashkilotlar faoliyati tahlili asosida havzaviy kengashlarning reglamenti mazmuni va tuzilmasiga quyidagi bo'limlarni kiritish tavsiya etiladi:

- umumiy masalalar;
- majlisga tayyorgarlik va uni o'tkazish tartibi;
- masalalarni havzaviy kengash muhokamasiga olib chiqish tartibi;
- qarorlarni qabul qilish tartibi;
- havzaviy kengashning yordamchi organlari;
- kuzatuvchilar va taklif etilgan shaxslarning kengash majlisidagi ishtiroki;
- bo'lg'usi faoliyatni rejorashtirish.

Reglamentning umumiy masalalar bo'limida havzaviy kengashning huquqiy mavqeい va faoliyatidagi asosiy, jumladan uning jamoatchilik uchun ochiqligi va qarorlarni kollegial xarakterda qabul qilinishi kabi prinsiplarning belgilab qо'yilishi muhim hisoblanadi. Majlislarga tayyorgarlik va ularni o'tkazish bo'limida ularni o'tkazish shakli va tili, muddati va ular orasidagi vaqt va boshqa umumiy sharoitlar ko'rsatiladi. Umuman, reglamentga kiritilgan masalalar o'xhash bo'lib, bunday tashkilotlar uchun deyarli bir xil bo'ladi. Havzaviy kengashlarning ishida barqarorlikni ta'minlash maqsadida uning ishini rejorashtirish lozim bo'ladi. Rejorashtirish jarayonida kengash a'zolari faol ishtirok etishlari lozim.

So'nggi yillarda mintaqada birinchilar qatorida tashkil etilgan havzaviy tashkilotlarga misol sifatida "SRIB – Farg'ona" loyihasi doirasida Farg'ona vodisida tashkil etilgan "Kanal Suvdan Foydalanuvchilari Ittifoqi (KSFI)"ni keltirish mumkin. Mazkur

havzaviy tashkilot Suv resurslarini boshqarish (SRIB)ga o'tisha o'sha davrda hududda mavjud bo'lgan va pilot-kanallarini boshqarishning ma'muriy-hududiy tamoyiliga asoslangan tashkiliy tuzilmaga muqobil variant sifatida, o'zining tuzilmaviy bo'linmalarga ega jamoatchilik organi sifatida tashkil etilgan edi. Dastlab bu yangi tuzilma faqatgina jamoatchilik organi bo'lishi rejalahtirilgan, biroq bunday yondashuv mintaqaga sharoitida qator muammoli masalalarga olib kelganligi tufayli amaldagi qonunchilik tartibi asosida pilot-kanalning "Kanal Suvdan Foydalanuvchilar" Ittifoqi (KSFI)" nomidagi yuridik shaxs maqomini olgan tashkilotga aylantirilgan.

KSFIning tashkiliy tuzilmasi quyidagi tarzda ifodalangan:

- KSFIning umumiy yig'ilishi – KSFIning oliv organi;
- KSFIning kengashi – KSFIning ijro organi;
- KSFI kengashining boshqaruvi – KSFI kengashining joriy faoliyatiga javob beruvchi ijrochi organ.

KSFI kanal havzasidagi barcha mafaatdor tomonlarni jalg'etish asosida suvni taqsimlash masalalarini hal etishning namunasini hisoblanadi. KSFI tarkibiga suv resurslaridan foydalanishidan manfaatdor bo'lgan suvdan foydalanuvchilarning vakillari, suv xo'jaligi tashkilotlari, hokimiyatning mahalliy organlari va boshqa tashkilotlar kiritilgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda havzaviy tashkilotlarning rivojlanishi yo'lidagi yana bir qadam O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) tomonidan amalga oshirilayotgan, AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi tomonidan moliyalashtirilgan «Markaziy Osiyoda suv, ta'lim va hamkorlik (Smart Waters)» loyihasi hamkorligida qo'yildi. 2018-yilning 20-iyulida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Podshoatasoy daryosi havzasida Podshoatasoy daryosi havzasida joylashgan

turli suv xo'jaligi majmuasi qatnashchilari va MOMEM va-killari ishtirokida o'tkazilgan ta'sis majlisida Podshoatasoy daryosi havzasida kichik havzaviy kengash tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Majlis qaroriga ko'ra kichik havzaviy kengash alohida yuridik shaxs emas, balki rasmiy tashkil etilgan maslahat-kengash platformasi bo'lib xizmat qiladi. Kichik havzaviy kengash (KHK) raisi etib Norin-Sirdaryo Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari S.Mehmonov saylangan. Podshoota daryosining O'zbekiston qismi bo'yicha tuzilgan mazkur KHK a'zolari Podshoota daryosining suv resurslarini boshqarish va muhofaza qilish bo'yicha shu daryoning Qirg'iziston qismi bo'yicha avvalroq tashkil etilgan KHK bilan hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildirgan.

Shuningdek, so'nggi yillarda O'zbekistonda havzaviy tashkilotlarning yana bir o'ziga xos turi O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va Germanianing xalqaro hamkorlik jamiyatni (GIZ) hamkorligida Yevropa hamjamiatining "O'zbekistonning qishloq hududlarida suv resurslarini barqaror boshqarish" loyihasi doirasida tashkil etildi. Qashqadaryo viloyatidagi "Oqsuv" va Andijon viloyatidagi "Shahrixonsov" daryolari havzalarida "Ishchi guruh" ko'rinishida tashkil etilgan mazkur havzaviy kengashlarning tuzilishi ham 2018-yilga to'g'ri keladi. Mazkur yosh havzaviy tashkilotlar dastlabki ish tajribalarini yig'ib bormoqdalar.

Ma'lumki, Suv resurslarini integral boshqarish (SRIB) prinsiplarini joriy etishning eng katta afzalliklaridan biri mintaqaning barqaror taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan vazifalarni amalga oshirish, jumladan, suv resurslarini barqaror boshqarish va ulardan samarali foydalanishda havzaviy kengashlarni tashkil etish asosida tarmoqlararo muvofiqlashtirish mexanizmini yaratish imkonini beradi. Bunday yondashuv boshqaruvning barcha darajalarida harakatlarni muvofiqlashtirib, ularning

sinergizmini ta'minlaydi.

SRIBning birinchi prinsipi – suv resurslarini havza darajasi-da gidrografik chegaralar asosida boshqarish – suv iste'molchilarining qayerda joylashganligidan (oqim bo'yicha yuqori yoki pastda) qat'i nazar ularning turg'un va teng huquqli suv bilan ta'minlanishi kafolati hisoblanadi. Jamoatchilikning rejalashtirish jarayonida, jumladan, jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar asosida faol ishtirok etishi barcha suv iste'molchilari manfaatlarini e'tiborga olish imkonini beradi. Bugungi kunda suv resurslarini muhofaza qilish, saqlab qolish va suvdan foydalanish mahsuldarligi va samaradorligini oshirish bo'yicha manfaatdorlikni joriy etish zaruriyatni to'g'risida jamoatchilik fikrini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Havzaviy tashkilotlarning tashkil etilishi va rivojlanishi

Suv resurslarini integral boshqarish asosida yotuvchi asosiy prinsiplarning biri mazkur sohada boshqaruv jarayoniga keng manfaatdor jamoatchilik vakillarini jalb etishdan iborat. So'nggi o'n yilliklarda chop etilgan xalqaro ilmiy adabiyotlar sharhidan ham suv resurslarini samarali boshqarish va barqaror taraqqiyotga erishishning zaruriy sharti jamoatchilik ishtirokinini ta'minlash bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mohiyati jihatidan havzaviy kengashlar o'zida jamoat kengashlarini ifoda etadi va davlatning suv resurslarini barqaror boshqarish hamda ulardan samarali foydalanish masalalarida jamoatchilik bilan maslahatlashuvning eng ilg'or va maqbul mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Havzaviy kengashlarning faoliyatida ijobiy natijalarni ta'minlovchi o'ziga xosliklardan biri (masalan, Fransiya va Qozog'iston tajribasi misolida) ular davlatning suv resurslarini boshqarish va ular dan samarali foydalanishni tashkil etish tizimiga integrallashganligi va qonunchilik asosida mustahkamlanganlidir. Ya'ni

ular davlat organlarining jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorligini ta'minlash uchun maxsus tuzilgan shunchaki tuzilma emas. Mazkur holatda suv iste'molchilari va nodavlat tashkilotlarining vakillari davlatning suv resurslarini boshqarish tashkilotlaridan birida to'la huquqli (konsultativ-maslahat mavqeida bo'lsa ham) a'zosi bo'lishi ko'zda tutilgan.

Amaliy jihatdan jamoatchilikning havzaviy kengashlarning ishida muvaffaqiyatli ishtirok etish shakllari turli mamlakat, havza va mintaqalar sharoitlarida turlicha bo'lishi mumkin. Ammo jamoatchilikning qarorlar qabul qilishda muvaffaqiyatli ishtirok etishlarida zaruriy va asosiy shart ularning ma'lumotga ega bo'lishlarini ta'minlash hisoblanadi. Mazkur masalaning yana bir muhim jihatni havzaviy kengashlarda a'zo bo'ladigan suv iste'molchilari va jamoat tashkilotlari vakillarini aniqlashga to'g'ri yondashishdir. Ularning muayyan havzadagi shakllangan suvdan foydalanish tuzilmasini tushunishlari va keng spektrli manfaatlarni ko'zlashlari juda muhim.

Alohibda olingan havzalarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining manfaatlari kattaroq bo'lsa, boshqalarida sanoat tarmoqlari yoki boshqa suv xo'jaligi majmuasi qatnashchilarining manfaatlari katta bo'lishi mumkin va bu holatlar har bir havzaviy kengash tarkibini shakllantirishda e'tborga olinishi lozim. Boshqa tomonidan ayrim hollarda havzaviy kengash tarkibini shakllantirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining manfaatlari ularning vakillari sifatida suv iste'molchilari uyushmasi tomonidan ifodalanishi qulay va samarali bo'lsa, sanoat sohasi vakillari uchun havzaviy kengashda a'zo sifatida qatnashish juda katta hal qiluvchi ahamiyat kasb etmasligi ham mumkin.

Albatta, havzaviy kengashga suv iste'molchilari va nodavlat tashkilotlari o'z vakillarini o'zлari yuborishlari ideal variant bo'lardi. Biroq buni amalga oshirish turli sabablar (tashkiliy, moliyaviy) tufayli murakkab bo'ladi, shuning uchun havzaviy

kengash tarkibida turli suv iste'molchilar va jamoatchilik sektori vakillarining bo'lishlarini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim. Bunda turli suv iste'molchilar va jamoatchilik sektori vakillari ishtirok etgan hollarda ham, havzaviy kengashning ishi unda ishtirok etmayotgan manfaatdor tomonlarning vakillari uchun ochiq va tushunarli bo'lishi kerak. Buni ayniqsa havzaviy kengashning nizomini, reglamentini va boshqa ichki hujjatlarini ishlab chiqishda, masalan, ularga majlislarning ochiq tarzda o'tkazilishi, ko'rib chiqilayotgan hujjatlar hamda qabul qilinayotgan qarorlar matnining ochiqligi, kengash muhokamasiga takliflar kiritish mumkinligi kabi talablarni kiritish orqali e'tiborga olish juda muhim. Bunday qadamlar jamoatchilik tomonidan havzaviy kengash faoliyatiga e'tibor yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi hamda uning ishida ishtirok etuvchi manfaatdor tomonlar ko'لامи kamayishining oldini oladi.

Umuman, havzaviy kengash ko'rinishidagi organning bo'lishi qabul qilinayotgan qarorlarda, masalan, suv resurslari dan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha dasturiy va me'yoriy hujjatlarni, turli xo'jalik qarorlari loyihalarini ko'rib chiqishda jamoatchilikning ishtirokini ta'minlashda yaxshi institutsional asos yaratadi. Bu esa milliy qonunchilik va xalqaro konvensiyalarning jamoatchilik ishtirokini ta'minlash talablarini bajarish bo'yicha xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi, ko'rيلayotgan masalalarning havzaning suv ob'yekti holatiga ta'sir etuvchi turli jihatlarini chuqurroq ko'rib chiqish imkonini beradi.

Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda havzaviy kengashlarni shakllantirish jarayonini har bir havzaning o'ziga xos sharoitlarini hisobga oluvchi bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. Havzaviy kengashlar havzaning suv resurslarini samarali boshqarishdan manfaatdor bo'lgan barcha tomonlarning va killigiga asoslangan organ bo'lishi lozim, shuning uchun uning

shakllanishi dastlabki kunlaridanoq manfaatdor tomonlarning xabardorligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Tashabbuskor (ishchi) guruh shakllanishi

Amalda havzaviy kengash tuzilishi jarayoni tashabbuskor (ishchi) guruhning tuzilishidan boshlanadi va uning a'zolari dastlabki davrdanoq uni tashkil etish bilan bog'liq tadbirlarda faol ishtirok etadilar. Mazkur guruhning shakllanishi jarayoni havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi tashabbusi bilan boshlanadi. Masalan, Qozog'iston tajribasida buning uchun havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi rahbariyati havzaviy kengashni tuzish bo'yicha hamkorlar doirasini aniqlab oladi. Buning uchun maxsus uslubiy tavsyanomadan foydalanish mumkin. Tashabbusni amalga oshirishda zarur bo'ladigan mobillik va xarajatlarni e'tiborga olib, tashabbuskor guruhni ixcham tarkibda tuzish tavsya etiladi. Amalda havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi joylashgan shahardagi tashkilotlar bilan ishlash qulayroq. Havzada kengash tuzilishidan manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan xalqaro va donor tashkilotlar hamda suv iste'molchilari bilan informatsion va texnik hamkorlik imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

So'ngra havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi havzaviy kengash tuzish masalasi bo'yicha tashabbuskor guruhga jalb etish rejashtirilgan turli davlat va boshqa turdag'i tashkilotlar vakillari bilan muloqotga kirishuvi zarur. Bu ishni quyidagi bandlar kiritilgan turli informatsion rasmiy xatlar tayyorlashdan boshlash mumkin:

- berilgan gidrografik havza bo'yicha kengash tuzish maqsadi, uning huquqiy asoslari va tayyorgarlik ishlari boshlanganligi haqidagi axborot;

- taklif etilayotgan tashkilotning havzaviy kengash ishidagi ishtiroki muhimligi va ahamiyati, ayrim hollarda amaldagi

qonuniy asoslarning talablarini yoritish;

- aynan qaysi mansabdor shaxs (mansabdor shaxslar) taklif etilayotgan tashkilot nomidan havzaviy kengashda qatnashishi vakolati mavjudligi va qanday hollarda vakolatini bosh-qaga topshirishi mumkinligini ko'rsatib o'tish;

- havzaviy kengashni tuzish bo'yicha tayyorgarlik ishlari-da qatnashish uchun mas'ul shaxsni belgilash so'ralgan rasmiy taklifnomasi.

Imkon darajasida bunday xizmat xatlari mazmuni bo'yicha mos bo'lgan suv xo'jaligi vazirligi nomidan berilgan xat bilan qo'shib yuborilishi maqsadga muvofiq.

Rasmiy xatlar yuborilganidan so'ng tashabbuskor guruh tarkibiga taklif etilgan tashkilotlar rahbarlari bilan havzaviy kengash tuzilishi bo'yicha shaxsiy uchrashuvlarni o'tkazish maqsadga muvofiq. Dastlabki bosqichda berilgan tushuntirishlar taklif etilgan tashkilot tomonidan qo'llab-quvvatlash xohishini olish imkonini oshiradi. Shundan so'ng havzaviy kengash tuzish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlarning konkret rejalarini va taklif etilgan tashkilot muayyan vakilining ishtirokini muhokama qilish mumkin.

Mazkur uchrashuvlar vaqtida havzaviy suv xo'jaligi tashkiloti mahalliy hokimiyat va vakillik organlarining tegishli rozililiklari-ga ega bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Yakunda havzaviy kengash tuzish bo'yicha odatda bir necha kishidan iborat bo'lgan kichik tashabbuskor guruhnasi tuzish lozim. Havzaviy kengashni tuzish bo'yicha navbatdagi bosqich ishlari shakllantirilgan tashabbuskor guruh doirasida olib boriladi.

Tashabbuskor guruhning tayyorgarlik ishlari

Tashabbuskor guruh o'z faoliyatini o'zi bajarishi lozim bo'lgan vazifalar doirasini aniqlashdan boshlaydi. Ya'ni tashabbuskor guruh havzaviy kengashning potensial a'zolari ro'yxatini

aniqlashi, havzaviy kengash faoliyati uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi me'yoriy hujjatlar (Nizom va reglament) loyihasini hamda havzaviy kengashning dastlabki ish rejasini ishlab chiqishi zarur. Mazkur faoliyat esa tashabbuskor guruhning hamkorlikdagi uchrashuvlari, alohida masalalarini ishchi suv xo'jaligi boshqarmalari vakillari bilan ishchi tartibda o'tkaziladigan maslahatlar, ma'lumotlar almashinuvi va boshqa vositalar yordamida amalgao shiriladi.

Tayyorgarlik bosqichida moliyaviy imkoniyatlarga bog'liq holda tashabbuskor guruh havzaviy kengashning tashkil etilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni, uning barcha potensial a'zolariga hamda suv iste'molchilarini va manfaatdor jamoatchilikka yetkazish tadbirlarini ham o'tkazishi mumkin. Informatsion kampaniya, seminarlar, davra suhbatlari, tashabbuskor guruh a'zolarining gidrografik havza doirasida joylardagi sayyor uchrashuvlarini o'tkazish yo'li bilan tashkil etilishi mumkin. Mazkur tadbirlarning asosiy maqsadi – manfaatdor tomonlarni tashkil etilayotgan havzaviy kengashning maqsad va vazifalari, uning ishida ishtirok etishning afzalliklari bilan tanishtirish va boshqalardan iboratdir. Informatsion kampaniyani o'tkazishda maxsus tayyorlangan buklet va materiallardan foydalanish mumkin.

Havzaviy kengashning nizomi namunaviy nizom asosida ishlab chiqiladi. Bunda havzaviy kengashning maqsad va vazifalari, kengash tomonidan ko'rib chiqiladigan hujjat va materiallar, tuziladigan konsultativ-maslahat organining tarkibi tashabbuskor guruh tomonidan muayyan havzaning o'ziga xos sharoitlari va talablaridan kelib chiqqan holda qayta ishlab, takomillashtiriladi. Nizomning havzaviy kengashish tartibi va majlislarini o'tkazish bilan bog'liq bo'limlari ham tegishli gidrografik havza sharoitlariga moslanib batafsil yoritiladi. Havzaviy kengashning reglamenti esa uning Nizomiga nisbatan tashabbuskor guruh

tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi. Bu ishga maxsus yurist jalb etilishi ham mumkin.

Tayyorgarlik ishlari davomida tashabbuskor guruh tomonidan tashkil etilayotgan kengash a'zolarining dastlabki ro'yxati shakllantiriladi. Ta'kidlash lozimki, kengash tarkibiga majburiy tarzda birinchi navbatda berilgan gidrografik havzada joylashgan havza suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i, viloyatlar va viloyat kengashlari rahbarlari kiritilishi lozim. Vakolatli vazirliliklar va boshqa sohalarning hududiy bo'linmalari rahbarlari esa ularning gidrografik havza bo'yicha tuzilgan dastlabki ro'yxati (agar u juda katta bo'lsa, uning muvofiq ravishda qisqartirilgan versiyasi) asosida kiritiladi. Eng muhim suv iste'molchilarini ja-moatchilik birlashmalari uchun maxsus ro'yxat tuziladi (ro'yxat juda katta bo'lsa, ular havzaviy kengashga vakilini yuboruvchi uyushmalarga birlashtiriladi). Shuning uchun Kengashning potensial a'zolarini tanlash mezonlari belgilanadi. Masalan, havza darajasidagi vakillik, professionalizm, kompetentlik, ijtimoiy faollik, qatnashishdan manfaatdorlikning mavjudligi kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Bu suv iste'molchilarini ja'moat tashkilotlari ro'yxatini kerakli miqdorgacha kamaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, havzaviy kengash faoliyatiga mazkur gidrografik havzada joylashgan transchegaraviy suv ob'yekti bo'yicha qo'shni mamlakatlarning tegishli havzaviy boshqarmalarini hamda tuman yoki alohida aholi punkti darajasidagi mahalliy ijro va vakillik davlat organlarini jalb etish tavsiya etiladi.

Havzaviy kengash a'zolarining dastlabki ro'yxati havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi tomonidan tegishli izohlar bilan tuziladi va so'ngra tashabbuskor guruh a'zolaridan, turli tashkilotlardan tarqatilgan dastlabki informatsion xabarnoma bo'yicha tushgan va turli potensial a'zolar bilan o'tkazilgan muzokaralar vaqtida

tushgan takliflar asosida qayta ishlanadi.

Adabiyotlar tahlili asosida havzaviy kengashga a'zo tashkilotlarning soni 10-25ta bo'lishi tavsiya etiladi, chunki undan kam sonda havzaviy kengashda yetarli darajada vakillilik mavjudligini ta'minlash qiyin bo'lsa, undan ko'p bo'lgan hollarda kengash ishi samaradorligini ta'minlash murakkab bo'ladi. Havzaviy kengash a'zolarining ro'yxati – tashkilot nomi, konkret a'zolarning familiyasi va ismi-sharifi hamda bog'lanish ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Navbatdagi qadamda tashabbuskor guruh tomonidan havzaviy kengashning birinchi majlisini o'tkazish bo'yicha dastlabki muddatlar hamda uning kun tartibi belgilanadi. Muddatlarni belgilashda ko'pchilik kengash a'zolari uchun qulay bo'lishi uchun ular (ayniqsa eng muhim a'zolar) bilan maslahatlashish muhimdir. Birinchi majlisda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalar – odatda havzaviy kengash a'zolarining yakuniy ro'yxatini tasdiqlash, havzaviy kengash nizomi va reglamenti muhokama qilish va tasdiqlash, kengash organlarini saylash hamda tuzilayotgan kengash ish rejasini muhokama qilish va tasdiqlashdan iborat bo'ladi. Albatta, tashabbuskor guruh a'zolari faqat tashkiliy masalalar bilan cheklanmay, kun tartibiga havzaviy kengashning faoliyati bilan bog'liq boshqa mantiqiy masalalarni ham kiritishlari mumkin.

Keyingi qadamlarda tashabbuskor guruh tomonidan havzaviy kengashning yillik va imkon darajasida 2-3 yilga mo'ljallangan istiqbolli ish rejasi ishlab chiqilishi lozim. Havzaviy kengashning faoliyatini rejalashtirish tashabbuskor guruh a'zolari bilan muhokama qilish asosida, agar tayyorgarlik ishlari davomida havzaviy kengash a'zolarining kengroq doirasida informatsion kampaniya olib borilgan bo'lsa, unda tegishli qarorlar, ularning ishtirokidagi maxsus seminar yoki davra suhbatи asosida qabul qilinadi.

Havzaviy kengashning birinchi majlisiga tayyorgarlik

Tashabbuskor guruh o'z vazifalarini bajarib bo'lgach, havzaviy kengashning birinchi majlisiga tayyorgarlik ishlari boshlanadi. Buning uchun mazmunida quyidagilar ifodalangan tegishli taklifnoma xati tayyorланади:

- tashabbuskor guruh tomonidan olib borilgan tayyorgarlik ishlarining natijalari bo'yicha qisqacha ma'lumot;
- havzaviy kengashning birinchi majlisi, uning dastlabki kun tartibidagi asosiy masalalar va o'tkazilishi joyi to'g'risidagi ma'lumot;
- havzaviy kengash Nizomi, reglamenti va ish rejasি loyihalari, mazkur hujjatlar bo'yicha ehtimoliy e'tiroz, taklif va qo'shimchalarni qabul qilish bo'yicha mas'ul shaxsni ko'rsatgan holda muhokamaga taqdim etish;
- agar avvalroq olinmagan bo'lsa, havzaviy kengash majlisida ishtirok etishni tasdiqlash to'g'risidagi takroriy so'rovnomasi;
- havzaviy kengash tarkibida qaysi mansabdor shaxs taklif etilgan tashkilot nomidan ishtirok eta olishi to'g'risidagi eslatma.

Tayyorlangan rasmiy xat havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i tomonidan imzolanadi va so'ngra unga ilova qilingan hujjatlar (havzaviy kengashning Nizomi, reglamenti, ish rejasи, birinchi majlisi kun tartibi loyihalari hamda majlisga taklif etilganlar ro'yxati) bilan birga tashabbuskor guruh tomonidan tayyorlangan tashkilotlar ro'yxati bo'yicha tarqatiladi.

Odatda, havzaviy kengashning muhokamaga taqdim etilgan hujjatlari bo'yicha barcha taklif va mulohazalarni qayta ishslash

uchun imkoniyat yaratish maqsadida taklifnomalar birinchi majlis o'tkazilishi rejalashtirilgan sanadan kamida bir oy oldin tarqatilishi lozim. Katta miqdorda tushgan hamda tayyorlangan hujjatlarga sezilarli o'zgartirishlar kiritish zarur bo'lgan hollar-da ularni havzaviy kengash tuzish bo'yicha tashabbuskor guruh doirasida amalga oshirish tavsiya etiladi. Havzaviy kengashning birinchi majlisiga kun tartibi hamda kengashning bo'lg'usi a'zolaridan tushgan takliflar asosida qayta ishlangan Nizom, reglamenti va ish rejasini loyihasi taqdim etilishi lozim.

Havzaviy kengashning birinchi majlisini o'tkazish

Havzaviy kengashning birinchi majlisini havzaviy suv xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i ochib, kun tartibini e'lon qilishi va so'ngra raislik qiluvchi maqomida majlisni olib borishi lozim. Kun tartibi tasdiqlangach, unga kiritilgan masalalarning mohiyati bo'yicha muhokamasi amalga oshiriladi. Muhokamalar ma'ruza yoki so'zga chiqish ko'rinishlarida o'tkazilishi mumkin. Bildirilgan fikrlar va muhokamalar natijasi asosida raislik qiluvchi muayyan masalalar bo'yicha tushgan takliflarni qatnashchilar e'tiboriga yetkazadi va havzaviy kengash a'zolariga ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilishni taklif etadi. Majlis yakuni bo'yicha uning protokoli tuziladi va unga havzaviy kengash raisi va kotibi imzo chekadilar. Agar havzaviy kengashni tashkil etish, uning Nizomi, reglamenti va ish rejasini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilinsa, mazkur bosqichni yakunlangan, deb hisoblash mumkin.

Havzaviy kengashning rivojlanishi uchun keyingi zaruriy qadamlar

Havzaviy kengashning faoliyatini tashkil etish bo'yicha keyin-gi qadamlar tasdiqlangan nizom, reglament va ish rejasini asosi-da amalga oshiriladi. Havzaviy kengashning faoliyatini rivojlan-tirishda birinchi qadamlardan biri sifatida kengash majlisida

havzaviy kelishuvlarni ishlab chiqish va qabul qilish masalasini ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Mazkur masalani muhokamaga qo'yish uchun tegishli lug'aviy ma'lumotlarni hamda havzaviy kelishuv loyihasini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish uchun havzaviy kengash tomonidan maxsus ishchi guruh tashkil etilishi mumkin.

Shubhasiz, havzaviy kengashlarning barqaror faoliyati uchun moliyaviy ta'minot muhim ahamiyat kasb etadi. Havzaviy kengashlarni tashkil etishning dastlabki bosqichlarida xalqaro va donor tashkilotlar tomonidan tashqi moliyaviy manbalar jalg' etilishi mumkin. Biroq havzaviy kengash tuzilib, uning birinchi majlisi o'tkazilgan davrdan boshlab darhol kelajakda havzaviy kengash faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun turg'unroq moliyaviy manbalar topish zaruriyati to'g'risidagi masala tug'iladi. Bugungi kunda jahon tajribasida bu masala yechimi bo'yicha turli ichki manbalar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, Qozog'iston tajribasida havzaviy kengashlarning faoliyatini yuritish uchun zaruriy moliyaviy xarajatlar davlat byudjeti hisobiga qoplanishi mumkinligi belgilab berilgan (Suv kodeksi, 42, 43-moddalar va boshqa me'yoriy hujjatlar).

Havzaviy kengashlarning asosiy vazifalaridan biri suv iste'molchilarini va jamoatchilikning suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari bo'yicha boshqaruq qarorlarini ishlab chiqish va ularni qabul qilishdagi bevosita ishtirokini hamda suv resurslarini boshqarish jarayonining ochiqligini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun havzaviy kengashlarning faoliyati barcha manfaatdor tomonlar (shaxslar, tashkilotlar, sohalar) o'rtasidagi aloqa va ma'lumot almashinuvni tizimini yaxshilash maqsadida muntazam ravishda informatsion va ta'limiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turilishi lozim.

Havzaviy kengashlar uchun umumiyl keng tarqalgan mu-loqot vositalari – telefon, faks yoki elektron pochtani hisobga

olmaganda – ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, jamoat eshituvlarini o'tkazish, ilmiy-texnik ma'lumotlarni yig'ish va almashish, informatsion materiallarni chop etish, o'quv va tarbiyaviy plakatlarni ishlab chiqish, aholi bilan uchrashuvlar o'tkazish, tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlarni Internet-sayt orqali tarqatish.

Jamoatchilikning keng ommasini suv bilan bog'liq dolzarb muammolardan xabardor qilish uchun OAV bilan faol ish olib borish lozim. Buni turli press-relizlarni ishlab chiqish, OAV vakillarini havzaviy kengash majlislariga taklif qilish, kengash qarorlarini rezolyusiya va tasiyalar ko'rinishida tarqatish, press-konferensiyalar tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin. Muhimi – ma'lumotlar qanchalik to'liq va aniq berilsa, u OAV tomonidan shunchalik darajada aniq yoritiladi. Jahon tajribasi aynan OAV bilan faol ishslash suv resurslarini integral boshqarishning asosiy prinsiplarini keng jamoatchilikka yetkazib berishga imkoniyat yaratganligini ko'rsatadi. Bu esa kengashlar faoliyatining ochiqligi va qonuniyligini ta'minlagan.

Shunday qilib, havzaviy kengashlar mamlakatlarda suv resurslarini boshqarishda yaxlit informatsion tizimining ajralmas bo'limiga aylanmoqda. Birinchidan, havzaviy kengashlar faoliyati havza darajasidagi ma'lumotlarni yig'ish jarayonini osonlashtiradi. Ikkinchidan, havzaviy kengashlar bevosita suv resurslarini boshqarish jarayoniga jalb etilgan asosiy tashkilotlar va shaxslar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi. Nihoyat, havzaviy kengashlar suv resurslaridan foydalanish, ularni muhofaza qilish va boshqarish bo'yicha muammoning tahlilini sifatlari amalga oshirish va ularning yechimi bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish orqali qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda jahonda havzaviy tashkilotlarning «The

International Network of Basin Organizations (INBO)» deb nomlanuvchi, 1994-yilda tashkil etilgan xalqaro tarmog'i (HTXT) ham mavjud. Mazkur xalqaro tarmoq daryo va ko'llar hamda yer osti suvlari qatlamlari havzalarida suv resurslarini integral boshqarishni joriy etish jarayonlarini qo'lllab-quvvatlaydi. Mazkur xalqaro tashkilot transchegaraviy, milliy va mahalliy havzalar sharoitlarida havzaviy boshqaruvning maqbulroq va takomillashgan mexanizmlarini ishlab chiqishni rivojlantirish va tajriba almashinuvini rag'batlantirish maqsadida havza tashkilotlari bilan va havza boshqaruvi bo'yicha mas'ul bo'lgan boshqa davlat tashkilotlarini o'zaro bog'laydi.

Havzaviy tashkilotlarning xalqaro tarmog'i (HTXT) – Afrika, Lotin Amerikasi, Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda O'rta Yer dengizi mamlakatlari Havzaviy tashkilotlarning mintaqaviy tarmoqlari tomonidan tashkil etilgan. Ushbu tashkilot, shuningdek, Xalqaro Komissiyalar Tarmog'i, Transchegaraviy havzaviy tashkilotlar hamda Yevropaning "Yevropa hamjamiyati suv direktivasi"ni joriy etish bo'yicha mas'ul Yevropa havza tashkilotlari guruhi faoliyatini ham muvofiqlashtirib boradi. HTXT dunyo bo'yicha havzaviy tashkilotlarni tashkil etish va rivojlantirishning ko'p yillik rejasi asosida faoliyat olib boradi.

Havzaviy tashkilotlarning rollari

Havza tashkilotlari havzadagi suv resurslarini boshqarishda boshqa institutlarga nisbatan asosiy ovoz maqomiga ega bolishi lozim.

Havzaviy tashkilotlarning faoliyatidagi asosiy funksiyalar quyidagilardan iborat:

1. Monitoring qilish, o'rganish, muvofiqlashtirish va boshqarish;
2. Rejalashtirish va moliyalashtirish;
3. Rivojlantirish va boshqarish.

Havzaviy tashkilotlarning rollari va mandati:

Havza tashkilotlari – ularning maqsadiga, mavjud huquqiy va ma'muriy tizimlarga va inson hamda moliyaviy resurslarga bog'liq holda turli shartlar asosida tashkil etiladi. Ular asosan (biroq hamma vaqt ham emas) rasmiy yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar. Ayrim hollarda nisbatan torroq ma'nodagi rasmiy maqom ham yetarli bo'ladi. Ammo havzaviy tashkilotlar tuzilishi bo'yicha jamoat tashkiloti bo'lishi lozim, chunki suv resurslari umumxalq mulki hisoblanadi. Shunga qaramay, rasmiy havzaviy tashkilotlar suv resurslarining samarali boshqaruviga erishish yo'lida jamoatchilik tashkilotining bir qismi sifatida keng qamrovli manfaatdor tomonlar, aholi guruhlari, iqtisodiyot tarmoqlari va xususiy korxonalarini o'z ichiga olishlari lozim.

Umumiyl qilib aytganda, havzaviy tashkilotlar havzaviy boshqaruv uchun himoyalovchi tashkilot hisoblanadilar. Ularning mandati havza darajasidagi muammolarni hal etishda uzoqni ko'ruchchi maqsadlarni olg'a surish va havza darajasidagi suv muammolari muhokamasida eng asosiy ovozga ega bo'lishdir. Bu o'z navbatida havza tashkilotlari havza bo'yicha barcha sohalar va darajalarga mansub qaror qabul qiluvchilarni ham jamoat, ham shaxsiy sektorlarida doimiy xabardor qilish va ularni doimiy jalb etishni ta'minlashlari lozimligini bildiradi.

Havza tashkilotlari turli shakllardagi organlar: maslahat kengashi, boshqaruv bo'limi, rivojlantirish va muvofiqlashtirish kengashi ko'rinishidagi organlarga ega bo'lishi mumkin. Ko'pincha ular davlat agentliklari va ma'muriy tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadilar. Faoliatlarni tartibga solish va aniq hisobot yuritish imkonini yaratish uchun suv resurslarini boshqarish, suv xizmatlarini ko'rsatish kabi majburiyatlar turli agentliklarga yuklatilishi lozim.

Havzaviy tashkilotlarning funksiyalari ularning mandatlariga

bog'liq holda odatda davlat siyosati va maqsadlariga uyg'unlashgan holda markaziy hukumatning yuqori organlari tomonidan belgilab beriladi. Havzaviy tashkilotlarning mandatlari havzaviy tashabbuslarni keltirib chiqqagan sabablar bilan bog'liq holda havzadagi dolzarb muammolarni o'zida aks ettiradi. Bunda mandatning chegaralarini (rasmiy tashkilotlar uchun qonunchilik asosida), hisobot yuritish tizimini hamda qarorlar qabul qilish va ishtirok etish qoidalari kim tomonidan belgilanishini aniq ko'rsatish juda muhim hisoblanadi.

Masalan: Kvebek havzaviy tashkiloti missiyasi va mandati:

Havza tashkilotlari neytral maslahat platformalari hisoblanib, barqaror taraqqiyot yo'lida havza darajasida suv resurslarini integral boshqarishni tashkil etadi.

Missiyasi: Ularning missiyasi mahalliy va mintaqaviy manfaatdor tomonlarni suv resurslariga va ekotizimlarga ta'sir etuvchi faoliyatlarni muvofiqlashtirish yo'lida birlashtirish va bunda ja-moatchilik ishtirokiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Mandati: O'z missiyalarini bajarish yo'lida havza tashkilotlari quyidagi mandatlarga ega bo'ladilar:

- jamoatchilik xabardorligi va ishtiroki orqali suvdan foy-dalanish rejalarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- tegishli manfaatdor tomonlar bilan havzaviy shartnomalarni tuzish va amalga oshirish jarayonini monitoring qilish;
- havzadagi muammolardan manfaatdor tomonlarni va ja-moatchilikni xabardor qilish;
- suv sohasining standart talablarga javob berishini audit qilish.
- boshqarish (tabiiy resurslar boshqaruvchisi yoki havzani boshqaruvchi agentlik):
 - suv resurslarining strategik baholash ishlarini olib borish;
 - mintaqaviy yoki milliy maqsadlar va standatlarga mos kelish bo'yicha tadbirlar va strategiyalarni ishlab chiqish;

- strategik suv tadqiqotlarini olib borish va nazorat qilish;
- suv resurslarini rivojlantirishni rejalahtirish;
- suv taqsimotini amalga oshirish;
- havzaviy harakatlar rejasini moliyalashtirish;
- yer osti va yer usti suvlari miqdori va sifatini boshqarish;
- tarmoqlararo va jamoaviy harakatlarni muvofiqlashtirish;
- suv sohasida salohiyatlarni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish;
- jamoatchilikishtirokivaxabardorligini qo'llab-quvvatlash.

Tizimlardan foydalanish (jamoatchilik, xususiy yoki jamoat mulklari):

- suv ta'minoti, kanalizatsiya, oqava suvlarni tozalash, drenaj va irrigatsiya tizimlarini qurish va ulardan foydalanish;
- infratuzilmalarini ishchi holatda saqlash;
- texnik maslahat va yordamni ta'minlash;
- xizmatlar uchun haq undirish.

Mintaqa va milliy ko'lAMDAGI sharoitlarning o'zgarishi tuyayli havzaviy tashkilotlar ham vaqt davomida rivojlanib boradilar. Havzaviy tashkilotlar siyosiy yo'nalishdagi o'zgarishlarga, ma'muriy islohotlarga yoki qo'shni mamlakatlarning o'zaro munosabatlaridagi o'zgarishlarga moslashib borishlari zarur. Bu holat ularning boshqaruv tizimidagi va tuzilishlaridagi, mandat va missiyalaridagi o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, ular rivojlanib borayotgan muammolarga, jumladan, iqlim o'zgarishi ta'siri oqibatlari kabi muammolarga ham moslasha olish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur. Ko'pincha havzaviy tashkilotlar komissiyalar ko'rinishida tashkil etiladi va asta-sekin rivojlanib boradi.

Shunday qilib, havzaviy tashkilotlar barcha manfaatdor tomonlarning suv resurslarini boshqarish jarayonida ishtirok etishini ta'minlashning faol tashkiliy shakli bo'lib, daryo

havzalari darajasida suv xo'jaligi tashkilotlari bilan hamkorlikda suv resurslarini samarali boshqarish, suv resurslari taqsimoti va suv sifati ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatish hamda tabiiy komplekslar saqlanishiga ijobiy yordam beradi.

O'z o'zini nazorat qilish savollari:

1. Suv resurslarini boshqarish jarayonida uchrayotgan muammolar va murakkabliklar;
2. Suv resurslarini boshqarishda ishtirok etuvchi havzaviy tashkilotlar;
3. Havzaviy tashkilotlarning turlari;
4. Havzaviy tashkilotlarni tashkil etish zaruriyati;
5. Havzaviy tashkilotlarning roli va vazifalari;
6. Havzaviy tashkilotlarning tuzilishi va tarkibiy qismlari;
7. Havzaviy kengash reglamenti;
8. Tashabbuskor (ishchi) guruh shakllanishi;
9. Tashabbuskor guruhning tayyorgarlik ishlari;
10. Havzaviy kengashning birinchi majlisiga tayyorgarlik;
11. Havzaviy kengashning birinchi majlisini o'tkazish;
12. Havzaviy kengashning rivojlanishi uchun zaruriy qadamlar.

III bob. Suv resurslarini havzaviy boshqarish

3.1 Suv resurslarini havzaviy boshqarishning mohiyati va afzalliklari

Suv resurslarini havzaviy boshqarish masalasiga o'tishdan avval suv resurslarini boshqarish tushunchasi va uning mohiyatini qisqacha sharhlab o'tamiz. Amalda suv resurslarini boshqarish zaruriyati quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

- mavjud suv resurslarining cheklanganligi va notejis tarqalganligi;
- suvga bo'lgan talabning keskin ortib borishi;
- suv resurslari miqdorining, ularning shakllanish sharoitlari va manbalariga bog'liq ravishda vaqt davomida o'zgaruvchanligi va o'zgarish amplitudasining kattaligi;
- tabiyi va antropogen omillar ta'sirida suv resurslarining ifloslanishi va sho'rланishining kuchayib borishi;
- suv ob'yektlarining tabiatga va xalq xo'jaligi ob'yektlariga salbiy ta'siri (suv toshqini, suv bosishi va b.).

Suv resurslarini boshqarish ikkita yo'nalishda amalgashiriladi:

- 1) suv resurslari miqdorini boshqarish;
- 2) suv resurslari sifatini boshqarish.

Suv resurslari miqdorini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda suvga bo'lgan talabning o'rtacha qiymatlariga, shuningdek, har bir suv iste'molchisining tavsifnomasini o'rganish nati-jalariga tayaniladi hamda mo'ljallangan u yoki bu tadbirni o'tka-zish zaruriyati asoslanishi lozim bo'ladi. Suv resurslari sifatini boshqarishda esa iste'molchilararning suv sifatiga qo'yadigan ta-lablariga asoslanish zarur, chunki turli iste'molchilar suv sifatiga nisbatan turli talablarni qo'yadilar. Suv resurslarining miqdori va sifatini oddiy va murakkab boshqarish usullari mavjud.

Suv resurslarining oddiy boshqaruvida ular miqdor va sifat jihatidan suv iste'moli tartibiga muvofiq ravishda suv inshootlari va texnik vositalar yordamida iste'molchilarga yetkaziladi yoki yo'l-yo'lakay suv ob'yekting alohida foydali xususiyatlari dan foydalanish amalga oshiriladi. Suv resurslarining murakkab boshqaruvida esa suv (sifat va miqdor jihatdan) iste'molchining talablariga mos ravishda tayyorlanadi va so'ngra maxsus inshootlar va texnik vositalar yordamida iste'molchilarga yetkaziladi.

Suv resurslarini boshqarish tushunchasi ostida suv resurslari vaqt va hududlar bo'yicha qayta taqsimlash, ekologik barqarorlik talablarini hisobga olgan holda iqtisodiyot sohalarining suv resurslariga bo'lgan talablarini optimal ravishda qondirish uchun suv sifatini yaxshilash, ya'ni suvni kerak bo'lgan joyga, talab etilgan sifat bilan zarur bo'lgan vaqtida yetkazish tushuniladi. Yana ham qisqaroq qilib, suv resurslarini boshqarish suv resurslarining vaqt va makonda tarqalishi hamda sifat ko'rsatkichlarini iste'molchining talablariga moslashtirish jarayoni, deb talqin etilishi mumkin.

Suv resurslarining har bir tarkibiy qismini vaqtda va makonda boshqarish mumkin. Jumladan, yer usti suvlari miqdorini boshqarish suv omborlari barpo etish, kanallar qurish va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Yer osti suvlari miqdori esa suv omborlari barpo etish, yer osti sig'imlaridan foydalanish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish bilan boshqariladi. Hozirgi davrda dunyo amaliyotida atmosfera yog'inlarini boshqarish bo'yicha ham katta tajriba to'plangan.

Shunday qilib, hozirgi kunda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish jarayonlarini boshqarish ehtiyoji jamiyat va mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik talablarini muvofiqlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi. Iqtisodiy taraqqiyot, xuddi ijtimoiy talablarning o'sishi kabi suv iste'moli ortishiga olib keladi va bu o'z navbatida asta-sekinlik bilan

tabiatning o'zini ham, uning mahalliy, mintaqaviy va hatto global miqyoslarda suv iste'molchisi va suvdan foydalanuvchi sifatida-gi ehtiyojlarini ham hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Suv resurslarini boshqarishning mazkur uch strategiyasi o'rtasidagi asoslangan muvozanatni topish butun jahon ham-jamiyati oldida turgan maqsad va umumiy yondashuvdir.

Suv resurslarini boshqarish jarayoni birinchi qaraganda go'yo oddiydek, ammo chuqurroq qaralsa, juda murakkab tizim ekanligini ko'rish mumkin. Bu murakkab tizimda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

* tabiiy suv resurslari (yog'inlar, yer osti va yer suv oqimlari), shuningdek, antropogen ta'sir ostida hosil bo'ladigan qaytuvchi suvlar. Bu resurslar iqlimning tashqi o'zgarishlari ta'siri ostida o'zgarishi mumkin;

* iqtisodiyot sohalari bo'yicha suvning qaytmas tarzda ishlatalishini hisobga olgan holda suvga bo'lgan talablar ham turlicha;

* ekologik sharoitlar va talablar;

* ijtimoiy muhit va iqtisodiy taraqqiyot;

* nihoyat, eng muhim tarkibiy qism – siyosiy muhit.

Shuningdek, suv resurslarini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- resurslar mavjud bo'lgan joylar ularni iste'mol qilish joylari bilan mos kelmaydi;

- turli iste'molchilarining suvga bo'lgan ehtiyojlarini turli vaqt intervallariga ega ekanligi bilan xarakterlanadi (masalan, sug'orish va energetika; rekreatsiya va baliqchilik va b.);

- suv sifatining yomonlashuvi mohiyatan jamiyat uchun yaroqli suvning miqdori keskin kamayib ketishiga olib keladi.

Ko'pincha juda soddalashtirilgan fikr bildiriladiki, go'yo suv resurslarini boshqarish bu shunchaki suvni kerakli nuqtalariga imkonli boricha kerakli vaqtida kerakli miqdorda yetkazib

berishdan iborat. Aslida yuqorida keltirilgan tashqi va ichki omillar ta'sirida dunyoda yetilib kelayotgan tendensiyalar hisobga olinsa, zamonaviy suv resurslarini boshqarish jarayoni murakkab jarayon ekanligi ko'rindi. Shunday qilib, suv resurslarini boshqarishning zamonaviy ta'rifi quyidagicha:

Suv resurslarini boshqarish – jamiyat va tabiatning kerakli sifat va miqdordagi suvgaga bo'lgan ehtiyojini muntazam qondirishni barcha makon va vaqt kesimlarida – operativ, yillik, ko'p yillik va istiqbolli miqyoslarda doimiy ta'minlashi zarur. Boshqacha aytganda, suv resurslarini boshqarish – suv resurslari va unga bo'lgan ehtiyojlarning muvozanatini muntazam saqlashdir.

Suv resurslarini boshqarish tushunchasini to'liq anglash uchun uning keng va tor ma'nodagi mazmuniga e'tibor qaratish lozim. Chunki "suv resurslarini boshqarish" bugungi kunda uning yuqorida keltirilgan ta'rifidan kelib chiqqan holda o'zaro bir-birini to'diruvchi, ajralmas – "rahbarlik" hamda "boshqaruv" qismlarini o'z ichiga oladi:

- Suv resurslarini boshqarish – keng ma'noda (rahbarlik va boshqaruv) – bu suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha barcha, ya'ni siyosiy, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va boshqa funksiyalar spektrini o'z ichiga oladi. Bunda suv resurslarini boshqarish va unga rahbarlik qilish tushunchalari qamrab olinadi. Aynan suv resurslarini boshqarishga rahbarlik qilish bosqichida demokratik prinsiplar ishlaydi. Suv boshqaruvining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarida barcha suv xo'jaligi majmuasi qatnashchilar (suv iste'molchilar va suvdan foydalanuvchilar) ishtirokidaadolatli, samarali va ekologik maqbul natijalarga olib keluvchi faoliyat amalga oshiriladi.

- Suv resurslarini boshqarish – tor ma'noda (boshqaruv) – bu “rahbarlik” bosqichida – suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish hamda gidromeliorativ tizimlarni ishchi holatda ushlab turish bo'yicha qabul qilingan texnik, texnologik, moliyaviy va tashkiliy tadbirdirlarni amalga oshirishni o'z ichiga oluvchi faoliyatni anglatadi. Ayrim hollarda suv resurslarini boshqarish (tor ma'noda) “ekspluatatsiya” so'zining sinonimi sifatida ham qaraladi.

Suv resurslarini integral boshqarish

Suv resurslarini boshqarishning integrallashgan yondashuv – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik manfaatlarni e'tiborga olgan holda suv resurslarini barqaror va muvozanatlashgan tarzda rivojlantirish va boshqarishga yordam beradi. Bu yondashuv turli va o'zaro raqobatlashuvchi, suv resurslarini iste'mol qiluvchi, ayrim hollarda suv va unga bo'lgan ekologik talablarни suiiste'mol qiluvchi manfaatdor guruhlarni aniqlaydi. Mazkur kompleks yondashuv suv resurslarini boshqarishni turli vaznaga ega bo'lgan (mahalliydan xalqaro miqyosgacha) har xil tarmoqlar va manfaatdor guruhlar bo'ylab muvofiqlashtiradi. Bu yondashuv yanada tengroq va barqarorroq qarorlarga erishish yo'lida milliy siyosat va qonunlarni yaratish, munosib boshqaruv hamda samarali institutsional va tartibga soluvchi tadbirdirlarni ishlab chiqish jarayonlarida ishtirok etishga urg'u beradi. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy va ekologik ekspertizalar, iqtisodiy instrumentlar, informatsion va monitoring tizimlari kabi instrument diapazonidan foydalaniladi.

Shunday qilib, suv resurslarini integral boshqarish (SRIB) suv, yer va ular bilan bog'liq bo'lgan resurslarni hayotiy ekotizimlar barqarorligiga zarar yetkazmasdan, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini maksimallashtirish maqsadida muvofiqlashtirilgan rivojlantirish va boshqarishga yordam beruvchi

jarayon sifatida shakllanadi. Aynan barcha suvlarning o'zaro bog'liqligi ulardan foydalanishni integratsiyalashga chorlaydi.

Suv manbadan olinishi bilan iqtisodiy, ekologik, shuningdek ijtimoiy substansiya sifatida qiymat ko'rsatkichlariga ega bo'лади. Suv resurslarini boshqarishda tarixda dunyoning turli mamlakatlarida yo'l qo'yilgan muvaffaqiyatsizliklar sabablarining katta qismi, o'tmishdagi ma'muriy tizim sharoitlarida iqtisodiy kategoriyalardan noto'g'ri talqinda foydalanilganlik, qisman suvning resurs sifatidagi qiymat xarakteristikasi tan olinmaganligi, suvning to'liq qiymat strukturası va uni qoplash manbalari o'rganilmaganligi kabi faktlar bilan bog'liqdir. Ayrim mamlakatlarda, masalan, G'arbiy Yevropa mamlakatlari yoki AQSHda suvning qiymati jamiyat rivojlanishining, qisman bozor munosabatlarining rivojlanish xususiyati sifatida asoslanadi. Ammo har bir muayyan jamiyatda suvning qiymati maxsus sharoitlar va jamiyat oldida turgan asosiy maqsad bilan belgilanadi.

Jumladan, Orol dengizi havzasi sharoitida umumiy suv resurslari, eng avvalo, mintaqa aholisining, barcha insonlarning yashashga bo'lgan huquqi asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki suv resurslari boshqa tabiiy resurslardan farqli ravishda muqobiliga ega bo'lмаган umumfoydalaniluvchi resursdir. Mintaqaning barcha aholisi farovonligi o'sishi uchun umumiy suv resurslaridan oqilona foydalanish asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu mintaqada suv, eng avvalo, iqtisodiy ahamiyatidan ancha muhimroq bo'lgan ijtimoiy, madaniy va ekologik qiymatga egadir.

SRIBni tatbiq etish jarayoni chiziqli emas, balki spiralsimon va uzoq muddatli ekanligi haqidagi fikrga amal qilish kerak. Har bir sikl muayyan maqsadga ega bo'lishi va muntazam monitoring, erishilgan natijalar bahosi va avvalgi rejalar korrektirovka-si bilan birga olib borilishi lozim.

SRIBning asosiy talabi – suv xo'jaligi tashkilotlari

faoliyati uchun muhit bo'lgan mintaqadagi umumiy vaziyatni yaxlitlashtirilgan holda o'rganib, ularning yuzaga kelgan ish usullarini o'zgartirishdan iboratdir. SRIBni tatbiq eta turib, suv xo'jaligi ierarxiyasining turli darajalarida qarorlar qabul qilishda barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokiga ahamiyat berish zarur.

«SRIB – bu turli sohalar manfaatlarini bog'laydigan, barcha manfaatdor tomonlarni qarorlar qabul qilishga jalgan etadigan, tabiatning va jamiyatning suvgaga bo'lgan talablarini barqaror ta'minlash maqsadida suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanishga jalgan etadigan gidrografik chegaralar doirasida suv resurslarining barcha turlarini (yer osti, yer usti va qaytuvchi suvlar) hisobga olishga asoslangan boshqaruv tizimidir».

SRIB tizimi uning amaliy mohiyatini belgilaydigan qator asosiy prinsiplarga asoslanadi. Umumlashtirilgan ko'rinishda bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

- suv resurslarini boshqarish muayyan daryo havzasining morfologiyasiga muvofiq gidrografik chegaralar doirasida amalga oshiriladi;
- boshqaruv mintaqalarning iqlim xususiyatlarini inobatga olgan holda suv resurslarining barcha turlarini hisobga olish va ulardan foydalanishni ko'zda tutadi (yer usti, yer osti, qaytuvchi suvlar);
- suv resurslaridan foydalanishning barcha turlari va suv resurslarini boshqarishda barcha ishtirokchilarining sohalararo gorizontal va suv xo'jaligi ierarxiyasi darajalari o'rtasida vertikal uzviy bog'lanishi (havza, havza osti, sug'orish tizimi, suv iste'molchilari uyushmasi – SIU, xo'jalik, so'nggi iste'molchi);
- suv xo'jaligi infratuzilmasining nafaqt boshqaruvida, balki uni mablag' bilan ta'minlash, rag'batlantirish, rejorashtirish va rivojlantirishda jamoatchilik ishtiroki;

- suv xo'jaligi faoliyatida tabiiy talablar ustunligi;
- suv xo'jaligi tashkilotlari va suvdan foydalanuvchilarining suvni besamar isrof bo'lismiga qarshi kurash va suvni tejashga yo'naltirilganligi;
- suv resurslarini boshqarish bilan birga suvgaga bo'lgan talabni boshqarish;
- suv resurslarini boshqarish tizimining axborot ta'minoti, ochiqligi va aniqligi;
- boshqarishning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi.

SRIB yuqorida ko'rsatilgan barcha element va prinsiplar bajarilgandagina tugallangan, deb hisoblanishi mumkin. Bir yoki bir necha prinsiplarning qisman tatbiq etilishi, masalan, havzaviy usul, jamoatchilik ishtiroki kabilalar SRIBning qayd etilishi va tugallangan tizim sifatida tan olinishi uchun asos bo'la olmaydi.

SRIBning asosiy prinsiplari mohiyatini bilish ularni amalga oshirishda qanday chora-tadbirlar kerakligini anglash uchun muhimdir.

SRIBning Markaziy Osiyoda qabul qilingan asosiy prinsiplari:

- SRIBning asosiy maqsadi – suvdan foydalanuvchilar va tabit ehtiyojlarini suv resurslari bilan barqaror, adolatli va teng huquqli ravishda ta'minlash;
- suv resurslarini boshqarish muayyan daryo havzasining morfologiyasiga muvofiq gidrografik chegaralar doirasida amalga oshiriladi;
- boshqaruvin mintaqalarning iqlim xususiyatlarini inobatga olgan holda suv resurslarining barcha turlarini hisobga olish va ulardan foydalanishni ko'zda tutadi (bug'lanish, yer osti, yer osti, qaytuvchi suvlar);
- suv xo'jaligi faoliyatida tabiiy talablar ustunligi;
- suv xo'jaligi infratuzilmasining nafaqat boshqaruvida, balki uni mablag' bilan ta'minlash, rag'batlantirish, rejalashtirish va rivojlantirishda jamoatchilik ishtiroki;

- suvdan foydalanishning barcha turlari va suv resurslarini boshqarishda barcha ishtirokchilarning sohalararo gorizontal va suv xo'jaligi ierarxiyasi darajalari o'rtaida vertikal uzviy bog'lanishi;
- suv resurslarini boshqarish tizimining axborot ta'minoti, ochiqligi va aniqligi;
- suv resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, yo'qotishlarga qarshi kurash – suv xo'jaligi organlari va suvdan foydalanuvchilar faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

Suv resurslarini integral boshqarishning (SRIB) asosi – barcha turdag'i suvdan foydalanuvchilar o'rtaida o'zaro bog'liqlikni tan olish hisoblanadi. Bu esa suv resurslarini integral boshqarishda havzadagi barcha turdag'i suv iste'molchilarini birgalikda qarash lozimligini anglatadi. Suv resurslarini taqsimlash va boshqarish bo'yicha tadbirda har bir turdag'i suvdan foydalanuvchining boshqasiga ta'siri hisobga olinadi. Bunda barqaror rivojlanishni ko'zda tutgan holda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar e'tiborga olinadi. SRIB tamoyilida hamkorlikda qarorlar qabul qilish asosiy o'rinn tutadi.

SRIBning eng muhim tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- SRIB aniq bir daryo havzasi morfologiyasiga mos ravishda gidrografik chegaralar hududida amalga oshiriladi;
- Barcha turdag'i suv resurslarini nazarda tutadi;
- Barcha suv turlari va suvdan foydalanuvchilarning hamma turlarini kompleks ravishda hisobga olish;
- Suv xo'jaligi ierarxiyasining turli darajalari (havza, havza osti, sug'orish tizimi, SIU, xo'jalik) o'rtaida uzviy bog'liqlik;
- Jamoatchilik ishtiroki;
- Madaniy-texnik va ekologik ehtiyojlarni hisobga olish;
- Suv xo'jaligi organlari faoliyatida tabiat talablarining ustuvorligi;

- Suv resurslari boshqaruvi bilan bir qatorda suvga ehtiyojlarni ham boshqarish;
- Suv resurslarini boshqarish tizimida ma'lumot ta'minoti, oshkorralik va aniqlik;
- Boshqaruvning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, salohiyatni oshirish.

Suv resurslarini havzaviy boshqarish

Havzaviy boshqaruv iterativ jarayon sifatida suv boshqarmalari va havzaviy qo'mitalar kabi havzaviy kelishuv va boshqaruv tuzilmalari endigina tashkil etilgan va takomillashtirish zarur bo'lgan sohalarni aniqlash imkonini beradi. Qaror qabul qilish, rejalashtirish va boshqarish havzaviy boshqaruvdagi ketma-ket amalga oshiriladigan muhim qadamlar seriyalari sifatida qaralishi mumkin.

Birinchi qadam keng qamrovli maqsadlar bo'yicha qarorlar loyihasini ishlab chiqish (erishish ko'zlangan maqsadlarni belgilash)dan iborat. Keyingi bosqichlarda esa suv resurslarini boshqarish bo'yicha yechimini topish zarur bo'lgan muammo-larga aniqlik kiritish, ularni hal etish bo'yicha potensial strategiyalar ro'yxatini tuzish (maqsadga erishish yo'llarini belgilash), strategiyalarning har birini baholash, muayyan strategiya yoki ularning kombinatsiyasini tanlash, tanlangan strategiyani amalga oshirish, uni amalga oshirish natijalarini baholash hamda rejalarning kelgusida yanada samaraliroq bo'lishi maqsadida qayta ko'rib chiqish tadbirlari amalga oshiriladi.

Suv resurslarini havzaviy boshqarish sikli bosqichlari. Albatta mazkur sikl bosqichlari ketma-ketligi tashqi kuchlar ta'sirida uzilishi mumkin. Biroq "boshqaruvni bajarish orqali o'rganish sikli" bizga o'rgangan bilimlarimizni suv resurslarini boshqarish jarayonida qo'llash hamda yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilan inobatga olish imkonini beradi. Bu esa biz suv resurslarini

boshqarish jarayonini o'zgarayotgan oqibatlarga, jumladan siyosiy o'zgarishlar, tabiiy ofatlar va demografik o'zgarishlarga moslashtira olishimizni anglatadi.

Mamlakatlarda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha rasmiy siyosat odatda milliy hukumtlar tomonidan o'rnatiladi. Mazkur siyosatlarni amalga oshirish jarayoni ko'p hollarda samarali bo'lsa-da, siyosatlar havza miqyosida amalga oshiriladigan hollarda "butun havza" uchun maqbul qarorlarga kelishning hamda "yuqori va quyi oqim" muammolariga (daryo havzalari uchun) va "mintaqa va mintaqa o'rtasidagi" (ko'l yoki yer osti suvlari resurslari uchun) qarama-qarshiliklariga yechim topishning kattaroq imkoniyatlari mayjud. "Butun havza" yondashuvi ta'sirlarni tizim darajasida baholash imkonini beradi. Boshqacha aytganda, milliy siyosatlar hamda transchegaraviy suv resurslari bo'yicha xalqaro kelishuv va mintaqaviy konvensiyalarni qo'llash, tabiiy havzalar miqyosida amalga oshiriladi. Mamlakat miqyosida va havza darajasida suv resurslarini boshqarish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlар esa yanada dinamik va ro'yobga kehayotgan o'zgaruvchan oqibatlarga (ularning ekologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy bo'lishidan qat'i nazar) moslashuvchanroq bo'ladi.

Suv resurslarini havzaviy boshqarish bugun paydo bo'lgan butunlay yangi yondashuv emas. Ayrim mamlakatlar, masalan Fransiya va Ispaniya bir necha o'n yilliklar davomida havzaviy boshqarish yondashuvini qo'llab kelmoqdalar. Jumladan, Ispaniyada 9 ta "Gidrografik konfederatsiyalar" 75 yildan ko'proq davr davomida, Fransiyada esa 1964-yildan beri 6 ta "Havza qo'mitalari" va "Suv agentliklari" faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Germaniyaning North Rhine-Westphalia shtatidagi 11 ta daryo havzaviy tashkilotlardan biri bo'lgan Ruxr assotsiatsiyasi (Ruhrverband) 1899-yilda suv xo'jaligi va gidroenergetika sohasi xodimlarining ixtiyoriy alyansi sifatida tashkil etilgan. Xalqaro

komissiyalar Yevropada ko'p yillar avval, jumladan Reyn, Meyuz, Sheldt, Mosell va Sarre daryolari hamda Jeneva ko'li havzasida tashkil etilgan. AQSHda Tennessi vodiysi boshqarmasi 1933-yilda tashkil etilgan. Avstraliyada 1992-yilda Murrey-Darling shartnomasi asosida Murrey-Darling havza komissiyasiga suv, yer va atrof-muhit resurslarini rejalashtirish va barqaror boshqarish masalalarini muvofiqlashtirish vakolati berilgan. 1909-yilda AQSH va Kanada hukumatlari tomonidan chegara suvlari shartnomasi asosida birga foydalaniladigan suv resurslarini boshqarish bo'yicha qo'shma xalqaro komissiya tashkil etilgan. Janubi-sharqiy Osiyoda 1995-yilda Mekong daryosi havzasini barqaror rivojlantirish bo'yicha imzolangan hamkorlik shartnomasi Mekong daryosi Komissiyasi tashkil etilishiga olib keldi. Niger daryosi boshqarmasi va Chad ko'li havzasi komissiyasi 1960-yillarda tashkil etilgan. Sinega va Gambiya daryolarini rivojlantirish komissiyalari 1970-yillarda tashkil etilgan. Yevropa hamjamiyatining Doiraviy Suv Direktivasi qonuni talablari asosida uning barcha 27 a'zo mamlakatlari tomonidan havzaviy boshqaruv rejaliari ishlab chiqilgan.

Suv resurslari havzaviy boshqaruvining rasman katta kun tartibiga qo'yilishi ikkinchi butunjahon suv forumida amalgalashirildi. Bungacha mazkur masalaga bag'ishlangan maxsus texnik seminar 1999-yilda Gaagada tashkil etilgan va uning tavsiyalari, jumladan, dastlabki tajribalar natijalari hamda havzaviy boshqaruv yondashuvi bo'yicha muhim munozaralar xulosalari taqdim etilgan. Jahonda suv resurslarining havzaviy boshqaruviga o'tish bo'yicha tahlillar 1999- va 2000-yillarda yakunlangan.

Shunday qilib, suv resurslarini havzaviy boshqarish – suv resurslarini boshqarishga zamonaviy yondashuv bo'lib, unda asosiy birlik sifatida daryo havzasi hududi qabul qilinadi. Bunda moliyaviy mexanizm – havza hududida suvdan foydalanganlik

(suv xizmatlari) uchun to'lov va suvni muhofaza qilish bo'yicha ustuvor tadbirlarni moliyalashtirish o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni kafolatlaydi.

Suv resurslarini boshqarishda havzaviy tamoyilni amalgalashuvni oshirishning majburiy shartlaridan biri – barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida moliyaviy qarorlar muhokamasi va ularning qabul qilinishida aniq demokratik jarayonlarni ta'minlash, havza bo'yicha suv siyosati va ekologik dasturlar to'g'risida ularni ishlab chiqish va amalgalashuvni barcha bosqichlarida jamoatchilikni hamda suv resurslari sifati va holati bo'yicha aholini xabardor qilib borishdan iborat.

Havzalarda suv resurslarini integral boshqarishga o'tishning boshlang'ich darajalari

Havza boshqaruvchilari suv resurslarini integral boshqarishga o'tishni qayerdan boshlash, kimga mo'ljallash va qaysi darajada o'tish kabi masalalarni o'z ichiga oluvchi integrallashgan yondashuvni tanlashi mumkin. Amalda harakatlarni qaysi manzilga yo'naltirishni topishning oddiy va oson yo'li kirishish darajasini tanlashdir:

1. Mahalliy daraja (sub-havzaviy reja, suv xo'jalik tumanlarida suv taqsimoti rejasi, mahalliy boshqaruv rejasi).
2. Joriy etish (amalgalashuvni oshirish) darajasi (havza yoki viloyat (tuman) miqyosidagi boshqaruv rejasi).
3. Qaror qabul qilish darajasi – "Qarorlar" – (suv resurslari masalalarida qarorlar, shartnomalar yoki qonunlar ishlab chiqish bo'yicha milliy va xalqaro jarayonlar).

Quyida Mekong daryosi havzasini misolida strategiyaning qanday qilib havzadagi turli darajalarni suv resurslarini integral boshqarish maqsadiga uyg'unlashtirgani ifoda etiladi. Amalda faoliyat ko'rsatayotgan Mekong daryosi havzaviy tashkiloti SRIBni "mahalliy", "amalgalashuvni oshirish" hamda "qarorlar"

bosqichlarida joriy etish bo'yicha faoliyat ko'rsatadi. Mekong daryosi havzasi bo'yicha mazkur maqsadlar "Mekong daryosi havzaviy komissiyasining suv resurslarini integral boshqarish bo'yicha 2010-2015 yillarga mo'ljalangan Strategik rejasi" doirasiga kiritilgan. Strategik rejaga kiritilgan eng asosiy boshqaruv prinsiplaridan biri – barcha manfaatdor tomonlar bilan "mahalliy", "amalga oshirish" hamda "qarorlar" darajalarida doimiy hamkorlik qilish etib belgilangan.

Mahalliy daraja:

Mekong daryo havzasi komissiyasi (MDHK) Laos, Tailand, Kambodja va Vyetnamdagi milliy Mekong qo'mitalari bilan yaqin hamkorlikda, ularning ishtirokini faollashtirish yo'nalishida faoliyat olib boradi. Mazkur komissiya ushbu faoliyatini manfaatdor tomonlarni o'qitish va xabardorligini oshirish yo'li bilan olib boradi. MDHKning manfaatdor tomonlar bilan aloqalar rejalarini keng qamrovli manfaatdor guruhlarning mahalliy va milliy darajalardagi ishtirokini ta'minlovchi yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, havzalarda suv resurslarini integral boshqarishga o'tishning boshlang'ich darajalari muayyan havzaning o'ziga xos tabiatini va xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan:

- havza bir mamlakat hududida yotadimi yoki bir necha mamlakatlar hududiga tegishlimi;
- rejalarshtrish va boshqaruvning ko'lamlari qanday (transchegaraviy, milliy, mahalliy);
- havzaviy boshqaruv tashkilotlarining rivojlanganligi darajasi;
- havzada taraqqiyotning erishilgan darjasini, masalan, iqtisodiy infratuzilmaviy jihatlardan;
- suv resurslarini boshqarishdagi asosiy muammolar, masalan, aholining ta'siri, sanitariya, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab

chiqish, sog'lomlashtirish, qurg'oqchilikdan muhofazalanganlik darajasi;

- ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va institutsional muhit kabi o'ziga xosliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Havzalarda suv resurslarini gidrografik prinsip asosida boshqarishning mohiyati

Suv xo'jaligi tashkilotining boshqaruvi ostidagi gidrografik prinsipning mohiyatini *jonli yaproq misolida* yaxshiroq tushunish mumkin. Yaproqda arteriyalarning tasviri va ularning *yakka bir organizm* ekanligini ko'rish mumkin.

- Agar yaproqning (suvning) manba boshqaruvi mazkur ma'muriy chegara doirasida tashkillashtirilgan bo'lsa, unda ularning *ish faoliyati bir-biriga muvofiqlashmay* qoladi.
- Suvni boshqarishni ma'lum bir ma'muriy chegara doirasida emas, balki *yakka bir gidrografik hududda* tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

Suv resurslarini boshqarish ierarxiyasi barcha darajasining bog'liqlik holati ikki prinsipga asoslanadi:

- ierarxiyaning barcha darajasida *suv yuqori mahsulorligiga erishish*;
- solishtirma suv yo'qotilishini *minimal* darajaga qadar kamaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 25-dekabrdagi 240-sonli qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasiga muvofiq sug'orish tizimi tarkibini *gidrografik tamoyilga moslashtirish* belgilandi.

Gidrografizatsiyada ekogidrologik barqarorlikka rioxva qilishga asoslangan quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- ❖ daryo va uning havzasasi (suv yig'iluvchi maydon) o'rtasida gi suv va tuz almashinuvi *minimumga* qarab intilishi lozim;

❖ aeratsiya zonasasi va sizot suvlari o'rtasidagi *suv va tuz al-mashinuvi nolga* qarab intilishi lozim;

❖ daryodan olinuvchi suvlarning hajmi tabiat talablariga (daryo deltasiga, suv-qirg'oq flora-faunasiga va boshq.) *zarar keltirmaydigan* darajada belgilangan limitdan oshmasligi kerak.

Jamoatchilik ishtirokining manfaatli jihatlariga quyidagi-lar kiradi:

- Barcha taraflar manfaati hisobga olinishi.
- Qabul qilingan qarorlarning oshkoraliqi.
- Konsensus (muzokaralar) sababli ziddiyatlar ehtimolining kamayishi.
- Ekspluatatsiya faoliyati ustidan umum nazorati.
- Doimiy o'zaro aloqa natijasida faoliyatning yaxshilanishi.
- Manfaatdor tomonlar bilimi va ko'nikmalarining ortishi.
- Davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch mustahkamlanib, ularning barqaror hamkorligiga zamin yaratilishi.

Birgalikda boshqarishga o'tish jarayoni

Rejallashtirilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida xabardor bo'lishi ta'minlanadigan manfaatdor tomonlar:

- *jamiyat nomidan suvni boshqarishda ishtirok etuvchi guruh* (*Suv iste'molchilari uyushmasi*);

- *davlat nomidan suvni boshqarishda ishtirok etuvchi guruh* (*Suv xo'jaligi tashkiloti*);

- *davlat va jamiyat birgalikda boshqaradigan guruh* (*kanal boshqarmasi*).

Zamonaviy suv xo'jaligi tizimi havzalardan boshlab, *magistral va II, III darajali kanallar, SIU sug'orish tarmog'i*, yoki kommunal va sanoat suvdan foydalanish tarmoqlari bilan birgalikda, fermerlar sug'orish dalasigacha bo'lgan ko'p pog'onali suv berish va tarqatish sxemasini o'z ichiga oladi.

Suv munosabatlari sohasidagi muammolar yechimiga

bugungi kunda suvdan foydalanish yoki suv iste'mol qilish jarayonlarining barcha manfaatdor ishtirokchilarini birlashtirish va ularning ehtiyojlarini muvofiqlashtirish va integrallashtirish asosidayechim topish mumkin. Buni anglashga asta-sekinlik bilan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida erishildi. Natijada dastlabki kompleks dasturlar paydo bo'ldi. Bunda rivojlan Tirish rejalari turli sohalar manfaatlarini ko'zlab – chet elda «havzalarning asosiy rejalari» deb ataladigan yoki sobiq ittifoq amaliyotida «Suv resurslaridan kompleks foydalanish va ularni muhofaza qilish sxemalari» havza suv resurslaridan kompleks foydalanish dasturlari ko'rinishida kompleks ravishda shakllangan. Bu «sxemalar»da u yoki bu havza mamlakatlar yoki zonalarining barcha sohalaridagi: gidroenergetika, irrigatsiya, suv ta'minoti va boshqa turli maqsadlardagi suvgaga bo'lgan ehtiyojlarni berilgan havza chegaralarida joylashgan suv resurslari hisobiga qondirish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Bunday sxemalar agar ular respublikalararo bo'lgan bo'lsa barcha respublikalar bilan, agar ular mahalliy xarakterda bo'lsa viloyat hokimiyatlari bilan muvofiqlashtirilgan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish uchun, shu paytgacha o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatib kelgan "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihasi (SRMFvaUMQ SHL)"dan foydalanishda davom etdilar. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, bir vaqtning o'zida SRMFvaUMQ SHL hamda Havzaviy rejalardan birgalikda foydalanish to'liq asoslangan va samaraliroq hisoblanadi. Chunki mazkur hujjatlarda asos si fatida qo'llaniladigan yondashuvlar va ularning mazmunida muayyan farqlar bilan birga o'zaro to'ldiruvchi muhim jihatlar mavjud. Quyida 3.1-jadvalda SRMFvaUMQ SHL hamda Havzaviy rejalarining qiyosiy tahlili keltirilgan.

SRMF va UMQ SHL va Havzaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan yondashuvlarning qiyosiy tahlili

3.1-jadval.

Ko'rsatkichlar	Havzaviy rejalashtirish	SRMF va UMQ SHL
Suv resurslarini bosh-qarish ko'lamlari va usuli	Havzalar, har qanday ko'lamdagi ikkinchi darajali havzalar, asosan suv resurslarining markazlashtirilmagan boshqaruvi	Milliy, asosiy daryo havzalari, davlat bosh-qaruvi, suv resurslari ning markazlashtirilgan boshqaruvi
Manfaatdor tomonlar-ning ishtiroki	Rejalarni ishlab chi-qishda qatnashadi	Sxemalarning asosiy elementlari bo'yicha xabardor qilinadi
Texnik yechimlar va institutsional loyihamar qo'llanishi	Har ikkala soha ham birdek ko'rildi	Texnik yechim ustunlik qiladi
Suv resurslarini bosh-qarishning ekologik jihatlari	Ustuvorlik beriladi	Boshqa jihatlar bilan teng asosda ko'rildi
Moliyaviy / iqtisodiy jihatlari	Har bir tadbir dara-jasida detallashtirish, moliyalashtirishning turli manbalari, iqtisodiy instrumentlar.	Barcha tadbirlar uchun yagona moliyalash-tirish, asosan davlat mablag'lari. Atrof-muhitni iflosantir-ganlik uchun to'lovlari - moliyalashtirishning instrumentlaridan biri

Yuqorida jadvaldan ko'rinish turibdiki, havzadagi SRMF va UMQ SHLning mavjudligi havzaviy rejalashtirishga to'siq bo'lmaydi, aksincha, uning yanada samaraliroq bo'lishi uchun asos hisoblanadi, o'z navbatida havzaviy rejalashtirish havzaning tasdiqlangan SRMF va UMQ SHL da ko'zlangan asosiy

maqsadlarga to'liqroq erishilishiga yordam beradi. Havzaviy reja tirik tezkor hujjat bo'lib, SRMFvaUMQ SHLga kiritilgan izlanishlar natijalari va raqamlarga asoslanishi mumkin. Havzaviy rejalar ni Markaziy Osiyo sharoitida, davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirish cheklangan va bunday hollarda ular markazlashmagan manbalardan foydalanish va yangi moliyaviy imkoniyatlarni topib amalga oshirish uchun qulay yondashuv hisoblanadi.

Havzaviy rejalar sharoitida qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar va ularning metodologik asoslari

Havzaviy rejalar ni ishlab chiqishda dunyo tajribasida ko'plab metodologik yondashuvlardan foydalaniladi. Quyida suv xo'jaligida keng qo'llanilayotgan va Havzaviy Rejalar ni ishlab chiqishda u yoki bu darajada qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodologik yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Bunday metodologik yondashuvlardan biri transchegaraviy monitoring bo'yicha baholash tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi muayyan havza sharoitida havzani mavjud siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sharoitlarda rivojlantirishni ko'zlagan Havzaviy Rejalar sharoitining optimal strategik variantlarini aniqlash va ishlab chiqish hisoblanadi. Bunda eng muhim prinsip taklif etilayotgan tadbirlarning tomonlar uchun o'zaro manfaatli bo'lischeni aniqlash hisoblanadi. Mazkur metodologik instrument odatda dolzarb masalalarni o'rganish va optimal qarorlarni qabul qilish yo'lida hamkorlikdagi daryo havza tashkilotlari tomonidan foydalaniladi. Bunda matritsa taraqqiyotning to'rt omili va suv resurslarining uch manbasidan tashkil topadi. Ta'kidlash lozimki, taraqqiyot omillari har bir alohida holatni e'tiborga olgan holda qo'shib borilishi mumkin.

Havzaviy Rejalar ni ishlab chiqishda u yoki bu darajada qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodologik yondashuvlarga yana bir

misol sifatida Strategik ekologik baholash (SEB) xizmat qilishi mumkin. Mazkur uslub asosiy instrument sifatida qator olimlar va mutaxassislar tomonidan muvaffaqiyatli qo'llangan. Jumladan: Phillips, D.J.H., Allan, J.A., Claassen, M., Granit, J., Jägerskog, A., Kistin, E., Patrick, M., and Turton A. 2008-yilda o'zlarining "The TWO Analysis: Introducing a Methodology for the Transboundary Waters Opportunity Analysis" asarlarida ko'rsatib berdilar. Shuningdek, mazkur uslub Jahon Bankining "World Bank (2009). Strategic Environmental Assessment-Improving Water Resources Governance and Decision Making: Case Studies, Paper No. 116., Washington, DC, USA" asarlarida ham yuqori samaradorlik bilan qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatib berilgan. Mazkur uslublar manfaatdor tomonlarni nafaqat tahlil, balki rejalashtirish bosqichlarida ham jalb etish imkonini yaratadi. Amalda SEB mo'ljallanayotgan faoliyatning va qabul qilinayotgan qarorlarning ustuvor ekologik jihatlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Ushbu uslubni qo'llab amalga oshiriladigan baholash jarayoni havzani rivojlantirish ssenariyalarini tahlil qilish, xavflarni baholash, ehtimoliy ekologik oqibatlarni modellashtirish va bashorat qilish, optimal tadbirlarni aniqlashda iqtisodiy hisoblar kabi qator turli instrumentlarni qo'llash imkonini beradi. SEB usulidan havzaviy rejani ishlab chiqish jarayonida asosan havzaning mavjud dolzarb ekologik xarakterdagi muammolarini aniqlash va optimal muhofaza tadbirlarini ko'rib chiqish uchun foydalaniadi.

Havzaviy Rejalarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan har bir metodologik yondashuv muayyan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Turli yondashuvlarning elementlari bir vaqtda ham foydalaniishi mumkin. Shunday qilib, Havzaviy Rejani ishlab chiqishda birlik asos sifatida suv manbasining gidrografik havzasini qabul qilinadi. Bunda eng muhim asos rolini havzadagi mavjud vaziyatni aniqlash bo'yicha bajarilgan kompleks baholash natijalari

o'ynaydi. Havzaviy rejalashtirish jarayonida manfaatdor tomonlar va jamoatchilikning jalb etilishiga katta e'tibor qaratiladi.

Havzaviy boshqaruv tizimini shakllantirishda asosiy talablar:

- Siyosiy xohish, yuqori darajadagi qo'llab-quvvatlash va suv iste'molchilar o'rtaSIDA dialogning o'rnatilishi;
- Havzaviy boshqaruv milliy suv qonunchiligi va rasmiy qarorlar hamda xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinishi;
- Havzaviy tashkilotlar uch o'lchamli doirada faoliyat ko'rsatishi: atrof-muhit holati saqlanishi, institutsional majburiyatlar (rollar va majburiyatlar) hamda boshqaruv mexanizmlari ning belgilanishi.

Siyosiy xohish va havzaviy boshqaruv tizimlari

Siyosiy muammolar suv resurslarini boshqarish samardorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun havza boshqarmalari milliy darajada qabul qilish jarayonlarida "kuchli" ovozga ega bo'lishlari kerak. Ya'ni ular tabiiy resurslarni boshqarish masalalarida vazirliklar va davlat qo'mitalari bilan bevosita aloqa liniyasiga ega bo'lishlari lozim. Yuqori darajadagi hokimiyat bilan bevosita aloqalar boshqaruvni rejalashtirish va iqtisodiy taraqqiyot masalalarida barqaror bo'lishga asos yaratadi. Yuqori darajada qo'llab-quvvatlanish sharoiti – havzaviy boshqaruv tizimi uchun zarur bo'lgan qonuniy doiralarni, institutsional boshqaruv tuzilmalarini shakllantirish uchun juda muhim hisoblanadi.

Siyosiy xohish bo'lgan joylarda tegishli qarorlar qabul qilinishi, qonuniy, moliyaviy vositalar aniqlanishi hamda suv resurslarini boshqarish bo'yicha barqaror jamoat tashkilotlari tashkil etilishi imkonи tug'iladi. Siyosiy xohish bilangina hatto hokimiyat o'zgarishi tufayli bo'ladigan fuqarolik tartibsizliklari sharoitida

ham suv resurslari boshqaruvi bo'yicha qabul qilingan qoidalar va tartiblar hamda tashkilotlarning faoliyati samarali bo'lishi ehtimoli ortadi. Siyosiy xohishning muhimligi – qaror qabul qiluvchilar bilan ularga suv resurslarining integral boshqaruvi nima ekanligini va nima uchun bunday yuqori darajadagi qo'llab-quvvatlov muhim ekanligini tushuntirish maqsadida ishslash muhimligini anglatadi. Biroq siyosiy rahbariyat zarur, agar suv resurslarini boshqarish butunlay bir tomonlama, faqat yuqoridan pastga bo'lib, manfaatdor tomonlar ishtiroti ta'minlanmasa, integrallashgan yondashuv ishlamaydi. SRIB barcha manfaatdor yoki suv resurslari bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar ta'siriga tushadigan bo'lsa havzaviy boshqaruvda ishtirot etishlarini, mazkur masaladagi ma'lumotlar bepul va ochiq almashinuvini taqozo etadi. Eng maqbul yechimlarni topishda ma'lumotlarning ochiqligi juda muhim hisoblanadi.

Gorizontal va vertikal integratsiya

Integratsiya bo'yicha yondashuv ham gorizontal, ham vertikal bo'lishi lozim. Vertikal integratsiya hokimiyatning barcha darajalari bo'yicha amalga oshirilsa, gorizontal integratsiya turli suv iste'molchilarini va suv resurslarini boshqarish qarorlari ta'siriga tushuvchi sub'ektlar bo'yicha amalga oshiriladi. Gorizontal integratsiyaning asosiy elementi bu o'z faoliyat yo'nalishlarida suv resurslariga ta'sir etuvchi vazirliklar, jumladan moliya, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, transport, energetika va boshqalar hamda ijtimoiy va ekologik majburiyatlarga ega bo'lgan vazirliklar, jumladan Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasini o'zaro biriktirish hisoblanadi. Har qanday havza hududida albatta o'zaro tafovutlashuvchi suv bo'ladi. Masalan, ichimlik suvi ta'minoti, sug'orma dehqonchilik, energetika, ekologik talablar, rekreatsiya, gidroenergetika, shuningdek

suv resurslari ifloslanishi yoki rejimini o'zgartirish bilan bog'liq talablarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Vazirliklararo muvofiqlashtiruvchi kengashlar yoki qo'mitalarning tashkil etilishi foydali bo'ladi. Ammo bunday kengashlarda vazirliklar faqat yuqorida tushirilgan ko'rsatma va topshiriqlar (Prezident yoki Vazirlar Mahkamasi qarori) asosidagina xohish bilan sa-marali ishlashlari mumkin. Shuning uchun bunday vazirliklararo muvofiqlashtiruvchi kengashlar tuzilgan va unda har bir ishti-rokchi, jumladan hukumatda yuqori mansabdon ijrochi va havza-viy tashkilotlar, mahalliy hokimiyat hamda suvdan foydalanuv-chi tashkilotlarning vazifalari va majburiyatlari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Muammolar bir necha mamlakatlarga ta'sir etgan hollarda esa transchegaraviy havzalardagi suv muammolarini muvofiqlashtirish uchun mamlakat rahbarlarining sammiti yoki konferensiyasini o'tkazish talab etilishi mumkin.

3.2 Suv resurslarini havzaviy boshqarishning huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik asoslari va imkoniyatlari

Havza darajasida suv resurslarini boshqarishning huquqiy asoslari mamlakatlarning asosiy suv qonunchiligidida belgilab beriladi. Jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv qonun-chiligi asosini Suv Kodekslari tashkil etadi. Har bir suv kodeksida u yoki bu darajada suv resurslarini integral boshqarish va havza-viy rejalashtirish imkoniyatlari ko'zda tutilgan. Quyida 3.2-jad-valda Markaziy Osiyo davlatlari suv kodekslarida suv resursla-rini integral boshqarish va havzaviy rejalashtirish elementlari ifodalananishining qiyosiy tahlili keltirilgan.

3.2-jadval

Markaziy Osiyo davlatlari suv kodekslarida suv resurslarini integral boshqarish va havzaviy rejalashtirish elementlari

SRIB va Havzaviy rejalashtirish prinsiplari	Qozog'iston Suv kodeksi (09.07.2003 o'zgart. 25.01.2012)	Qirg'iziston Suv kodeksi (12.01.2005 o'zgart. 10.10.2012)	Tojikiston Suv kodeksi (yangi tahrirda 02.04.2020)	Turkmaniston Suv Kodeksi (15.10.2016 o'zgart. 5.01.2018, 8.11.2028, 5.10.2019)	O'zbekiston "Suv va suvdan foydalinish to'g'risida"-gi qonuni (6.05.1993 o'zgart. (25.12.2009)
Barcha turdag'i suv resurslari qamrovi (davlat suv fondi)	I bob, 4-modda	I bob, 4-modda	I bob, 5-6-moddalar	I bob, 5, 7-moddalar	I bob, 3, 4-moddalar
Jamoatchilik ishtiroki, gender jihatlari	I bob, 9-modda; V bob, 33-modda; XII bob, 63-modda	I bob, 6-modda	III bob	II bob, 18-modda, 19-modda	III bob, 10-modda
Gorizontal va vertikal muvoqiflashtirish	V bob, 33-modda; VII bob, 40-modda; IX bob, 48-49-moddalar	II bob, 7-10-moddalar	II bob	II bob, modda 11-17, IV bob, 22-modda	II bob, 5, 6, 7-moddalar III bob, 8, 9-moddalar
Suv resurslari va havzalarni boshqarish, rejalashtirish (suv resurslari dan mukammal foydalinish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihasi, suv xo'jaligi balansi)	V bob, 34-modda; VII bob, 40-43-moddalar; VIII bob, 44, 47-moddalar	I bob, 5-modda; II bob, 9, 10-moddalar; III bob, 20-modda	II bob, 20-24 moddalar; IV bob	II bob, 15 modda; IV bob, 23-24-moddalar, IX bob, 53-modda	XXVI bob, 108-112-moddalar

Qozog'iston

Qozog'iston Respublikasi Suv kodeksiga Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib SRIB, Havzaviy Kengash va Havzaviy rejalashtirish tushunchalari kiritilgan. Suv kodeksi asosiga boshqaruvning havzaviy prinsipi olingan, ya'ni boshqaruv gidrografik prinsip asosida amalga oshiriladi. Suv kodeksida Havzaviy kengashlarni tashkil etish va Havzaviy shartnomalarni tuzishga katta e'tibor qaratilgan. Suv kodeksi bandlarining bajarilishi davlat moliyalashtirish dasturiga kiritilgan. 2008-yildan boshlab SRIB prinsiplarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar davlat byudjeti hisobiga moliyalashtiriladi.

Qozog'iston Suv kodeksiga SRIB elementlari va havzaviy rejalashtirishga oid bandlar 2009-yil 9-iyuldan va keyinroq 2012-yil 25-yanvardan o'zgartirishlar bilan kiritilgan. Jumladan: SRIB elementlari I bob, 1-moddada (Boshqaruvning havzaviy prinsipi – suv resurslarini daryolar, ko'llar va boshqa suv ob'yeektlari havzalari doirasida ma'muriy-hududiy birlklarga taqsimotini amalga oshirishda suv fondi boshqaruvi gidrografik ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilishini bildiradi) o'z aksini topgan. 9-moddada (I bob) esa suv qonunchiligi prinsiplari keltirilgan:

- aholining suv bilan adolatli va teng ta'minlanishi;
- suv fondidan foydalanishda va uning muhofazasida ochiqlik va jamoatchilikning jalb etilishi;
- Qozog'iston Respublikasi suv fondining holati to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi.

Havzaviy rejalashtirish 34- va 40-moddalarda o'z aksini topgan. Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvining asosiy prinsiplari:

- suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida havzaviy boshqarish;
- gidrografik havzaning suv resurslarini havzaviy prinsip asosida kompleks boshqarish;

- suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida suv munosabatlari sub'ektlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish...;
- tegishli havza doirasida taraqqiyotning istiqbolli reja va das-turlari asosida suv ob'yektlarining muhofazasi va ularni qayta tiklash bo'yicha havzaviy shartnomalarni tayyorlash va amalga oshirish;
- Havzaviy kengash ishini tashkil etish, Havzaviy kengash a'zolari bilan havza doirasida suv fondidan foydalanish va uni muhofaza qilish masalalari bo'yicha maslahatlashuvlarni tashkil etish, Havzaviy kengash tomonidan tayyorlangan tavsiyalar tahlili, ular asosida tadbirlarni amalga oshirish, Havzaviy kengash tavsiyalarini manfaatdor tomonlar davlat organlari va suvdan foydalanuvchilarga yetkazish.

42-modda suv ob'yektlarini qayta tiklash va muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan. Jumladan, unda havzaviy shartnomalar tomonlarining muayyan suvni muhofaza qilish tadbirlarini (ularni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilgan hol-da) amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kuchlar va resurslari bilan ishtirok etishi bo'yicha majburiyatlari keltirilgan.

43-moddada Havzaviy kengash – muayyan havza doirasida tashkil etiladigan maslahat organi sifatida talqin etilgan. 45-moddada Suv xo'jaligi balanslari va 46-moddada Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihasi (SRMFvaUMQ SHL) mohiyati yoritilgan. Jumladan, SRMFvaUMQ SHL suv resurslarini integral boshqarish masalalarida qarorlar qabul qilish maqsadida ishlab chiqilishi ko'rsatilgan.

Qirg'iziston

Qirg'iziston Suv kodeksida suv resurslarini havzaviy yondashuv asosida boshqarish ko'zda tutilgan. Kodeksda har bir Bosh havzada tegishli Havzaviy suv xo'jaligi ma'muriyati va

Havzaviy kengashlar tuzilishi belgilangan. Shuningdek, mammalakatda faoliyati havzalarining gidrogeografik chegaralarini aniqlash, Milliy suv strategiyasi loyihasini ishlab chiqish, qonun hujjatlari loyihalarini va boshqa tegishli hujjatlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan Milliy kengash ham tuzilgan.

Qирғизистон Сув кодексінде SRIB және хавзавија рејаласхтириш элементтерінің ақс еттіріліші (Qирғизистон Сув кодексі, 2005-йыл 12-январ, 2012-йыл 10-октябрда кірілгандың озgartіріштері мен бірлескенде):

- V bob: Сув ресурсларини бoshqarish және хавзавија yondashuv:

- «Хавзавија yondashuv – сув ресурсларидан foydalanish және үларни muhofaza qilish jarayonini boshqarish бosh хавзалар doirasida gidrografik прinsip асосынан amalga oshirilishini bildiradi...»;
- «Har bir бosh хавзада tegishli хавзавија сув ма'muriyatı және хавзавија kengashlar сув ресурсларини boshqarishning muayyan jihatlari uchun mas'uldirler...».

- V bob: Сув ресурсларини boshqarish prinsipleri:

- Ifloslaganlik uchun to'lov prinsipi;
- Real kafolat prinsipi: сув исте'molchilarining huquqlari va yuridik himoyasi bo'yicha real kafolatning ta'minlanishi;
- Ochiqlik prinsipi: сув ob'yektlari және сув ресурсларining holati haqidagi ma'lumotlar jamoatchilik vakillari uchun ochiq bo'lishi lozim.

- X bob: Хавзавија рејаласхтириш. Хавзавија kengashlar және ularning vakolatlari:

- Хавзавија kengashlarning vazifalari – Хавзавија rejani ishlab chiqish... dan iborat; Хавзавија reja quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- o havza ichidagi suv resurslari miqdori va sifatini baholash;
 - o aholi va ekologik ehtiyojlar uchun suvgaga bo'lgan talabni aniqlash;
 - o investitsion va moliyaviy talablarni, ularning ehtimoliy manbalarini aniqlagan holda baholash;
 - o suvdan foydalanish bo'yicha ustuvorliklarni hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtaida suvdan foydalanuvchilarning huquqlari ehtimoliy cheklanishlarini belgilash.
 - Havzaviy kengash faoliyati bo'yicha ish yuritish qoidalari loyhalarini tayyorlash...;
 - Bosh havza doirasida suv sektorida faoliyatlarini muvofiqlashtirish;
- «...Davlat suv ma'muriyati havzaviy rejalarini ishlab chiqish bo'yicha jarayonlarni belgilaydi...».
- «...Davlat suv ma'muriyati va tegishli havzaviy suv ma'muriyatlarini o'z vazifalarini bajarish davomida tegishli havzaviy rejalarini amalga oshiradilar...».
- «...Havzaviy rejalar tegishli havzaviy kengashlar tomonidan har besh yilda qayta ko'rib chiqiladi...».

Tojikiston

Tojikistonda ham suv qonunchiligi asosini Suv kodeksi tashkil etadi, biroq shu bilan birga suv bilan bog'liq alohida masalalar 50 dan ortiq qonunlarda o'z aksini topgan. Tojikiston Respublikasi Suv kodeksiga 2012-yilda va yangi tahrirda 2020-yilda SRIB bilan bog'liq qo'shimchalar kiritilgan. Jumladan, Suv kodeksiga «Suv resurslarini integral boshqarish», «Suv resurslarining havza tashkiloti», «Milliy suv kengashi», «Havzaviy suv kengashi» kabi tushunchalar kiritilgan.

Tojikiston Suv kodeksida SRIB va havzaviy rejorashtirish elementlarining aks ettirilishi (Tojikiston Respublikasi suv kodeksi, 2020-yil 2-aprelda kiritilgan o'zgartirishlar bilan):

- 1-modda: Asosiy tushunchalar:

- Suv resurslarini integral boshqarish – bu suv (yer osti, yer usti va qaytgan) va yer resurslari hamda ular bilan bog'langan boshqa tabiiy resurslarning muayyan gidrografik chegaralarda hisobga olinishi va o'zaro ta'siriga asoslangan, turli tarmoqlarning hamda suv va tabiiy resurslardan foydalanishning turli ierarxiya darajalari manfaatlarini inobatga oluvchi, ularni barqaror taraqqiyot va tabiatni muhofaza qilish yo'lida qarorlar qabul qilish, moliyalashtirish, suv resurslarini muhofaza qilish va rivojlantirish jarayoniga jalb etuvchi boshqaruv tizimi;

• Suv resurslarining havza tashkiloti – bosh havza chegaralarida suv resurslarini boshqarish uchun mas'ul bo'lgan, suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish jarayonini tartibga soluvchi vakolatlari davlat organlarining hududiy tuzilmasi. Bu yerda havza tashkilotlari vakolatlari davlat tashkiloti sifatida talqin etilgan;

• Milliy suv kengashi – Tojikiston hukumati qoshidagi suv resurslarini rejalashtirish, boshqarish, foydalanish va muhofaza qilish yo'nalishida vazirlilik va idoralar, davlatning boshqa organlari hamda nodavlat tashkilotlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha maslahat organi;

• Havzaviy suv kengashi – muayyan suv havzasida suv resurslarini rejalashtirish, boshqarish, foydalanish va muhofaza qilish yo'nalishida davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi havzaviy maslahat organi;

- 21-modda: Suv resurslarini havzaviy boshqarish.

- Suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi boshqarishning havzaviy ... prinsiplariga asoslangan holda Tojikiston Respublikasi hukumati, joylardagi ijro hokimiyati organlari hamda suv resurslaridan

foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha davlatning mutasaddi tashkilotlari tomonidan qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

- 38-modda. Suv resurslarini boshqarish bo'yicha havzaviy reja.

- xo'jalik ichki suvdan foydalanish rejalar – suv bilan ta'minlovchi tashkilot bilan kelishgan holda, muayyan hudud ma'muriy jihatdan bo'ysunuvchi joylardagi ijro hokimiyati organlari tomonidan;

- tuman (havzaviy) ahamiyatiga ega bo'lgan tizimlar bo'yicha
- muayyan hudud ma'muriy jihatdan bo'ysunuvchi joylardagi ijro hokimiyati organlari tomonidan;

- tumanlararo, viloyat (havzaviy) ahamiyatiga ega bo'lgan tizimlar bo'yicha – mos ravishda suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha davlatning mutasaddi organlari va ularning tashkilotlari tomonidan joylardagi qishloq xo'jaligi organlari bilan kelishgan holda.

-30-modda (IV bob): Suv resurslaridan foydalanishni rejashtirish:

- Suv resurslaridan foydalanishni rejashtirish aholining ichimlik va xo'jalik-maishiy ehtiyojlarini birinchi navbatda qondirishni, suv ob'ektlarini muhofaza qilishni va ularning zararli ta'sirini oldini olishni hisobga olgan holda suv resurslairni suvdan foydalanuvchilar o'rtasida ilmiy asoslangan taqsimlanishini ta'minlashi kerak.

- Suv resurslaridan foydalanishni rejashtirishda davlat suv kadastro, suv xo'jaligi balanslari, suv resurslaridan mukammal foynananish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihasi hamda davlat suv fondi manbalaridan suv olish limitlari ma'lumotlari hisobga olinadi.

Tojikiston Respublikasi Suv kodeksiga asosan mamlakatda tarkibiga faoliyatlari havzadagi mavjud suv resurslarini rejlashtirish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan turli tashkilotlar va korxonalar vakillari kiruvchi Havzaviy suv kengashlari tuziladi. Asta-sekin barcha havzalar bo'yicha suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning havzaviy rejalarini ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan.

Turkmaniston

Turkmaniston Respublikasining «Suv kodeksi» – Turkmanistonda suv-ekologik tartibotni shakllantirish va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashishni ko'zda tutadi.

Kodeksda suv resurslarini havzaviy prinsip asosida boshqarish to'g'risidagi qoidalar bevosita ko'rsatilgan, biroq suv xo'jaligi balanslari hisoblarini ularning holati va foydalanilishi darajasi bo'yicha daryolar havzalari kesimida yuritish belgilangan. Shuningdek, mamlakatda suv fondini saqlash bo'yicha asosiy suv xo'jaligi va suvni muhofaza qilish tadbirlarini belgilab beruvchi «Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilishning Bosh va Havzaviy (hududiy) shakliy loyihalarini tuzish bo'yicha majburiyatlar belgilangan – (SRMFvaUMQ SHL). Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihalari aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining suvgaga bo'lgan istiqbolli talablarini qondirish, suv resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlash, suv resurslarini muhofaza qilish va ularning salbiy ta'sirlari oldini olishga yo'naltirilgan. Kodeksga ko'ra, jamoatchilik Turkmaniston qonunchiligi asosida davlat tashkilotlari tomonidan suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish jarayonida hamkorlik qilishi va bevosita ishtirok etishi mumkin.

Turkmaniston Respublikasi «Suv kodeksi»da SRIB va havzaviy rejalarhtirish elementlarining aks ettirilishi (2016-yil qabul qilingan, 2018 va 2019 yillarda to'ldirilgan):

- 23-modda (IV bob): Suv xo'jaligi balanslari: Suv xo'jaligi ob'ektlari havzalari va suv xo'jaligi zonalari bo'yicha mavjud suv resurslari hisobi va suvdan foydalanish darajasini baholovchi suv xo'jaligi balanslari...
- 24-modda (IV bob): Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihalari: Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilishning Bosh va Havzaviy (hududiy) shakliy loyihalari suv fondini saqlash bo'yicha asosiy suv xo'jaligi va suvni muhofaza qiluvchi tadbirlarni belgilab beradi...

O'zbekiston

O'zbekistonda ham suv qonunchiligi asosini «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonun tashkil etadi, biroq shu bilan birga suv bilan bog'liq alohida masalalar 50 dan ortiq qonunlarda, shuningdek mamlakat Prezidentining qator farmonlarida va boshqa qonun osti hujjatlarda o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni 1993-yil 3-mayda qabul qilingan va unga 2009-yil 25-dekabrda qator muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Jumladan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunga «Suv iste'molchilari uyushmasi», «Transchegaraviy suv ob'yeqtari», «Transchegaraviy suvlar», «Havzaviy suv kengashi» kabi tushunchalar kiritilgan.

Ushbu Qonunning maqsadi suvgaga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning asosiy vazifalari aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan

saqlash, suvlarning zararli ta'siri oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv ob'yektlarining holatini yaxshilash, shuningdek suvgaga doir munosabatlardan sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunida SRIB va havzaviy rejalashtirish elementlarining aks ettirilishi:

- 8-modda. Suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi:

- Suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hamda boshqa davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi;

- O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (yer usti suvlari), O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (yer osti suvlari) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi yer qa'rini geologik o'rganish, sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektor-da ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (yer osti issiq suvlari va mineral suvlari) o'z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hisoblanadi.

- 10-modda. Suvlardan va suv ob'yektlaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalgalashishda suv iste'molchilari uyushmalari, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning ishtiroki:

- Suv iste'molchilari uyushmalari, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari o'z ustavlariga muvofiq hamda fuqarolar

suvlardan va suv ob'yektlaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadi. Davlat organlari bu tadbirlarni o'tkazishda suv iste'molchilari uyushmalari, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek fuqarolarning takliflarini hisobga olishi mumkin.

- 13-modda. Suvlarning va suv ob'yektlarining holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlar hamda boshqa ob'yektlar quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, ta'mirlanadigan va tiklanadigan joylarni belgilash:

- Suvlarning va suv ob'yektlarining holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, inshootlar hamda boshqa ob'yektlar quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, ta'mirlanadigan va tiklanadigan joylarni belgilash mazkur suv ob'yektlaridan foydalanuvchi tashkilotlar, shuningdek boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan qonun hujjatlariga muvofiq kelishib olinadi.

- 18²-modda. Suv iste'molchilari uyushmalari:

- Suv iste'molchilari uyushmalari asosan gidrografiya prinsipiiga yoki suv resurslarini oqilona boshqarish va ular dan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan boshqa shartlarga muvofiq tashkil etiladi;

• Fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan holdagi dehqon xo'jaliklari, shuningdek yuridik shaxs bo'lgan boshqa suv iste'molchilari suv iste'molchilari uyushmalarining muassislar bo'lishi mumkin;

• Fermer va dehqon xo'jaliklari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek boshqa suv iste'molchilari suv iste'molchilari uyushmalarining a'zolari bo'lishi mumkin;

• Suv iste'molchilari uyushmasi va uning xizmat ko'rsatish zonasida joylashgan a'zolari, shuningdek boshqa qishloq va

suv xo'jaligi organlari hamda o'zga yuridik va jismoniy shaxslar o'rtaсидаги suvga doir munosabatlar shartnoma asosida tartibga solinadi.

- 32¹-modda. Suv iste'molchilarining huquqlari: Suv iste'molchilari:

- berilayotgan suvning miqdori va sifatini tekshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, suv iste'moli to'g'risidagi shartnoma bo'yicha olinmay qolgan suv uchun kompensatsiya talab qilish;
- suv resurslarini boshqarishga oid qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish;
- o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda suv olish limitlari ni o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish;
- suvga doir munosabatlar sohasidagi o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiyl manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashish;
- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi, shu jumladan belgilangan suv olish limitlari va suv berish rejimiga muvofiq suv olish huquqining buzilishi tufayli yetkazilgan zararning o'rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish huquqiga egadir.
- Suv iste'molchilari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

- 108-modda. Suvdan foydalanish va uni muhofaza etishni rejalashtirish:

- Suvdan foydalanishni rejalashtirish birinchi navbatda aholining ichimlik suviga bo'lgan va maishiy ehtiyojlarini qondirishni, suvning suvdan foydalanuvchilar o'rtaсидада ilmiy asosda taqsimlanishini, suvni muhofaza qilishni va suv yetkazadigan

zararli ta'sirning oldini olishni ta'minlashi lozim;

- Suvdan foydalanishni rejalshtirish chog'ida davlat suv kadastridagi ma'lumotlar, suv xo'jaligi balanslari, suvdan kompleks foydalanish va suvni muhofaza qilish shakliy loyihalari ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

- 110-modda. Suv xo'jaligi balanslari:

- Suvning mavjud miqdorini va undan foydalanish darajasini baholash uchun daryolar havzalari, havza irrigatsiya tizimlari hamda iqtisodiy mintaqalar bo'yicha suv xo'jaligi balanslari tuziladi;

- Suv xo'jaligi balanslari suvlardan foydalanishni tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida tuziladi hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan umumlashtiriladi;

- 111-modda. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihalari:

- Suvdan kompleks foydalanish va uni muhofaza qilishning bosh va havza (hududiy) jadvallari aholining va iqtisodiyot tarmoqlarining suvgaga bo'lgan istiqboldagi ehtiyojlarini qondirish uchun, shuningdek suvni muhofaza qilish va suv yetkazadigan zararli ta'sirlarning oldini olish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy suv xo'jaligi tadbirlarini va boshqa tadbirlarni belgilab beradi;

- Suvning mavjud miqdorini va undan foydalanish darajasini baholash uchun daryolar havzalari, havza irrigatsiya tizimlari hamda iqtisodiy mintaqalar bo'yicha suv xo'jaligi balanslari tuziladi.

- 112-modda. Suvni va undan foydalanishni davlat yo'li bilan

hisobga olish, davlat suv kadastrini yuritish, suv xo'jaligi balanslarini tuzish hamda suvlardan kompleks foydalanishning va uni muhofaza qilishning jadvallarini ishlab chiqish tartibi:

- Suvni va undan foydalanishni davlat yo'li bilan hisobga olish, davlat suv kadastrini yuritish, suv xo'jaligi balanslarini tuzish hamda suvdan kompleks foydalanishning va uni muhofaza qilishning jadvallarini ishlab chiqish ishlari byudjet hisobidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab beradi-gan tartibda bajariladi.

O'zbekiston iqlimining qurg'oqchil sharoiti va suv resurslarning cheklanganligi mamlakatda suv resurslarini boshqarish tizimini suv resurslarini integral boshqarish va ulardan foydalanishni joriy etish asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Ushbu maqsad yo'lida O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bo'lgani kabi suv sektorida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda suv resurslarini suv iste'molchilarining ham qaror qabul qilishda faol ishtirok etishini ko'zda tutuvchi havzaviy yondashuv asosida boshqarish prinsipi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yildagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»-gi 290-sonli va "Suv xo'jaligini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi 320-sonli Qarorlari asosida boshlandi. Natijada respublikada suv xo'jaligini boshqarish tizimi qayta tashkil etildi. Suv xo'jaligi tizimining quyi bo'g'inida suv iste'molchilarining o'z-o'zini boshqarishiga asoslangan va o'z tarkibiga turli suv iste'molchilarini olgan 1500 dan ortiq suv iste'molchilari uyushmalari (SIU) tashkil etildi.

Qishloq va suv xo'jaligi sohalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, jumladan qonunchilik bazasi rivojlantiriliishi, katta maydonlardagi sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doy

yetishtirishga o'tilganligi (natijada yil davomidagi suv iste'moli va suv resurslarini boshqarish rejimlarining o'zgarishiga erishilganligi), qishloq xo'jaligida diversifikatsiya va nisbatan kam suv talab etuvchi ekinlarni yetishtirishga o'tilganligi (so'nggi yillarda sug'orma dehqonchilikdagi paxta yetishtiriladigan maydonlarning ulushi 30%dan oshmaydi, qolgan maydonlarda esa don, oziq-ovqat va chorvachilik sektori uchun yem-xashak yetishtirilmoqda), sug'orishning suv tejamkor texnologiyalarini rivojlanish va boshqalar mamlakatda barcha maqsadlar uchun manbalardan olinadigan suv hajmini 1980-yillardagi ko'rsatkich – 64 km³/yildan 52 km³/yilgacha, ya'ni 20 foizgacha kamaytirish imkonini berdi. Natijada O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish tizimi sezilarli darajada o'zgardi.

Shu bilan birga, o'tish davrining qiyinchiliklari va muammo-lari sezilib turibdi. SIU aksariyat holatlarda suvdan foydalanish rejalarini ishlab chiqish bo'yicha yetarli tajribaga ega emas. Suv iste'molchilarining katta qismida suv o'lhash vositalari yo'q. Suv iste'molchilarida suv resurslaridan tejaml foydalanish bo'yicha manfaatdorlik darajasi past. Shuning uchun sohada islohotlar kengaytirilmoqda. Suvdan foydalanishning huquqiy asoslar doimiy ravishda rivojlantirilmoqda. Jumladan, 2018-yil 17-aprel-da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5418-sonli "Qishloq va suv xo'jaligi sohalarida davlat boshqaruvini tubdan yaxshilash choralari to'g'risida"gi Farmoni hamda 3672-sonli "Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur farmon va qaror suv xo'jaligi sektoriga tegishli bo'lgan barcha masalalarni, jumladan suv resurslarini boshqarish, SIUlar tuzilmasi va faoliyatini takomillashtirish masalalarini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasida suv siyosatining istiqboldagi yo'naliishlari quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan:

- transchegaraviy daryolar oqimini qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda barqaror boshqarish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish;
- samarali foydalanishga alohida urg'u bergen holda suv resurslarini integral boshqarishni keng joriy etish;
- suv isrofini kamaytirish maqsadida irrigatsiya va suv ta'minoti tizimlarini rekonstruksiya qilish va rivojlantirishni davom ettirish;
- sug'oriladigan maydonlarda suvni ko'p talab etuvchi ekinlarni qurg'oqchilikka chidamli ekinlar bilan almashtirish;
- sug'orma dehqonchilikda progressiv texnologiyalarni joriy etish;
- kommunal-ro'zg'or xo'jaligida va sanoat korxonalarida kansuvli va suvsiz texnologiyalar va aylanma suv ta'minoti tizimlarini joriy etish;
- kollektor-drenaj suvlarini utilizatsiya qilish;
- suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish va irrigatsiya tizimlari foydali ish koeffitsientini oshirish.

Suv xo'jaligining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari tahlli shuni ko'rsatadi, mintaqadagi barcha mamlakatlarda u yoki bu darajada SRIB, suv resurslarini rejorashtirish va boshqarish jarayonlariga havzaviy rejorashtirish va manfaatdorlarni jalb etish elementlari mavjud. Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, mamlakatlarda qonunchilik bazasi doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda va bunda SRIB va havzaviy rejorashtirish masalalariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

O'z o'zini nazorat qilish savollari:

1. Suv resurslarini havzaviy boshqarishning mohiyati;
2. Suv resurslarini havzaviy boshqarishning afzalliklari;
3. Suv resurslarini integral boshqarish va uning mohiyati;
4. Suv resurslarini integral boshqarishning instrumentlari;

5. Suv resurslarini havzaviy boshqarish;
6. Havzalarda suv resurslarini integral boshqarishga o'tishning boshlang'ich darajalari;
7. Havzalarda suv resurslarini gidrografik prinsip asosida boshqarishning mohiyati;
8. Birgalikda boshqarishga o'tish jarayoni;
9. Havzaviy boshqarish va Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofaza qilish shakliy loyihasining o'xshashliklari va farqlari jihatlari;
10. Havzaviy boshqaruv tizimini shakllantirishda asosiy talablar;
11. Havzaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar va ularning metodologik asoslari;
12. Siyosiy xohish va havzaviy boshqaruv tizimlari;
13. Gorizontal integratsiya;
14. Vertikal integratsiya.


IV bob. Havzaviy rejalarini ishlab chiqish. Suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejelashtirish sikli

4.1 Suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejelashtirish jarayoni: Rejelashtirish sikli

Oldingi boblarda ta'kidlanganidek, hozirgi sharoitda suv bilan bog'liq muammolarning yechimiga integrallashgan yondashuvga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi reallik sharoitlarida suv muammolariga bir vaqtning o'zida ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini va ta'sirlarini qamrab olgan holda tahlil qilmasdan yechim topishning imkonи yo'q. Havzaviy rejelashtirish Suv resurslarini integral boshqarishning (SRIB) muhim elementi hisoblanadi va u suv resurslarini boshqarishning turli darajalarida, shu jumladan transchegaraviy darajada ham qo'llanishi mumkin. Havzaviy rejalarни ishlab chiqish va tatbiq etish suv xo'jaligi (havzaviy) tashkilotlariga mavjud suv xo'jaligi vaziyatini kompleks tahlil qilish va baholash hamda havza doirasida suv resurslaridan foydalanishning yaqin (2-3 yilga), o'rta (5-7 yilga) va uzoq (10-15 yilga) kelajakka mo'ljallangan rejelashtirishni amalga oshirish imkonini beradi. Havzaviy boshqarish jarayonida havzaning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi – iqtisodiy rivojlanish, demografik bashoratlar, iqlim o'zgarishining o'sib borayotgan ko'rsatkichlari va boshqa omillar hisobga olinadi. SRIB rejasini ishlab chiqish rejalarning eng hayotiy va samarali bo'lishiga imkon yaratuvchi asosiy tamoyillarga amal qilishni talab etadi. Bunda asos sifatida rejelashtirish jarayoni yoki boshqacha qilib aytganda rejelashtirish sikli xizmat qiladi. Shunga o'xshash rejelashtirish sikllari har qanday boshqaruv tizimlarida, havzani boshqarish yoki alohida korxonani boshqarish tizimi bo'lishidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Rejalashtirish sikli asosida ishlab chiqilgan SRIB rejasi mamlakat va davlatlararo darajadan boshlab toki har qanday daryo havzasi darajasigacha bo'lgan turli darajalarda qo'llanilishi mumkin.

Quyida keltirilgan sxemada ko'rsatilganidek (4.1-rasm), SRIB uchun tuzilgan rejalarishning zamonaviy sikli 7 ta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlarning har biri o'quv qo'llanmasining keyingi bobida batafsil ko'rib chiqiladi.



4.1-rasm. Suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejalarishning sikli.

Manfaatdor tomonlar tahlili

Manfaatdor tomonlarning jalb etilishi Havzaviy Rejani ishlab chiqish va uni amalga oshirishning har bir bosqichida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy masalalardan hisoblanadi.


Har bir mamlakat va har bir havza uchun manfaatdor tomonlarining ro'yxati xususiy bo'ladi. Manfaatdor tomonlarning ro'yxatini shakllantirishda berilgan hududdagi boshqaruvning o'ziga xosligi, mavjud iqtisodiyot tarmoqlari, jamoat tashkilotlari, ekologik jihatlar, ehtimoliy favqulodda vaziyatlar va boshqalar e'tiborga olinadi.

Har bir manfaatdor tomonning ishtiroki barcha tarmoqlardagi mavjud muammolarni aniqlash va shakllantirish, ustuvorliklarni belgilash hamda har bir ishtirokchining manfaatlarini e'tiborga oлган holda ehtimoliy yechimlarni topish imkonini beradi.

Har bir manfaatdor tomonning rejorashtirish jarayonida ishtirok etishini ta'minlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- Qarorlarni bilimlarga asoslangan holda qabul qilish;
- Asosiy manfaatdor tomonlarning ko'proq nimadan (suv resurslari yetishmovchiligi yoki SUV resurslarining yomon boshqarilayotgani) zarar ko'rayotganligini aniqlash;
- Rejani ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida erishilgan kelishuvlar, uning keyingi bosqichlarida qarama-qarshiliklar ke-lib chiqishini kamaytiradi;
- Jamoaviy va xususiy faoliyatlardagi ochiqlik;
- Jarayonning barcha ishtirokchilari o'rtasida o'zaro ishonchli munosabatlarni ta'minlash.

Bunda har bir manfaatdor tomon rejorashtirish va keyinchalik uni amalga oshirish jarayonlarida ishtirok etishdan keladigan manfaatlarni yaxshi tushunishi lozim.



4.2-rasm. Manfaatdor tomonlarni jah etish jarayoni bosqichlari.

Jarayonda ishtirok etayotgan manfaatdor tomonlarning qarashlari va manfaatlari har doim ham mos kelmasligi va o'zaro qarama-qarshiliklar kelib chiqishi mumkin. Bunday hollarda jarayon ishtirokchilari o'rtaida kompromisga va o'zaro kelishilgan

qarorlarga erishish lozim. O'zaro kelishilgan qarorlarni qabul qilish ularning samarali bajarilishiga imkon yaratadi.

4.2 Strategik nazar. Strategik nazarni ishlab chiqish bosqichlari

Oldindan ko'ra bilish – bu havzani rivojlantirishning asosiy uzoq muddatli maqsadi hisoblanadi.

Strategik nazar, ya'ni oldindan ko'ra bilish – bu havzani rivojlantirishning istiqbolini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Strategik nazar, oldindan ko'rishni ifodalovchi hujjat – belgilangan uzoq muddatli davrga, odatda 20-25 yilga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Davlat muayyan maqsadlarga intilishining belgisi, ya'ni taraqqiyot strategiyasi va siyosiy kursi shakllantirilishi yoki boshqacha qilib aytganda mamlakatda "Strategik nazarni shakllantirishi" havzaviy rejorashtirish uchun asos hisoblanadi. Mamlakatning siyosiy kursi, ya'ni yo'nalishi havzaviy rejorashtirish uchun asos sifatida qabul qilinishi lozim.

Strategik nazarni ishlab chiqish uchun asos sifatida quyidagilardan xizmat qilishi mumkin:

- Hukumat tomonidan ma'qullangan hujjat ko'rinishidagi rasmiy siyosiy bayonotlar;
- Ijro hokimiyyati a'zolarining norasmiy siyosiy bayonotlari;
- Mamlakatning rivojlanish strategiyasi hamda hududlarining rivojlanish strategiyasi va rejalar;
- Xalqaro majburiyatlar.

«Nazar» amalda tasavvur qilina oladigan, istalgan, muayyan muddatlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan va muayyan masalalarga qaratilgan bo'lishi lozim. «Nazar» barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiq va tushunarli bo'lishi kerak.

«Nazar» – havzaning asosiy uzoq muddatli rivojlanish

maqsadidir. "Strategik nazar" esa havzaning rivojlanish istiqbolalarini yorituvchi hujjatdir. "Strategik nazar" berilgan uzoq mudatli keljakka, odatda 20-25 yilga mo'ljallangan bo'ladi.

"Strategik nazar"ni ishlab chiqish jarayoni bir necha majburiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Amaldagi suv siyosati va strategiyasining SRIB va barqaror taraqqiyot tamoyillariga mosligini tahlil qilish;
2. Mavjud vaziyat, resurslar va talablarni tahlil qilish;
3. Barcha manfaatdor tomonlarning qarashlarini e'tiborga olish maqsadida ular bilan rasmiy va norasmiy maslahatlashuvlarni o'tkazish;
4. «Nazar» yoki «Strategiya» bo'yicha siyosiy kafolatlarni olish;
5. «Nazar»ni tasdiqlash.

4.3 Mavjud vaziyatni tahlil qilish va baholash

Mavjud vaziyatni tahlil qilish va baholash Havzaviy Rejani ishlab chiqishda asosiy yo'nalish hisoblanadi. Tahlil/baholash ishlari manfaatdor tomonlarning o'z kuchlari yoki jalb etilgan qo'shimcha ekspertlar yordamida amalga oshirilishi mumkin va bu faoliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Suv resurslarini boshqarish masalalaridagi muammolarni va ularning ehtimoliy yechim yo'llarini aniqlash maqsadida amaldagi suv resurslarini boshqarish faoliyatini baholash;
- Havzadagi muammolarni keltirib chiqaruvchi va yaxshilashni talab etuvchi barcha asosiy tarmoqlarni tahlil qilish;
- Muammolar va ularning yechimi bo'yicha tavsiyalar ro'yxatini shakllantirish;
- Berilgan davr uchun ustuvor bo'lgan masalalarni aniqlash.

Vaziyatning tahlili va uni baholash natijalari texnik ma'lumotlar, ekspertlar tomonidan olingan sub'ektiv ma'lumotlar

hamda statistik ma'lumotlar balansiga asoslangan bo'lishi lozim. Ma'lumotlarni toplash to'liq hajmda va maksimal miqdordagi muammolarni aniqlashga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim. Tahlilni o'tkazish jarayoniga barcha manfaatdor tomonlar bevosita yoki bilvosita (jumladan, intervyu o'tkazish yoki muayyan ma'lumotlarni olish bo'yicha so'rovnama yuborish orqali) jalb etilishi lozim. Bunday yondashuv barcha turli darajalarda va turli sohalarda mavjud muammolarni aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy innovatsion, informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni keng qo'llash tahlil va baholashni o'tkazishning muhim jihatni hisoblanadi. Bunday innovatsion, informatsion-kommunikatsion texnologiyalar qatoriga quydigilarni kiritish mumkin:

- 1) Internet on-layn ma'lumotlar bazasi;
- 2) GAT (geografik axborot tizimlari);
- 3) Masofadan zondlash;
- 4) GPS tizimlarini qo'llash.

Tahlillar va baholashlar natijalari ularning qo'shimcha fikr va mulohazalari hamda takliflarini olish maqsadida barcha manfaatdor tomonlarga tarqatilishi lozim. Ma'lumotlarni tarqatish uslublari turlicha bo'lishi mumkin, masalan, barcha manfaatdor tomonlarni jalb etgan holda tarmoqlararo dialoglarni tashkil etish. Albatta, bunday kompleks tahlil natijasida ko'p sonli muammolar va o'z yechimini kutayotgan masalalar aniqlanishi mumkin. Aniqlangan barcha muammolar maxsus «muammolar reestri» deb nomlanuvchi ro'yxat ko'rinishida shakllantiriladi. Havzaviy rejorashtirish doirasida reestriga kiritiladigan muammo va masalalar quydigilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- Aholini suv bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish;
- Aholining sog'ligini ta'minlash;
- Atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish;

- Boshqaruv samaradorligini oshirish;
- Monitoringni rivojlantirish;
- Tadqiqotlar yoki texnik qayta jihozlash va boshqalar.

Muammolar reestri – havzaning barcha muammollarini identifikatsiyalash, baholash va ularning dolzarbli-gini aniqlash jarayoni asosida tuziladi. Aniqlangan barcha muammolar reestrga kiritilishi lozim. Muammolar reestri muammolar yechimi bo'yicha harakatlar yoki tadbirlarni o'z ichiga olmaydi, biroq unda muammo yechimi ustidan nazorat olib borish imkonini beruvchi o'lchanadigan ko'rsatkichlar ro'yxati keltiriladi. Muammolar reestri ustuvorliklarni aniqlash va ularni navbatlashtirish uchun asos sifatida ishlab chiqiladi. Aniqlangan ustuvor muammolar Havzaviy Reja maqsadi va vazifalarini belgilash hamda tadbirlar ro'yxatini tuzish uchun asos hisoblana-di. Muammolar reestri barcha manfaatdor tomonlar va keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi lozim, chunki ular ham muammolar ro'yxatini kengaytirish yoki qisqartirish bo'yicha takliflar berish huquqiga egadirlar.

Muammolar reestri ustunlariga izohlar:

1. Aniqlangan muammo – tabiiy muhitdagi yoki iqtisodiy va ijtimoiy rejalardagi salbiy o'zgarishlar. Barcha muammollar guruhlari bo'yicha tahlil qilinadi, ular aniq belgilangan hamda shakllangan bo'lishi kerak.
2. Salbiy oqibatlar – muayyan muammo mavjudligi bilan bog'liq ravishda sodir bo'lishi ehtimoli bor noqulay hayotiy sharoitlarning ro'yxati.
3. Sabablari – muayyan ekologik muammolarning paydo bo'lishiga olib keladigan omillarning ro'yxati.
4. Faoliyat elementlari – atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan va muayyan muammoning kelib chiqishiga olib keluvchi inson faoliyati sohalari (yo'nalishlari, tarmoqlari, turlari)

ro'yxati.

5. Ko'rsatkich – ularning qiymatlari bo'yicha muayyan ekologik muammolar holati (kamayishi yoki, aksincha, ko'payishi)ni kuzatish lozim bo'lgan indikatorlar tizimi.

6. Ranjirovka bali – ranjirovka bali o'tkazilgandan keyin mazkur muammoga berilgan raqamli ko'rsatkich. (4.1-jadval)

Havzadagi ehtimoliy muammolar ro'yxati

4.1-jadval

Mavjud muammolar	Salbiy oqibatlar va xavflar	Sabablari	Faoliyat elementlari	Ko'rsatkichlar	Ball
Sug'orish suvining yetishmasligi	Sug'orish suvining yo'qotilishlari. Yerning unumdorligi pasayishi	Irrigatsiya tizimlarining uzoq muddatli ekspluatatsiyasi. Eskirgan irrigatsion tizimlar	Qishloq xo'jaligi (Sug'orma dehqonchilik)	Irrigatsiya tizimlarini FIK, Suv olishdan dalagacha bo'lgan masofada suvning yo'qotilishi	
Suv ob'yektlaridagi suvning kollektor-drenaj suvlari va oqava suvlari bilan ifloslanishi	Suv ob'yektlaridagi suvning sifati pasayishi, yuqumli kasalliklar ortishi	Tizimlarning mutazam texnik ta'minoti mavjud emasligi. KDTLarini tizimli tozalash yo'qligi. Suvni himoya qilish hududlari va yo'laklari tabablariga rioya etmaslik. Suvdan foydalanish madaniyati pastligi	Kommunal ro'zg'or xo'jaligi	Daryoga oqib tushayotgan oqava suvlar miqdori va sifati. Daryodagi suv sifati ko'rsatkichlari. Ruxsat etilmagan joylarga axlat to'kish	
Delta hududlaridagi ko'llarning sayozlashuvni	Botqoqlashish. Bاليq zaxiralaring yo'qotilishi. Ko'llar atrofidagi yaylovlarining unumdorligi pasayishi	Sug'orish uchun suv olish	Qishloq xo'jaligi (Sug'orma dehqonchilik)	Ko'llarning maydoni, Bاليq zaxirasi miqdori Bاليq turlarining tarkibi Yaylovlarining maydoni	

Ta'kidlash lozimki, har doim ham ko'riniq turgan muammo hal etilishining o'zi havzadagi vaziyat yaxshilanishi uchun yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun Muammolar reestrini tuzishda har bir holatda barcha muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan asosiy muammoni aniqlash zarur. O'zaro bog'langan muammolarni aniqlash uchun sabab-oqibat uzviyilagini aniqlash imkonini beruvchi "Muammolar daraxti" deb nomlanuvchi maxsus vositadan foydalanish mumkin. Quyida "Muammolar daraxti"ni tuzish namunasi keltirilgan. Amalda yetarli darajada batafsil tuzilgan "Muammolar daraxti" asosiy va bog'langan muammolarni aniqlab, ularni muammolar reestrida ifodalash imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, reestrga kiritilgan har bir muammo, ularning havzadagi atrof-muhitga, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'sirlarini, buning ehtimoliy salbiy oqibatlarini va undagi tavakkalchilik darajasini e'tiborga olgan holda ranjirlash jarayonidan o'tkazilishi lozim. Barcha ma'lumotlar reestrning mos ustuniga kiritilib, so'ngra unga olingan ranjirlash bali belgilanadi. Baholash natijalari muammolarni baholash Matritsasiga (4.2-jadvalga qarang) kiritiladi.

Muammolarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin, biroq har bir baholash mezoni havzaning o'ziga xosligi bilan bog'liq holda bir-biridan farq qilishi mumkin. Mezonlar soni ham manfaatdor tomonlarning qarorlari asosida turlichcha bo'lishi mumkin.

Muammolarni baholashning ehtimoliy mezonlari:

- Ta'sir ko'lami. Ta'sirning ko'lami besh balli shkala bo'yicha baholanadi. Maksimal qiymat (5 ball) global ahamiyatga ega bo'lgan muammolarga (masalan, iqlim o'zgarishi yoki Xalqaro tabiatni muhofaza qilish kengashining Qizil kitobiga kiritilgan ma'lum turlarning yo'qolib borishi) beriladi. «4 ball» qiymati esa katta hududlarga yoki ekotizimlarning har xil turlariga (masalan,

transchegaraviy suvlarga) bo'ladigan ta'sirlarga beriladi. «3 ball» qiymati – katta maydonlarni qamrab oluvchi, territorial xarakterga ega bo'lgan o'rtacha xarakterdagi ta'sirlarga beriladi. «2 ball» qiymati – uzoq vaqt davomida asta-sekin tarqalishi ehti-moli bo'lgan lokal ta'sirlarga beriladi. «1 ball» minimal qiymati – nuqtaviy lokal xarakterga ega bo'lgan va keyinchalik suv yoki havo orqali tarqalishi mumkin bo'lмаган, flora va faunaning unikal yashash sharoitlariga ta'sir etmaydigan ta'sirlarga beriladi.


- Ta'sirlarni o'zgartirishning murakkabligi/bahosi. Mazkur mezon u yoki bu muammoni xarakterlovchi, salbiy vaziyatni o'zgartirishning texnik, moliyaviy yoki tashkiliy murakkabliklarni baholaydi. Bunda maksimal qiymatlar (3 dan to 5 gacha) texnik va moliyaviy jihatlardan yechimini ta'minlash mumkin bo'lgan muammolarga beriladi. Amalga oshirish murakkab bo'lgan muammolarga pastroq qiymatlar (1-2) belgilanadi.

- Vaqt chegaralari. Mazkur mezon u yoki bu muammoni xarakterlovchi salbiy vaziyatni o'zgartirish uchun zaruriy vaqt chegaralarini baholaydi. Bunda maksimal qiymatlar (3 dan to 5 gacha) yechimi kam muddat talab qiluvchi muammolarga beriladi. Uzoq muddat talab etuvchi o'zgarishlar esa kichikroq qiymatlar-ga ega bo'ladi (1-2).

- Jamoatchilik tomonidan qiziqish. «1 ball» – minimal qiymat, jamoatchilik tomonidan qiziqish bo'lмаган muammolarga beriladi. Jamoatchilik tomonidan qiziqish kam, lokal ko'lamda bo'lgan va qiziqsan manfaatdor tomonlarning soni cheklangan muammolarga «2 ball» qiymati beriladi. Keng jamoatchilik qiziqishi havza darajasida bo'lgan muammolarga «3» yoki «4» ball qiymati beriladi. Milliy va (yoki) xalqaro miqyosdagi jamoatchilik e'tiborini tortgan muammolarga eng yuqori «5 ball» qiymati beriladi.

Baholash mezonlari bo'yicha berilgan barcha qiymatlar «Muammoning ustuvorligi reytingi» ustunida jamlanadi.

«Muammoning ustuvorligi reytingi»ning yuqori qiymatlari – muayyan muammoning ahamiyati juda yuqoriligi, zudlik bilan hal qilinishi zarurligi va uning mumkinligini ko'rsatadi.



4.3-rasm. Muammolar daraxti

Muammolarni ranjirlash bo'yicha qo'llanadigan uslublar turlicha bo'lishi mumkin. Ranjirlash jarayoni esa turli manfaatdor tomonlar, masalan, alohida jamoatchilik tomonidan, alohida davlat tuzilmalari tomonidan, alohida olimlar va ekspertlar tomonidan o'tkazilib, so'ngra ranjirlash bo'yicha barcha natijalar umumlashtiriladi hamda uning asosida o'rtacha ko'rsatkich chiqariladi.

Ranjirlash jarayoni muhokamalar vaqtida yoki distansion tarzda o'tkazilishi mumkin. Bunday yondashuvni qo'llash sub'yekтивликни istisno qilishga imkon yaratadi.

Eng yuqori ballarni olgan muammolar ustuvor hisoblanib, Havzaviy rejaga asos qilib olinadi. Mazkur muammolar bo'yicha maqsad va vazifalar shakllantiriladi hamda chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Biroq ustuvor muammolarning ajratib olinishi boshqa muammolarni unutish mumkin, degan xulosani anglatmaydi. Muammolar reestrini va ustuvorligini aniqlash jarayonini qayta ko'rib chiqish davriy ravishda amalga oshiriladi. Muammolar reestrini qayta ko'rib chiqish muddatlarini manfaatdor tomonlar belgilashadi. Mazkur bosqichda yechimlari masalasi Rejaga kirmagan muammolar reestrni qayta ko'rib chiqish natijasida keyingi bosqichlarga kiritilishi mumkin. Shunday qilib, barcha muammolar muayyan davrda Rejaga kiritiladi va ularning yechimi ta'minlanadi.

Muammolarni baholash matritsasi

4.2-jadval

Ekologik muammolarning nomi	Ta'sir ko'lami (1-5)	Murakkabligi va qiymati, ta'sir doirasining o'zgarishi (1-5)	Vaqt chegarasi (1-5)	Jamoatchilik qiziqishlari (1-5)	Muammolarning muhimligi reytingi (umumiy)
1	2	3	4	5	6
Sug'orish suvning yetishmasligi	4	5	3	5	17
Suv ob'yektlaridagi suvning kollektor-zovur suvlari, aholi va ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan chiqariladigan oqava suvlar va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi.	3	4	4	5	16
Deltalardagi ko'llarning sayozlashuvi	4	2	4	1	11

4.4 Maqsad va vazifalarni aniqlash


Aniqlangan muammolarni hal qilish yuzasidan Havzaviy Rejaning maqsad va vazifalari ishlab chiqiladi. Aniq shakllantirilgan maqsad va vazifalar kelgusida Havzaviy Rejani samarali amalga oshirishning garovi hisoblanadi. Havzaviy Rejalarni amalga oshirishning maqsadlari SRIB tamoyillariga mos kelishi va quyidagi qator xarakterli belgilarga ega bo'lishi lozim:

- Suv siyosati va xalqaro majburiyatlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi;

- Aniqlik (maqsad aniqlangan muammoning yechimi uchun qo'yilgan bo'lishi);
- O'lchanadigan bo'lishi (maqsadga erishilganlik yoki erishilmaganlikni muayyan ko'rsatkichlar yordamida baholash mumkinligi);
- Reallik – amalga oshirish mumkinligi (qo'yilgan maqsadga muayyan harakatlar natijasida belgilangan muddat davomida mavjud resurslar hisobiga erishish mumkin bo'lishi);
- Samaradorlik (maqsadga erishish havzaning muayyan muammolarini hal qilish imkonini beradi);
- Muddatlar bo'yicha aniqlanganlik (qaysi muddat davomida maqsadga erishish mumkinligining aniqligi);
- Maqsadlarning uyg'unlashganligi (maqsad havzani rivojlantirish bilan bog'liq boshqa maqsadlar bilan uyg'unlashtirilganligi). Maqsad va vazifalarni shakllantirishda ularning o'rtasidagi farqni aniq tushunish lozim. Maqsad va vazifalar o'rtasida boshqaruv darajasida ham, ijro darajasida ham qator farqlar mavjud:
 - Boshqaruv darajasida – maqsadlar davlat/havza darajasida, vazifalar esa lokal darajada qo'yiladi.
 - Sifat – Miqdor. Maqsadlar odatda sifat ko'rsatkichi hisoblanadi. Vazifalar esa odatda aniq miqdoriy ko'rsatkichlarga ega bo'ladi.
 - Gipoteza – Kafolat. Maqsadlar gipotetik, hozirgi davr chegarasida erishib bo'lmaydigan bo'lishi mumkin. Vazifalar esa kafolatlangan darajada erishiladigan bo'lib, ularning bajarilishini o'lhash mumkin.
- Baholash – Monitoring. Maqsadlarga erishilganlik yakuniy baholash doirasida aniqlanadi. Qo'yilgan vazifalarning bajarilganlik darajasi doimiy monitoring davomida aniqlanadi.
- Siyosat – Dastur. Maqsadlar siyosiy qarorlar/strategik rejalashtirish/strategik nazar qabul qilish darajasida aniqlanadi. Vazifalar esa mintaqaviy viloyat darajasidagi, lokal (mahalliy)

dasturlar va taraqqiyot dasturlari darajasida qo'yiladi.

Vaziyatni baholash bosqichida tuzilgan "Muammolar daraxti" maqsad va vazifalarni ishlab chiqish uchun muhim asos hisoblanadi. Aniqlangan markaziy muammoning yechimi Rejaning asosiy maqsadi sifatida xizmat qilishi mumkin. Ikkinchisi darajali muammolarning yechimi vazifalar sifatida xizmat qilishi mumkin, uchinchi darajali muammolardan esa Reja uchun zarur bo'lgan tadbirlarni aniqlash mumkin. Shunday qilib, ishlab chiqilgan "Muammolar daraxti"ni "Maqsad va vazifalar daraxti"ga aylanitrsa bo'ladi. Namuna sifatida keltirilgan "Muammolar daraxti"dan Reja uchun quyidagi maqsad va vazifalarni shakllantirish mumkin:



4.4-rasm. Maqsad va vazifalar daraxti.

Maqsad: Aholining sug'orish suviga bo'lgan talabini qondirish.

Vazifalar:

- Suv resurslaridan samarali va maqsadli foydalanish

amaliyotini joriy etish;

- Suvni yetkazib berishdagi yo'qotishlarni 20 foizga kamaytirish;
- Qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalarni qo'llab, hosildorlikni oshirish.

4.5 Suv resurslarini havzaviy boshqarish rejasi (Havzaviy reja) matnini ishlab chiqish va tasdiqlash

Dastlabki tayyorgarlik ishlari yakunlanganidan so'ng, barsha olingen materiallar yakuniy hujjat – Havzaviy Rejaga kiritiladi. Rejaning matnini ishlab chiqishda qator asosiy tamoyillar talablari bajariladi:

- Rejani ishlab chiqish, muhokama qilish va tasdiqlash jarayonlarida jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash;
- Havzadagi suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq mavjud vaziyatning tahlilini o'tkazish;
- Rejaning aniq maqsad va vazifalarini, natijadorlik indikatorlari/ko'rsatkichlari tizimini hamda uni amalga oshirish jarayoni da monitoring mexanizmlarini aniqlash;
- Muayyan ustuvorliklarni aniqlash;
- Rejani moliyalashtirish rejasini tuzish va belgilangan muddat chegaralarini aniqlash, Rejaga kiritilgan tadbirlarning bajariishi va uning nazorati bo'yicha rollar taqsimoti;
- Suv resurslarini boshqarish jarayonidagi asosiy chegaraviy shartlarga e'tibor qaratish;
- Barcha daryo havzalari va barcha gidrologik sikllarni qamrab olish.

Havzaviy Reja matnini ishlab chiqish turli uslublarda amalga oshirilishi: bir kishiga, ekspertlar guruhiga, manfaatdor vazirliklar va idoralar vakillariga yoki tashqi konsultantlarga topshirilishi mumkin. Matnni ishlab chiqish uslubini tanlash manfaatdor

tomonlar qarorlariga va Rejani ishlab chiqish uchun moliyaviy resurslarning mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, matnni ishlab chiqish va rasmiylashtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs(lar) rejalahtirish jarayonining barcha bosqichlarida, vaziyatning tahlilidan tortib rejaning chora-tadbirlarini ishlab chiqishgacha bo'lgan bosqichlarda ishtirok etishlari lozim.

Matnni ishlab chiqishdagi birinchi qadam Rejaning mundarijasini ishlab chiqish hisoblanadi. Rejaning mundarijasini (maz-muni) ishlab chiqishda qarorni barcha manfaatdor tomonlar qabul qilishlari lozim. Rejada davlat suv strategiyasi hamda davlat va havzani strategik rivojlantirish reja va dasturlari o'z aksini topishi lozim. Rejaning mundarijasi turli davlatlar va havzalar sharoitlarida tanlangan ustuvorliklarga bog'liq holda bir-biridan farq qilishi mumkin. Biroq, shu bilan birga, Rejaning barcha uchun majburiy bo'lgan bir necha qismlari mavjud, jumladan:

- Vaziyatning tahlili va baholanishi;
- Maqsad va vazifalar;
- Rejaning chora-tadbirlari;
- Rejani amalga oshirishdan kutiladigan natijalar.

Shu bilan birga, mazkur bo'limlar har birining ichki mazmuni havzaning o'ziga xosliklari va manfaatdor tomonlar qabul qilgan qarorlarga bog'liq holda turliche bo'lishi mumkin.

Quyida misol tariqasida Qozog'istonning Orol-Sirdaryo Havza Rejasи mundarijasi keltirilgan.

Orol-Sirdaryo Havza Rejasи mundarijasi:

1. Kirish;
2. Mavjud vaziyatni baholash;
3. Orol-Sirdaryo suv xo'jaligi havzasи suv resurslarining hozirgi holati tahlili;
4. Orol-Sirdaryo havzasida suv resurslari boshqaruvining huquqiy va institutsional jihatlari tahlili;

5. Orol-Sirdaryo mintaqasida suv resurslarini boshqarish sohasidagi xalqaro hamkorlik;
6. Havzaning suv resurslarini samarali boshqarishdagi to'siqlar va muammolar reestri. Muammolarning ustuvorligi;
7. Milliy strategiyalar va Orol-Sirdaryo havzasini rivojlantirish rejali va dasturlari;
8. Orol-Sirdaryo havzasida suv xo'jaligi bo'yicha uzoq muddatli Nazar;
9. SRIB Rejasi Maqsad va vazifalari. SRIB Rejasini amalga oshirishdan kutiladigan natijalar;
10. Tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari va moliyalash-tirish manbalari;
11. SRIB tadbirlarini amalga oshirish rejali;
12. Rejaning chora-tadbirlari.

Rejaning mundarijasini ishlab chiqishda siyosatchilar va jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun asosiy manfaatdor tomonlar bilan teskarri aloqa mexanizmini ishlab chiqish muhim. Teskari aloqa mexanizmi har bir muayyan holatda havzaning o'ziga xosliklari va manfaatdor tomonlarning ishtiroki darajasiga bog'liq holda konsultatsiyalar, umumiy muhokamalar, internet orqali fikr-mulohazalarni yig'ish va boshqalarini o'z ichiga olishi mumkin. Bunday yondashuv keyingi bosqichlarda muvofiqlashtirish jarayonini soddalashtirish imkonini beradi. Agar manfaatdor tomonlarning ishtiroki va jalb etilishi jarayoni qoniqarli tashkil etilgan bo'lsa, unda tasdiqlash murakkab bo'lmaydi. Manfaatdor tomonlarning barcha bosqichlardagi faol ishtiroki, barcha manfaatlarni rejalashtirish bosqichida fikr-mulohazalarning inobatga olinishi hisobiga tasdiqlashni oddiy rasmiyatçilikka aylanti-radi, ya'ni soddalashtiradi.

Havzaviy Rejaning yakuniy varianti barcha manfaatdor tomonlarga yetkazilgan bo'lishi lozim. Odatda, bu maqsadda

Havzaviy Rejalar Havza tashkilotlarining saytlariga joylashtiriladi. Shuningdek, Havzaviy Rejani korrektirovka qilish va uni davriy ravishda qayta ko'rib chiqish imkoniyatlari yaratilishi ham muhim hisoblanadi. Havzaviy Reja – bu «tirik» hujjat bo'lib, sharoitlarga qarab doimiy o'zgartirib boriladi. Shuning uchun Rejada uni qayta ko'rib chiqish va tuzatishlar kiritish mexanizmi ham yoritiladi.

4.6 Havzaviy rejalarni muhokama qilish va ularni amalga oshirishda havzaviy tashkilotlarning o'rni

Havzaviy Rejani ishlab chiqish va uni amalga oshirish manfaatdor tomonlarning maksimal darajada jalganligi uchun, unga hamkorlikdagi harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi umumiyligida maydon/maslahatlashuv organi kerak bo'ladi. Shunday umumiyligida maydonni yaratish SRIB prinsiplarini joriy etish, havzaviy rejalashtirish va Havzaviy Rejalarni kelgusida amalga oshirishning ajralmas shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmasining birinchi bobida ko'rsatib o'tilganidek, havzaviy tashkilotlarning turli ko'rinishlari mavjud va ular aynan umumiyligida vazifasini bajarishlari mumkin. Umumiyligida maydonlarni turli darajadagi havzalar (mamlakat darajasida yoki transchegaraviy darajada, mahalliy darajada, kichik daryo miqyosida va h.k.) hududlarida yaratish mumkin.

Bunday umumiyligida maydonlar rolini bajaruvchi maslahat organlariga havzaviy kengashlar, qo'shma komissiyalar, tashabbuskor guruhlar, konsultativ va o'z ichiga turli manfaatdor tomonlarning birlashtirgan hamda daryo havzasida suv resurslarini boshqarishni yaxshilashni maqsad qilgan boshqa har qanday guruhlar kirishi mumkin. Bunday maslahat organlarining har bir a'zosi Rejani ishlab chiqish bosqichida jarayonda quyidagicha ishtiroy

etishi mumkin:

- Havzadagi iste'molchilar va ekologik manfaatlarni himoya qilish;
- Qonunchilik va me'yoriy normalarni takomillashtirish maqsadida o'zgartirishlar kiritishga ko'maklashish;
- Muammolar reestrini shakllantirish va ustuvor maqsad hamda vazifalarni tanlashni amalga oshirish;
- Havzaviy Rejani ishlab chiqishni baholash va monitoring qilish orqali Rejani ishlab chiqish samaradorligini oshirish va salbiy oqibatlar xavfini kamaytirish;
- Rejani ishlab chiqish bosqichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish. Amalga oshirilayotgan harakatlar bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish;
- Ustuvor muammolar ro'yxatini shakllantirishda o'z sohasi manfaatlarini oldinga surish va h.k.

Shu bilan birga, jarayonning har bir ishtirokchisi Rejani amalga oshirishda ishtirok etishi mumkin. Ularning darajasi turlicha bo'lishi mumkin: Rejaning umumiyligi muvofiqlashtirilishidan boshlab, alohida tadbirlarni amalga oshirishgacha.

4.7 Havzaviy rejalar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash

Havzaviy Rejaning samaradorligi va natijadorligi amalga oshirilayotgan tadbirlarning to'g'rilinga bog'liq bo'ladi. Reja qaydarajada amalga oshirilayotganligini kuzatish uchun barcha tadbirlar bajarilishini hamda ularning havzadagi vaziyatga umumiy ta'sirini baholash va monitoring qilish zarur bo'ladi. Rejaning amalga oshirilishi samaradorligini turli bosqichlarda, jumladan, Rejaga kiritilgan alohida tadbirlarni amalga oshirishdan boshlab Rejaning natijadorligi va samaradorligini baholashgacha bo'lgan bosqichlarda kuzatish mumkin. Bunda muhim jihat,

Rejani amalga oshirish jarayonining monitoringi va uni baholash mexanizmi Rejani ishlab chiqish bosqichidayoq ko'zda tutilgan va barcha manfaatdor tomonlar bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Rejada quyidagi monitoring va baholash bilan bog'liq masalalar aniq ifodalangan bo'lishi lozim:

- Alohiba tadbirlar va umuman Reja bajarilishining aniq o'lchanadigan ko'rsatkichlari belgilangan;
- Ma'lumotlarning manbalari, ularni yig'ish va uzatish kanallari aniqlangan;
- Ma'lumotlarni qayta ishslash texnologiyalari aniqlangan;
- Reja byudjetida monitoring va baholashni o'tkazish xarajatlari ko'zda tutilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Rejani monitoring qilish mexanizmining muhim elementi – Reja amalga oshirilgанин natijadorligining ko'rsatkichlarini, yoki boshqacha aytganda indikatorlarini ishlab chiqishdir. Indikatorlar Rejani amalga oshirishdan kutiladigan natijalarni aniqlash bosqichida ishlab chiqiladi. Umumlashgan holda ishlab chiqilgan indikatorlar quyidagi asosiy savolga javob berishi lozim: «Qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha biz dasturning natijalariga erishilgанини bilamiz?». Indikatorlarni ishlab chiqish bilan bevosita Rejani ishlab chiqqanlar shug'ullanadilar, biroq, shuningdek, indikatorlar barcha manfaatdor tomonlar muhokamasidan o'tishi lozim. Indikatorlar miqdor va sifat ko'rsatkichlariga xos bo'lishi mumkin. Indikatorlar Rejani ishlab chiqish bosqichida aniqlanadi, ammo ularga rejani amalga oshirish bosqichida ham tuzatishlar kiritilishi mumkin. Rejani baholash va monitoring mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim vazifalardan biri Rejani baholash va amalga oshirish jarayonida uning monitoringini olib borish mas'uliyati yuklanadigan shaxslar/tuzilmalarni aniqlash hisoblanadi. Bunda funksiyalar bir necha manfaatdor tomonlar o'rtasida bo'linishi ham mumkin, masalan:

- Suv xo'jaligi sohasi – umumiy suv siyosatini amalgalashuvchi soha sifatida – Rejani rivojlanish strategiyalariga mos kelishi jihatidan baholaydi;
- Havza darajasidagi boshqarma – Rejani amalgalashuvchi bo'yicha asosiy mas'ul idora sifatida – Rejani amalgalashuvchi bo'yicha doimiy monitoring va natijadorlikni baholash.
- Manfaatdor tomonlarning havzaviy kengash/qo'mitalari – Barcha manfaatdor tomonlarning vakili bo'lgan va Rejani ishlab chiqishda ishtirok etuvchi organ sifatida – Rejani amalgalashuvchi bo'yicha doimiy monitoring va natijadorlikni baholash.
- Nodavlat tashkilotlari – Rejaning alohida tadbirdari bajarilishi bo'yicha monitoring.
- Mustaqil ekspertlar – Rejaning alohida tadbirdari bajarilishi bo'yicha monitoring.

4.8 Uzoq muddatli strategik rejalshtirish

Uzoq muddatli strategik rejalshtirish havza bo'yicha suv resurslarini boshqarishning uzoq muddatli maqsadlarini o'z ichiga oladi. Strategiyani ishlab chiqish jarayonida mavjud muammolar tahlili, ustuvorliklari va boshqaruv tadbirdarini belgilash, sarf-xarajat va ko'rildigan foydalar hamda xavflarni baholash masalalari qamrab olinadi. Strategik rejalshtirish mintaqaviy va milliy rivojlanish maqsadlari, siyosati va rejalar bilan uzviy bog'liq holda amalgalashuvchi bo'lib, yangi ma'lumotlar va o'zgaruvchan sharoitlar paydo bo'lgan sharoitlarda moslashtiruv uchun qulay bo'lishi lozim.

Havzaviy boshqaruv strategiyasi suv resurslarini boshqarish bo'yicha uzoq muddatli maqsadlar va ularni amalgalashuvchi tegishli mexanizmlarini belgilab beradi. Strategiya odatda o'n yildan yigirma yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallanadi. Strategiya

havzaviy boshqaruv bo'yicha umumiy yo'nalishlarni belgilab beradi va uch yildan olti yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan detallashtirilgan havzaviy boshqaruv rejasi yoki harakatlar rejasi uchun asos hisoblanadi. Ayrim hollarda rejalar oldindan ma'lum bo'lмаган voqeа-hodisalar yoki siyosiy ustuvorliklar tu-fayli o'зgartirilishi mumkin. Shuning uchun rejaga shunday kutilmagan ta'sirlar va bosimlar sharoitida barqarorlikni saqlash imkonini beruvchi bo'limlarni kiritish tavsiya etiladi.

Strategiya milliy darajada yoki transchegaraviy suv manbalari sharoitlarida mintaqaviy darajada quyidagi asosiy ma'lumotlarni inobatga olishi lozim:

- Suv resurslarini boshqarish bo'yicha siyosat va institutsiyal tuzilmalar;
- Suv va yer resurslarini boshqarish muammolarining mohiyati, turlari, miqyoslari va murakkabliklari;
- Umumiy rivojlanish va suv resurslarini boshqarish maqsadlari;
- Havzadagi iqtisodiy taraqqiyot darjasini;
- Suv resurslarini boshqarish sohasi mutaxassislarining va institutlarining strategik davr davomida mavjud bo'ladigan tabiiy va moliyaviy resurslarni boshqarish salohiyati.

Strategiyalar boshqaruv bo'yicha eng yaxshi vosita bo'lgani holda ular faqat barcha turdag'i manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki sharoitidagina samarali tarzda ishlab chiqiladi. Ayrim mamlakatlarda havzaviy uzoq muddatli rejalashtirish bo'yicha huquqiy asoslar yaxshi rivojlantirilgan. Masalan, Yevropa ham-jamiyatida suv qonunchiligi "Water Framework Directive" itti-foqiga a'zo bo'lgan har bir mamlakatda Yevropadagi xalqaro va milliy havzalar bo'yicha havzaviy boshqaruv rejalarini ishlab chiqishni talab etadi.

Muvaffaqiyatli havzaviy rejaning ishlab chiqilishi quyidagi asosiy shartlarni o'z ichiga oladi:

- Havzadagi suv resurslari bilan bog'liq mavjud vaziyatning aniq tahlili;
 - Maqsad va kutiladigan natijalarining kelishilganligi;
 - Manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilinadigan sse-nariylarning taklif etilishi;
 - Barcha manfaatdor tomonlarning harakatlari va ustuvor maqsadlari muvofiqlashtirilganligi;
 - Qaror qabul qilish bo'yicha tegishli doiraviy asoslar belgilanganligi;
 - Havzaviy strategiyaning keng qamrovli rivojlanish maqsadlari, milliy va mintaqaviy taraqqiyotni rejalashtirish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilganligi;
 - Salohiyatni va jamg'arma imkoniyatlarini rivojlantirish zaruriyatlar ko'zda tutilganligi;
 - Manfaatdor tomonlar, shu jumladan ayollar ishtirokini ta'minlash va ularning qo'llab-quvvatlashiga erishilganligi;
 - Strategik rejalashtirish jarayonlariga inson va moliyaviy resurslar ajratilganligi;
 - Har bir asosiy tadbir va maqsadlarga erishish muddatlarini belgilanganligi;
 - Strategiyada moliyaviy xarajatlar va ularning manbalari ko'zda tutilganligi;
 - Rejalashtirish jarayoniga tegishli ma'lumot va xulosalarni ta'minlab beruvchi monitoring va baholash tizimi yaratilganligi.
- Havzaviy strategiyani ishlab chiqishning beshta asosiy elementi mavjud. Ular muayyan sharoitlarga bog'liq holatda qo'llanilishi mumkin:
1. Muammolarni aniqlashtirish;
 2. Ustuvorliklarni belgilash;
 3. Boshqaruv variantlarini aniqlashtirish;
 4. Tadbirlar bahosi va ko'rildigan foydalarni tahlil qilish;
 5. Xavflarni baholash.

Har bir element uchun mafaatdor tomonlar bilan dialog o'tkazish zarur hisoblanadi va bunda qiziqqan tomonlar va/yoki umumiy jamoatchilik bilan maslahat o'tkazishning yaxshi tajribasiga ega bo'lish katta ahamiyat kasb etadi.

Strategik rejallashtirish jarayonining kutiladigan natijasi – havzaviy tashkilot yoki real maqsadlarni ko'zlovchi va bu maqsadga qanday qilib, qachon va qayerda erishilishini ifodalovchi havzaviy tashabbusning aniq "nazar"i, ya'ni manzili bayonoti bo'lishi lozim. Strategik hujjat amalda barcha jalb etilgan manfaatdor tomonlarning tashabbuslari qanday qilib muvofiqlashtirilishini ko'rsatuvchi hamda havzada joriy etiladigan qoida va tartiblarni talqin etuvchi rasmiy tasdiqlangan boshqaruv rejasini ko'rinishida bo'lishi lozim. Bayonotlar barcha manfaatdor tomonlar uchun oson topiladigan, tushunarli bo'lgan formatda berilishi kerak.

Muammolarni aniqlashtirish

Strategik rejani ishlab chiqishda birinchi qadam havzadagi suv va yer resurslarini boshqarish bilan bog'liq muammolarni hamda mazkur masalada havzada amalga oshirilayotgan faoliyatlarni aniqlashtirishdan iborat. Bunda samarali usullardan biri tizimlashtirish, ya'ni "scoping" usuli hisoblanadi, biroq bunda ta'sirlarni dastlabki baholash kabi boshqa usullardan ham foydalanish mumkin. Asosiy maqsad mavjud muammolar to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, ularning dolzarblik darajasini, kimlarga ta'sir etayotganligini hamda qisqa muddat ichida yechimlari bo'yicha natijaga erishish ehtimolini baholashdan iborat. Quyida Orol dengizi havzasida joylashgan mamlakatlarning havzaviy strategiya ustida ishlash tajribasi misol tariqasida yoritilgan.

Orol dengizi havzasi: Uzoq muddatli strategik rejallashtirish. Sobiq Sovet ittifoqi davrida Orol dengizi havzasi

integrallashgan iqtisodiy birlik sifatida boshqarilgan. Mustaqillik davriga kelib integrallashgan iqtisodiy tizim parchalandi va havzada joylashgan har bir mamlakat o'zlarining iqtisodiy taraqqiyotidagi ustuvorliklarini belgilash barobarida ularning muayyan maqsadlari o'rtasidagi tafovutlar paydo bo'lganini his eta boshladilar. Ushbu tafovutlashuvchi maqsadlar suvgaga bo'lgan raqobat tangligini keltirib chiqardi. 1992-yilning fevral oyiga kelib Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston Orol dengizi havzasidagi umumiy manfaatlarini e'tirof etgan holda davlatlararo ahamiyatga ega bo'lgan suv resurslaridan birgalikda foydalanish va ularni muhofaza qilishda hamkorlik qilish hamda davlatlararo suv xo'jaligi komissiyasi (DSXK)ni tashkil etish bo'yicha shartnomaga tuzdilar. Bu komissiya mavjud ikki havza suv tashkilotlarini (Amudaryo va Sirdaryo) o'z tarkibiga oldi. DSXK mintaqada suv resurslarini boshqarish sohasida strategiyani shakllantirdi.

Mintaqada egalik va barqarorlikka yondashuv quyidagilarga asoslangan:

- mintaqadagi mamlakatlarning barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash;
- Markaziy Osiyoda yaqin mintaqaviy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- mamlakatlarda erishilgan natijalarni yanada rivojlantirish;
- donorlarning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga yo'naitirilgan ko'maklari uchun tegishli sharoitlar yaratish;
- mintaqaviy siyosiy va moliyaviy xohishni kuchaytirish;
- donorlarning emas, balki mintaqaviy institatlarning mahalliy institatlarga yo'lboshchilik qilishini ta'minlash.

Muzokaralarda ijodiy yondashuv:

- muammoga bog'langan strategiyalarni qo'llash, masalan, energetikaning suvgaga talabi, suvgaga bo'lgan ekologik talablar;
- hamkorlikda yutqazadigan tomonlarga rag'batlantirish

yo'llarini taklif etish;

- bahs-munozaralar olib borishning asosiy elementlarini qo'llash: ma'lumotlar oqimi, adolatli yondashuv va barqaror jarayon;
- transchegaraviy faoliyatlarda mahalliy yechimlardan foydalanish;
- suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni e'lon qilishni yangi moliyaviy mexanizmlarni o'rnatishdagi qadam sifatida qo'llash;
1980-yillarning oxirida Kanadadagi kompaniyaning Flatthead daryosining yuqori qismidagi kon qazilma ishlari faoliyati bilan bog'liq loyihasi AQSHda, daryoning quyi oqimida joylashgan suv-dan foydalanuvchilarning jiddiy e'tirozlariga duch keldi. Shunda davatlarning rasmiy organlari buyurtmasiga ko'ra xalqaro qo'shma komissiyadan chegara suvlarining ifloslanish darajasini tadqiq qilish va aholi salomatligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni bartaraf etish usullari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish so'raldi. Xalqaro qo'shma komissiya ikki hukumatning il-timosiga ko'ra loyiha va uning ehtimoliy oqibatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot guruhini tuzdi. Tadqiqot guruhining masalani o'rganishi va texnik baholashi natijalariga asoslanib xalqaro qo'shma komissiya loyihani taqiqlash bo'yicha qaror qabul qildi. Dalillarni to'plash va o'rganish odatda jamoatchilik eshituvi bilan qo'shib olib boriladi.

Yarashtiruv

"Yarashtiruv" - bu faktlarni o'rganish va kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha harakatlarni belgilash yuzasidan takliflarni shakllantirish jarayonidir. Bunda nizolashgan tomonlar takliflarni qabul qilish yoki rad etishda erkin hisoblanadilar.

Ikki tomonlama uchrashuvlarda o'zaro ziddiyatda bo'lgan davlatlar o'rtasida kelishmovchiliklarni yuzaga keltirgan haqiqatni tekshirish va tomonlarga qabul qilishlari mumkin bo'lgan takliflarni tavsiya qilish uchun uchinchi tomonning ishti-roki so'rалади. Shunday qilib, bunday kelishuv vositachilik va ter-gov elementlarini birlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, kelishuv

(yarashtiruv) odatda o'zaro nizo holatida bo'lgan tomonlar vakillarining, shuningdek, boshqa davlatlarning mustaqil fuqarolaridan tashkil topgan komissiya tomonidan amalga oshiriladigan, shakli bo'yicha ko'pincha rasmiy amaliyotdir. O'zaro bevosita o'tkaziladigan uchrashuvlar ham albatta kelishuvni amalga oshirishi mumkin. Yarashtiruvchi esa mustaqil izlanishlar asosida nizoni hal qilishda zarur bo'ladigan dalillar va amaldagi qonunlarni ob'yektiv ravishda aniqlashga intiladi va natijada tomonlarga o'z hisobotlari va tavsiyalarini taqdim etadi. Tomonlar ushbu tavsiyalarni qabul qilishlari yoki nizolarni hal etishning boshqa shaklini tanlashlari ham mumkin. Davlatlar o'zlarining o'ziga xos sharoitlariga mos bo'lgan modellarni ham tanlay oladilar. Bugungi kunda yarashtiruvning ko'plab modelari mavjud, shu jumladan Xelsinki Qoidalarida ham ularning o'nlab modellari tavsiya etiladi.

Institutsional mexanizmlar

Transchegaraviy darajadagi suv ziddiyatlari va nizolari ko'pincha turli xalqaro tashkilotlar va organlar, masalan, ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama kelishuvlar asosida tashkil etilgan daryo havzasasi komissiyalari ko'magida hal qilinadi. Bunday havzaviy komissiyalar ko'p sonli alohida daryo va boshqa suv manbalari havzalari sharoitlarida tashkil etilgan va faoliyat yuritmoqda. Masalan, Kanada-AQSH xalqaro qo'shma komissiyasi a'zolarining vazifalari sirasiga o'tkazilgan qo'shma tadqiqotlar natijalari bo'yicha doimiy ravishda hisobot berib borish va ikkala hukumat tomonidan bildirilgan fikrlar o'rtaсидаги nomutanosibliklarni aniqlab, ularni muvofiqlashtirish bo'yicha tavsiya berib borish ham kiritilgan. Kolorado, Rio-Grande va Tijuana daryolari masalalari bo'yicha 1944-yilda tuzilgan Meksika-AQSH o'rtaсидаги shartnomaga asosan Xalqaro chegara suvlari komissiyasi tuzilgan bo'lib, mazkur komissiya

belgilangan daryo havzalarida AQSH va Meksika o'rtasida yuzaga keladigan suv bilan bog'liq bahsli masalalarni hal etib kelmoqda.

Arbitraj

Arbitraj nizolarni hal qilishning uchinchi tomonlar ishtirokiga asoslangan barcha boshqa mexanizmlaridan keskin farq qiladi va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishning qonuniy va sud qarori asosida amalga oshiriladigan vositasi hisoblanadi. Bu mexanizm qo'llanishi uchun tomonlar hakamlik sudiga rozilik berishlari kerak, ya'ni ular o'z nizolarini hakamlik sudiga yoki arbitraj tribunaliga hakamlik bitimi mavjud bo'lgan avvaldan erishilgan keli-shuvga asosan yoki nizo yuzaga kelgandan keyin taqdim etishga rozi bo'lishlari talab etiladi. Nizoni hakamlik sudiga topshirishda tomonlar protsessual qoidalarga rioya qilishni va hakamlik tashkilotining ma'muriy xizmatlaridan foydalanishni tanlashlari yoki muhokamani maxsus tashkil qilishlari ham mumkin.

Arbitraj nizolarni hal etishning mazkur bobning oldindi qismlarida tasvirlangan mexanizmlariga ko'ra ko'proq rasmiylashtirilgan bo'lsa-da, hakamlik sud ishi bo'yicha ayrim afzalliklarga ham egadir. Jumladan, arbitraj tomonlar nizolarni eshitadigan hakamlarni tayinlashlari mumkin emasligi bilan bir qatorda ko'proq moslashuvchanlikni ta'minlashga imkon bera-di. Tomonlar, shuningdek, kelishmovchiliklar bitta arbitr yoki hakamlik sudlari tomonidan ko'rib chiqilishini ham tanlashlari mumkin. Umuman, hakamlik muhokamasi xususiy xarakterga ega. Arbitraj qarori, shuningdek, maxfiy saqlanishi mumkin, lekin har qanday holatda ham qabul qilingan qaror tomonlar uchun majburiydir. Apellyasiya tartib-qoidalari faqat oldindan kelishilgan holda o'rnatilishi mumkin. 1997-yildagi BMT suv oqimlari konvensiyasida nizolarni arbitraj mexanizmi orqali hal qilishning barcha boshqa vositalari imkoniyatlaridan foydalanib

bo'lingandan so'nggina kelishuvning majburiy tartib-qoidalari-dan biri sifatida qo'llash belgilangan.

Doimiy arbitraj sudi

Doimiy Arbitraj Sudi – xalqaro hakamlik qoidalari asosida tashkil etilgan eng uzoq muddatga tuzilgan va xalqaro nizolarni hal qilishning birinchi global mexanizmi hisoblanadi. Doimiy Arbitraj Sudi 1899-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda 1899- va 1907-yillarda qabul qilingan konvensiyalarning birini yoki har ikkisini imzolagan 97 ta a'zo davlatlarni birlashtiradi. Aslida davlatlararo arbitrajlar uchun mo'ljallangan Doimiy Arbitraj Sudi bugungi kunda davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtaсидиги, xalqaro tashkilotlar va davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xususiy tashkilotlar o'rtaсидиги keleshmovchiliklarni boshqarish imkoniyatlarini rivojlantirdi. Sud hakamlik muhokamasiga qo'shimcha ravishda tergov, kelishuv, yaxshi idoralar va vositachilik bo'yicha tergov hamda tergov ishlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi. Doimiy Arbitraj Sudining boshqaruvi organi a'zo davlatlarning delegatlaridan iborat va yiliga ikki marta yig'iladigan Ma'muriy kengash hisoblanadi. Bosh Kotib va Doimiy Arbitraj Sudining xalqaro byurosi Sudning kundalik ishini amalga oshiradi. So'nggi yillarda Doimiy Arbitraj Sudi tabiiy resurslar bilan bog'liq nizolarni hal etish yo'nalishida tobora faollashmoqda.

2001-yilda Doimiy Arbitraj Sudi tabiiy resurslar va/yoki atrof-muhit bilan bog'liq nizolarni hal qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan protsessual qoidalarni qabul qildi. Ushbu qoidalalar hakamlik sudyalari va arbitrlarni tanlash bo'yicha tartib-taomillarni belgilab, o'z ichiga maxfiylik, dalillar, vaqtinchalik chora-tadbirlar, ekspertlarning roli, paydo bo'lmaydigan yoki taqdim etilishining ta'siri, mukofotlar, talqin va qarorni tuzatish bo'yicha tartiblarni birlashtirgan.

Tribunal tomonlarni xabardor qilgandan so'ng unga hisobot berish uchun ekspertlarni tayinlashi mumkin. Doimiy Arbitraj Sudi ekspertlar ro'yxatidagi nomlar bilan cheklanmagan bo'lsa-da, a'zo davlatlar tomonidan tavsiya etilgan hamda uning ichida tomonlar va tribunal jalg etishi mumkin bo'lgan ekspertlarning ikkita alohida ro'yxatini saqlaydi. Birinchi ro'yxat tabiiy resurslar va/yoki ekologik fanlar bo'yicha ekspertlar, ikkinchi ro'yxat esa xalqaro ekoliya huquqida katta tajribaga ega hakamlik sudlari guruhini tashkil etadi. Amalga oshiriladigan va kelishilgan tartib-taomillar mavjud bo'lмаган taqdirda, atrof-muhitga oid qoidalar foydalanish va noqonuniy ziyonlar bilan bog'liq nizolarni bartaraf etish uchun ishlatalishi mumkin. Shunday qilib, qoida odatiy sud majlisini chaqirish yoki Doimiy Arbitraj Sudi shafeligida ekspertiza o'tkazish uchun ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yangi yondashuvlar: muvofiqlikni tekshirish mexanizmlari

Mamlakat o'zining xalqaro majburiyatlarini bajarmasligi nizolarga olib kelishi va davlatlar erishgan kelishuvning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Mamlakatlarning xalqaro kelishuvlarga amal qilmaslik holatlari bir necha sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Bunday sabablarga asoslanmagan ambitionsiz shartnomaviy majburiyatlar, imkoniyatlarning yetishmasligi yoki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi kabi holatlarni kiritish mumkin. Xalqaro suv kelishuvlarida ayrim hollarda muvofiqlik mexanizmlari aniq belgilanmagan, xuddi shunday holat xalqaro atrof-muhit masalalaridagi shartnomalarida ham uchraydi. Muvofiglik "shartnoma rejimining maqsadlari va vazifalariga erishishga qaratilgan tadbirlar" deb ta'riflanadi va "muvofiglik tizimi" ushbu qoidalarga rioya etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi shartnoma qoidalari va protseduralarining kichik

to'plami hisoblanadi. Xelsinki Konvensiyasining 1992-yilda-gi yuridik masalalari bo'yicha ishchi guruhiga ekspertlarning hisobotlari asosida yaratilgan qo'llanma ushbu tushunchalar ni xalqaro atrof-muhit sohasidagi kelishuvlarni va xalqaro suv oqimlari kelishuvlarini tahlil qilish uchun imkoniyatlarni yana-da kengaytiradi, bu esa Konvensiya xalqaro suv kelishuvlarining muvofiqlikni tekshirish mexanizmlariga ega ekanligini bildiradi.

Muvofiqlik tizimi mexanizmining elementlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- axborot almashish;
- mamlakatlar harakatlarini kuzatish va tahlil qilish;
- ko'maklashish va hamkorlik qilish;
- maslahatlashuvlar, nizolarning oldini olish va nizolarni hal qilish mexanizmlari.

Xalqaro atrof-muhit sohasiga tegishli kelishuvning muvofiq-lik sohasidagi yutuqlari ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli muvofiq-lik rejimlari ularni yaxshilash, takomillashtirish va ta'minlash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Muvofiqlik tizimida muvofiqlikni ta'minlash strategiyasini qo'llab-quvvatlovchi choralar va imtiyozlar bo'lishi kerak hamda ular aniq majburiyat-larni, muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va baholash hamda ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan institutsional mexanizmlarni o'z ichiga olishi lozim. Axborotlarning jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi va adolatga teng huquq ta'minlanishi moslashuv rejimining muhim elementlari sifatida qaralishi kerak.

Muvofiqlikni baholash ikkita komponentni o'z ichiga oladi:

1) Ma'lumotlar va ularni tahlil qilish: umumiy tushuntirishlar, shu jumladan shartnomaviy maqsadlar bajarilmasligi mumkin bo'lgan konsultatsiyalar;

2) Nomuvofiqlik masalasi bo'yicha javob: yordam va majburiyatlardan iborat (sanksiyalar, nizolarning oldini olish va nizolarni hal qilish mexanizmlari).

Muvofiqlikni tekshirish:

Tomonlar Tomonlarning ushbu Protokol qoidalariga 7-mod-dada ko'rsatilgan baholash va baholar asosida rioya etilishini ko'rib chiqadilar.

Muqobil nizolarni hal etish

Muqobil nizolarni hal etish (ADR), ba'zan "Tegishli nizoni hal qilish" deb nomlanadi va umumiy qarama-qarshiliklarni ziddiyatsiz tarzda hal etishga qaratilgan yondashuv va texnikalar to'plamini aniqlash uchun ishlataladi. Mazkur mexanizm keng qamrovli yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, ushbu mexanizmda tomonlarning muzokaralarda o'zaro yuzma-yuz uchrashuvlаридан boshlab (o'zaro maqbul qarorlarga kelishning eng to'g'ri yo'li) qarshi tomonlar teskari pozitsiyani egal-lab turgan hollarda arbitraj va sud qarori orqali tegishli qarorga erishishgacha barcha yondashuvlar qamrab olinadi.

Insoniyat hayoti davomida hamma vaqt turli nizolar va mojarolar barcha madaniyatlar, dinlar va jamiyatlarda ham bo'lган. Mojarolar bilan ishlash falsafasi va usullari ustida ish yuritish va erishilgan natijalar turli madaniyat hamda jamiyat о'rtasida farq qiladigan inson merosining bir qismidir. Millatlar, guruhlar va shaxslar tarix mobaynida nizolarni hal qilish uchun o'zlarining salbiy va noto'g'ri ta'sirlarini minimallashtirishga urinishgan. Ikki yoki undan ko'proq shaxslar yoki guruhiлar o'z manfaatlariga qarama-qarshiligini anglab yetadigan va bu manfaatlar barcha manfaatdor tomonlarni qoniqtirmasligi mumkin bo'lган har qanday vaziyatda odamlarning o'zaro aloqasida ziddiyatlar rivojlanishi mumkin.

Mojarolar bilan shug'ullanish – “mojarolarni boshqarish” yoki “nizolarni hal etish” professional doiralarda chaqirilishi insoniyatning o'zi kabi qadimiy sohadir. Mojarolar bilan bog'liq voqealar va ularni boshqarish san'ati har bir millat va etnik guruhning tarixida juda ko'p uchraydi.

Tarix mobaynida shaxslar va guruhlar o'zlarining kelishmov-chiligini bartaraf etishning turli yo'llaganlar va barcha tomonlar uchun maqbul bo'lgan qarorga erishishga harakat qilganlar. Barcha madaniyatlarda nizolarni hal qilish umumiyligi keli-shilgan maqsadlarga erishishning eng yaxshi yo'li ekanligi e'tirof etiladi, chunki har qanday ziddiyat buzuvchi kuchdir.

XX asrga kelib ko'pchilik insoniyat jamiyatida nizolarning odatiy hol ekanligini tushunib yetdi va u albatta har doim mutlaqo halokatli emasligi, agar odamlar ziddiyatlar ortidan bormasalar, o'sish, yetuklikka erishish va ijtimoiy o'zgarishlar uchun potensialga ega bo'lishlari mumkinligini anglatdi. Yangi fikr-lash uslublari va yangi tajribalar o'tmishda nizolarning oldini olishning turli usullari bo'lganligi haqida ko'p narsalarni bilib olish imkonini beradi. Qadimgi jamiyatlarda nizolarni hal qilish donishmandlar va oqsoqollar yoki diniy rahbarlarga berilgan noyob qobiliyat va vakolat hisoblangan. Keyingi davrga kelib ziddiyatni bartaraf etish har bir kishi uchun qiziqishning asosiy yo'naliishiga aylandi va bu har doim kengayib borayotgan ta'lif va amaliyot sohasiga olib keldi.

XX asrning so'nggi yigirma yili va XXI asrda nizolarni hal etish sohasi jadal rivojlanmoqda. U keng ko'lAMDAGI o'r-ganish sohasiga aylandi. Bu sohada ko'nikmalar va strategiyalar o'rgatiladi, falsafiy nuqtai nazarlar o'zgarishi ta'lif va rivojlangan o'zlikni anglash orqali amalga oshiriladi. “Nizolarni hal etish” sohasi psixologiya, sotsiologiya, ijtimoiy tadqiqotlar, qonunchilik, biznes, antropologiya, gender masalalari, si-yosiy fanlar va xalqaro munosabatlarni o'z ichiga olgan ko'plab

sohalarga mo'ljallangan tarmoq sifatida rivojlandi.

Mojaroning oldini olish, bartaraf etish, boshqarish va qarorlar qabul qilish suv bilan bog'liq to'qnashuvlarda ham qo'llanilishi mumkin. Amaliy jarayonni tanlash suv ziddiyatining muayyan shart-sharoitlari va mohiyatiga bog'liq.

Manfaatdor tomonlar platformalari

Manfaatdor tomonlar platformalari – turli manfaatdor tomonlarning xavotirlari ifoda etiladigan va keyinchalik muzokaralar olib boradigan joylarga ega bo'lgan forumlar hisoblanadi. Ular manfaatdor tomonlarning tarkibini har bir darajaga mos ravishda almashtirish bilan birgalikda mahalliy boshqaruvdan tortib, transchegaraviy suv boshqaruvigacha barcha darajalarda mavjud bo'lishi kerak.

Manfaatdor tomonlar va jamoatchilikning ishtiroki daryo havzasida turli qatnashchilar va manfaatlarning muvofiqlashtirilishi uchun muhimdir. Shuningdek, manfaatli tomonlar platformalari davlat boshqaruv tizimini samarali amalga oshirishga ham yordam beradi. Ular pastdan yuqorigacha yondashuvlarning mahalliy miqyosdagi asosiy to'qnashuvlari va muammolarini aniqlashga yordam beradi. Ishtirok etuvchi yondashuvlar suv resurslarini tejash usullari to'g'risida aholining xabardorligini oshirishga yordam beradi va suvdan foydalanuvchilarni qaror qabul qilish faoliyatiga jalb qilish orqali mahalliy hokimiyat organlarining javobgarligini ta'minlashga ham ko'maklashadi.

Manfaatdor tomonlar o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatish mexanizmlari va vositalarini diversifikatsiya qilish muhimdir. Mahalliy darajadagi ixtiyoriy sherikchilik kichik daryo havzalarida ko'proq qo'llaniladi, chunki ular funksional bo'lib, mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida muvofiqlikni yaxshilaydi.

Suv diplomatiyasi

Suvga nisbatan xalqaro diplomatiya suvni boshqarish uchun global tarmoqni yaratishni o'z ichiga oladi. Keyinchalik bu tarmoq ko'p tomonlama va ikki tomonlama suv shartnomalari va bitimlarini yanada rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin. Xalqaro tarmoqlar muayyan suv havzalari sharoitida suvdan foydalanish huquqlari, suv resurslari taqsimoti, suv bilan bog'liq boshqa majarolarni hal qilishga yordam berishi mumkin.

Transchegaraviy va mintaqaviy miqyosda kengroq vakolat va mas'uliyatga ega bo'lgan hukumatlar va muassasalar suv resurslari bilan bog'liq rahbarlik prinsiplari, ishtirok etish qoidalari va suv resurslariga oid tegishli tartiblarni belgilab beruvchi xalqaro va milliy doiralarni ishlab chiqish va qabul qilish uchun tashabbusni o'zlariga olishlari kerak. Agar davlatlar bitim va konvensiyalarni birgalikda imzolagan bo'lsalar, unda ishtirok etish va rahbarlik qilish qoidalari yanada aniqroq bo'ladi va muzokaralarni osonlashtiradi. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi Konvensiyasi (the Water Convention) hamda Xalqaro suv oqimlaridan nonavigatsiya maqsadlarida foydalanishga oid qonunlar to'g'risidagi Konvensiyasi (the UN Watercourses Convention) ushbu yo'nalishda muhim asos sifatida xizmat qilmoqda. Diplomatiyani ilgari surish maqsadlaridan biri ushbu konvensiyalarning muhimligini va hamkorlikni rivojlantirishda muhimligini ta'kidlashdan iboratdir. Shuningdek, mamlakatlar rahbarlari boshqa mamlakatlarga konvensiyalarni ratifikatsiya qilishiga yordam beradigan muzokaralarni davom ettirishga da'vat etilishi kerak.

O'z o'zini nazorat qilish savollari:

1. Suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejalashtirish jarayoni;
2. Suv resurslarini havzaviy boshqarishni rejalashtirish sikli;
3. Manfaatdor tomonlar tahlili;
4. Strategik nazar;
5. Strategik nazarni ishlab chiqish bosqichlari;
6. Mavjud vaziyatni tahlil qilish va baholash;
7. Muammolarni baholashning ehtimoliy mezonlari;
8. Maqsad va vazifalarni aniqlash;
9. Muammolar reestri va ustunlari;
10. Suv resurslarini havzaviy boshqarish rejasi;
11. Havzaviy reja matnini ishlab chiqish va tasdiqlash;
12. Havzaviy rejalarни muhokama qilish;
13. Havzaviy rejalarни amalga oshirish va unda havzaviy tashkilotlarning o'rni;
14. Havzaviy rejalar amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash;
15. Uzoq muddatli strategik rejalashtirish;
16. Suv muammolarini baholash, ranjirlash va ustuvorligini belgilash;
17. Suv resurslarini havzaviy boshqarish va rejalashtirish ja-rayonida bahsli vaziyatlar;
18. Suv resurslarini havzaviy boshqarish va rejalashtirish ja-rayonida bahsli vaziyatlarni boshqarish yo'llari.


V bob. Havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash

5.1 Havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishda zaruriy xarajatlar

Havzaviy rejalarini ishlab chiqish – bu ma'lum xarajatlarni talab etuvchi, uzoq va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayondir. Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha moslashuvchan yondashuv, har bir muayyan holatda mahalliy o'ziga xosliklarga mos ravishda moliyaviy xarajatlar va moliyalashtirishda qo'llaniladigan mexanizmlar turlicha bo'lishi mumkin.

Havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishga ketadi-gan xarajatlarni uchta asosiy blokka ajratish mumkin:

1. Havzaviy rejani ishlab chiqish;
2. Havzaviy rejani amalga oshirish;
3. Havzaviy rejaning bajarilishi monitoringini olib borish.



5.1-rasm. Havzaviy rejani ishlab chiqish va uni amalga oshirish hamda monitoring qilish xarajatlari.

Yuqorida keltirilgan sxemadan ko'rinish turibdiki, har bir blok bir nechta turdag'i xarajatlarni o'z ichiga olib, ular har bir bos-qichda qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarurdir. Bunda keltirilgan barcha xarajatlar ham majburiy emasligini ta'kidlash zarur.

Havzaviy rejani ishlab chiqish bosqichida moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish mumkin. Shu asnoda, ekspert baholashlar havzaviy tashkilotlarning a'zolari tomonidan bajarilishi mumkin va bunda qo'shimcha xarajatlar talab qilinmaydi. Ayrim zaruriy ma'lumotlar havzada joylashgan va hududni barqaror rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan turli xil tuzilmalar tomonidan ham taqdim qilinishi mumkin.

Reja matni havzaviy tashkilotlar a'zolarining tashabbuskor guruhi, shuningdek, ko'ngillilar tomonidan ham yozilishi mumkin. Shu asnoda, rejani ishlab chiqish bosqichida ham moliyaviy xarajatlar birmuncha qisqartirilib, asosan birgalikda-gi uchrashuvlarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Rejani amalga oshirish bosqichi eng xarajatli bosqich hisoblanadi, biroq bu bosqichda ham katta moliyaviy mablag' talab qilmaydigan tadbirlarni belgilash mumkin. Masalan, qishloq hududini ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni yig'ishtirish, buloqlarni to-zalash va shu kabi tadbirlar mahalliy aholi kuchlari bilan bajari-lishi ham mumkin.

Mazkur bosqich, shuningdek, davlat dasturi yoki korporativ ijtimoiy biznes mas'ulligi asosidagi investitsiyani jalb etish imkoniyatini beradi. Rejaning alohida tadbirlarini amalga oshirish uchun donorlik mablag'larini jalb qilish mumkin. Moliyaviy mablag'larni jalb etishning turli mexanizmlari mavjud.

Havzaviy reja bajarilishini monitoring qilish va baholash bosqichida ham havzaviy tashkilotlar a'zolari yoki jamoatchilik kuchi bilan katta xarajatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tadbirlar mavjud. Ma'lum idoralar yo'nalishi bo'yicha bajariladigan

tadbirlarning davlat monitoringi ham o'z mablag'iiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, moliyaviy mablag'larning yo'qligi havzaviy rejalarни ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda to'siq hisoblanmaydi, biroq u yoki bu harakatlarni tezkor rejimda amalga oshirish imkoniyatini pasaytiradi.

5.2 Havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishni moliyalashtirishning ehtimoliy manbalari

Hozirgi davrda tadbirlarni moliyalashtirishning bir qator mexanizmlari mavjud bo'lib, ular havzaviy rejalar doirasidagi faoliyatlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Moliyalashtirish mexanizmlarini uchta yirik blokka bo'lish mumkin. Ular moliyalashtirishning rejaviy va muqobil mexanizmlarini rag'batlan-тирувчи давлат ва махалий byudjetlarni o'z ichiga oladi.


Bugungi kunda moliyalashtirish mexanizmlarining birinchi bloki – давлат ва махалий byudjetlar eng rivojlangan mexanizm bo'lib, ular soliqlar, tariflar, jarimalar, tabiiy resurslardan foydalanganligi uchun to'lovlar va muhitni ifloslantirganlik uchun to'lovlar hamda boshqa manbalar hisobiga shakllantiriladi. Mazkur blokning ishlash prinsipi aniq ishlab chiqilgan va Markaziy Osiyoning hamma davlatlarida qo'llaniladi. Byudjetdan respublika miqyosidan boshlab, mahallyi dasturlar bilan tugaydigan turli darajadagi давлат dasturlari moliyalashtiriladi. Davlat dasturlari orqali havzaviy rejalarни ishlab chiqishning yuqorida ta'kidlangan har uchta bosqichi ham moliyalashtirilishi mumkin.

Masalan, 2008-yildan boshlab Qozog'istonda "Suv resurslaring integratsiyalashgan boshqaruvi va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish" faoliyatlarini moliyalashtirish давлат byudjeti asosida amalga oshiriladi. Mazkur dastur baliqchilik, o'rmon resurslari, hayvonot olami resurslari, tabiiy-qo'riqxonalarini fondi ob'yektlarini saqlash, ulardan oqilona foydalanish va

rivojlantirishga, shuningdek, barqaror suv ta'minoti va suvdan samarali foydalanish darajasini ta'minlash uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan. Dastur havzaviy rejalarni amalga oshirish uchun asosiy manba hisoblanishi mumkin.

Hozirgi davrda hududlarni rivojlantirish va ilg'or tajribalarni tatbiq qilishning rag'batlantiruvchi mexanizmlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday mexanizmlarga zayomlar va subsidiyalarni kiritish mumkin.

Markaziy Osiyoda mazkur mexanizmlar yetarlicha rivojlanmaganligiga qaramay, ularni qo'llash tajribalari ham mavjud. Masalan, Qирғизистонда sug'ориш сувини yetkazib berishda foydalilanidigan nasoslar tomonidan sarflanadigan elektr energiyasi xarajatlarini to'lash uchun subsidiya belgilangan. Qозог'истонда ilg'or texnologiyalarni, jumladan, tomchilatib sug'оришни qo'llash hisobiga о'simliklar mahsulotining sifati va hosildorligini oshirishga mahalliy byudjetlardan subsidiya berish dasturi mavjud. О'zbekistonda zamonaviy suv tejamkor texnologiyalar qo'llangan yer maydonlari besh yilga yer solig'idan ozod etilishi bilan birga, bunday texnologiyalarni xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berilishi yo'lga qo'yilgan.



5.2-rasm. Havzaviy rejalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni moliyalashtirish imkoniyatlari.

Subsidiyalarga, shuningdek aholining imtiyozga ega kategoriyalari (veteranlar, nogironlar va boshqalar) tomonidan to'lanadigan suv ta'minoti xizmatlariga belgilangan subsidiyalashtirilgan tariflarni ham kiritish mumkin. Bunday

subsidiyalashgan tariflar Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlarida mavjud.

Rag'batlantiruvchi mexanizmlar havza rejalarini amalga oshirish bosqichida eng ko'p qo'llaniladi.

Moliyalashning muqobil mexanizmlari nisbatan yangi ekanligiga qaramay, ularni Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlarida qo'llash mumkin. Mintaqadagi davlatlar qonunchiligida suvdan foydalanish va muhofaza qilishning davlat, davlatlararo va hududdiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlari davlat va mahalliy byudjetlar hisobiga hamda yuridik shaxslar, byudjetdan tashqari fondlar, tashkilotlar va fuqarolarning ixtiyoriy a'zolik badallari va mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Moliyalashtirishning muqobil mexanizmlarini ikki katta blokka bo'lish mumkin.

Birinchi blok turli maqsadlar uchun turli miqyosda moliyaviy mablag'larni ixtiyoriy yig'ishni tashkil etish bilan bog'liq mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bunday mexanizmlarga ixtisoslashgan fondlarni yaratishning eng ilg'or usullari, shuningdek, ekotizim xizmatlari uchun to'lovlar mexanizmini kiritish mumkin.

Ikkinci blok esa ikkita asosiy mexanizmni o'z ichiga oladi:

- grantlar va konkurslar ko'rinishidagi donorlik yordamini jalg etish;
- davlat-xususiy mulk sherikligini rivojlantirish.

Donorlik yordami doirasida har yili turli loyihalarni, jumladan SUV xo'jaligi sektori, SUV ta'minoti, qishloq xo'jaligiga yangi texnologiyalarni tatbiq qilish bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish uchun mablag'lar ajratiladi. Iqlim o'zgarishi va fors-major holatiga moslashish masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Havzaviy rejalarda aks ettirilgan eng muhim masalalar ularni donorlik dasturlariga kiritish uchun yaxshi asos bo'lib hizmat

qiladi. Rejaga kiritilgan turli tadbirlarni donorlik mablag'lari hisobiga amalga oshirish davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek havzaviy tashkilotlarning a'zolari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat-xususiy mulk sherikligi Markaziy Osiyo mamlakatlar uchun yangi mexanizm bo'lib, hozirda juda tor doira-da qo'llaniladi va mavjud qoidalarga ko'ra yo'llar, maktablar, kasalxonalar va shu kabilarni qurish singari ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltirilgan. Biroq yirik tashkilotlarni rejalashtirish jarayoniga manfaatdor tomonlardan biri sifatida jalg etish havzaviy rejalgarda kiritilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun mazkur mexanizmdan foydalanish imkoniyatini berishi mumkinligini ta'kidlash lozim.

5.3 Havzaviy rejalarни ishlаб чиқиш ва амалга оширishда молиавиy manbalarni jalg etishning muqobil usul va yo'llari

Havzalarda suv resurslarini boshqarishning samarali tizimini tashkil qilish ko'pincha yirik kapital mablag'larni talab qiladi. Bunday tadbirlarga irrigatsiya tizimlarini ta'mirlash va qurish, suvni va energiyani tejashda samarali texnologiyalarni tatbiq qilish, ichimlik va sug'orish suvlarini bilan ta'minlash xizmatini yo'lga qo'yish va boshqaruv tizimini optimallashtirish kabi loyi-halarni kiritish mumkin. Bunday tadbirlarni amalga oshirish imkoniyati faqatgina katta moliyaviy mablag'lar mavjud bo'lganda-gina yaratilishi mumkin. Shuning uchun bugun dunyoda Fondlar kabi mexanizmlar rivojlanib bormoqda. Bunday fondlarning shakllari, vazifasi, shuningdek darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Fondlar alohida aholi punkti, daryo havzasasi yoki davlat miqyosida yaratilishi mumkin. Quyida bunday fondlarga bir necha misollar keltirib o'tilgan.

Revolver Fondi. Mahalliy va hududiy ma'muriyat uchun mablag' taqchil bo'lgan sharoitlarda samarali moliyaviy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bunday fondning g'oya-si uzoq muddatlarda o'zini oqlaydigan, qimmatga tushadi-gan loyihalarda investitsiyani amalga oshirish uchun moliya-viy resurslarni yig'ishdan iborat bo'ladi. Fond qisqa muddatda o'zini qoplaydigan loyihalarni muntazam ravishda qayta-qayta investitsiyalab, fondga kelib tushadigan naqd pul oqimi hisobiga yangi resurslarni to'playdi. Revolver Fondlari, qoidaga ko'ra, suvni yetkazib berish uchun elektr energiyasi va boshqalar resurs-lar uchun to'lovlar qismini yig'ish hisobiga shakllanadi.

Revolver Fondi mahalliy ma'muriyatning hisob raqami kabi yaratilishi mumkin. Shu asnoda shahar ma'muriyati loyihaning egasi va shu vaqtning o'zida Revolver Fondi egasi hisoblanadi. Revolver Fondi faoliyati pul yig'ish jarayonining hamma ishti-rokchilari uchun shaffof bo'lishi juda muhimdir. Bunday yon-dashuv fondga bo'lgan ishonchli munosabatni ta'minlash im-koniyatini beradi.

Havzaviy rejalashtirishda yig'ilgan fond mablag'i havzaviy tashkilotlar bilan kelishilgan holda eng muhim masalalarni hal etishga sarflanishi mumkin.

Fondlarning ikkinchi turi ixtisoslashgan, kechiktirib bo'lmay-digan mavzuga oid masalalarni hal qilish uchun yaratilayot-gan byudjetdan tashqari davlat fondlari hisoblanadi. Bunday fondlarga ekologik fondlar kiritilib, ularning vazifalariga tabiiy muhitni tiklash, keltirilgan zararni qoplash va shu kabilar ki-radi. Shuningdek, sug'oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash, kollektor-drenaj tizimlarini qurish va qayta ta'mirlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va shu kabilar maqsadida meliorativ fondlar ham yaratilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan Melioratsiya fondi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga katta e'tibor qaratiladi. Mamlakatda 2007-yilda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha fond tashkil etilgan va 2008-2012-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning Davlat Dasturi qabul qilindi. Dastur doirasidagi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri meliorativ ishlarning buyurtmachilari va ijrochilarining mas'uliyatini oshirish hamda belgilangan vazifalarni qat'iy moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, suv xo'jaligi tashkilotlari va suvdan foydalannuvchilar uyushmalarini meliorativ texnika tarkibini yangilash hisobiga sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash maqsad qilingan. Birinchi 4 yil ichidayoq bajarilgan ishlar 1 million 164 ming hektar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, kuchli va o'rtacha sho'rlangan yerlar maydonini 81 ming hektarga kamaytirish, shuningdek 360 ming hektardagi yer osti suvlarini pasaytirish imkonini berdi.

Bunday fondlarning asosiy vazifasi fond hisobida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni to'plash hisoblanadi. Fond manfaatdor tomonlar bilan birgalikda atrof-muhit holatini yaxshilash bo'yicha uzoq muddatli va o'rta muddatli davlat dasturlarini ishlab chiqadi.

Bunday fondlar ham havzaviy rejalarini moliyalashtiruvchi asosiy manbalardan hisoblanishi mumkin. Rejalarning tadbirlarini alohida, bloklar bilan yoki ixtisoslashtirilgan das-turosti dasturi ko'rinishida fonddan moliyalashtirsa bo'ladi. Uzoq muddatli va katta kapital mablag' talab qiladigan loyihamar ham shunday ekologik fondlar tomonidan moliyalashtirilishi mumkin.

Muqobil moliyalashtirishning yetakchi mexanizmlari dan biri ekotizim xizmatlari uchun to'lovlar hisoblanadi.

Markaziy Osiyoning mintaqaviy ekologik markazi mazkur mexanizmni tatbiq qilishga yo'naltirilgan qator loyihalarni amalga oshirmoqda. Markaziy Osiyoda ekotizim xizmatlari uchun to'lovlarni tatbiq qilishning dastlabki tajribalari 2009-yilda paydo bo'la boshladи. Markaziy Osiyodagi ekotizimlar xizmatlari uchun to'lovlarning birinchi shartnomasi 2011-yil 5-dekabrda Qирг'изистонда Chon-Aksuu daryosi havzasida imzolandi. Hozirda Qozog'iston, Tojikiston va O'zbekistonda ham mazkur mexanizmni tatbiq qilish aprobatsiyasi ketmoqda.

Ekotizim xizmatlari (EX) – bu o'simlik, hayvonot, mikroorganizmlar, tirik bo'lмаган tabiat dunyosi bilan mavjud ekotizimlar o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sir natijasida inson tomonidan olinadigan mulkdir.

Ekotizim xizmatlari uchun to'lovlar (EXT) – hamjamiyat guruhlari bu yaxshilashlar ustida ish olib borayotganlarning xaratatlarini to'g'ridan-to'g'ri qoplashi sxemasidir.

Bunda EXT sxemasi doirasida pul to'lash usullari turlicha bo'lishi mumkin: pul, tovarlar, xizmatlar, mukofot, sertifikatlar va boshqalar. EXT loyihalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlikning uchta asosiy sxemasi mavjud: davlat, xususiy-davlat va to'liq xususiy.

EXT mexanizmi hisobiga ekotizim xizmatlarining "sotuvchisi" va "xaridori" ni aniqlash mumkin bo'lgan havzaviy rejalar tadbirlari amalga oshirilishi mumkin.

Markaziy Osiyodagi EXTning namunasi:

EXT sxemasini Chon-Aksuu daryosi havzasida tatbiq qilish tajribasi. Qирг'изистон.

Chon-Aksuu daryosi havzasasi Issiq-Ko'l ko'lidan shimolda joylashgan. Unga yaylov va o'rmonlar bilan qoplangan tog'li joylar kirib, u yerlarda chorva yetishtiriladi va ko'lga yaqin joylarda qishloq xo'jaligi yerlari joylashgan bo'lib, don ekinlari, ozuqabop

o'simliklar va mevalar yetishtiriladi.

Daryo oqimi bo'ylab quyida joylashgan fermerlar sug'orish davrida ko'pincha suv yetishmasligiga duch kelishadi va oqim bo'ylab yuqorida chorva juda ko'p boqilganligi tufayli daryo suvida erimagan cho'kindilar yuqori darajada bo'lib, bu suv bilan ta'minlash quvurlari ifloslanishiga olib keladi.

Ekotizim xizmati: yuqori sifatli suv bilan barqaror ravishda ta'minlash

Shartnoma mazmuni va manfaatdor tomonlar:

2011-yil 5-dekabrdagi EXTning Birinchi bitimi ekotizim xizmatlari haqiqatan ham talab etilgan sifatda taqdim qilingan holda amal qilish muddatini uzaytirish imkoniyatlari bilan bir yillik muddatga tuzilgan edi.

Xaridorlar:

- Suv iste'molchilari uyushmasi to'laydi;
- O'rmon xo'jaligiga: daraxtlar va butalarni ekishda, devorlar qurishda va shu kabi hamkorlik uchun yiliga 10 odam/kun
- Yaylov kengashiga: yaylovlar sifatini yaxshilash uchun yiliga 20 odam/kun
- Qo'ziqorin teruvchilar uyushmasi (o'rmon xo'jaligidan foydalanuvchilar) o'rmon xo'jaligiga tuproqni tayyorlaganligi, daraxtlar ekkani va shu kabilar uchun bir yilda 30 odam/kun ko'rinishida to'laydilar
- Sayyohlar (rekreatsion xizmatlardan foydalanuvchilar) daraga chiqqanlarida har bir odamdan 20 so'mdan va har bir mashinadan 50 so'mdan o'rmon xo'jaligiga naqd pul to'lashi orqali amalga oshiriladi.

Sotuvchilar:

O'rmon xo'jaligi quyidagi majburiyatlarni oladi:

- Daraga chiqish uchun to'langan pullarning 10%ini mazkur daraga daraxtlar ekishga ajratish;

- Yangi ko'chatlarni to'siq bilan o'rab qo'yish;
- Tabiiy o'rmonlarni tiklash uchun eng strategik uchastkalarni to'siq bilan o'rab qo'yish;
- Yaylov kengashlari va shahar tipidagi aholi yashash joylari ma'muriyati bilan hamkorlik qilish;
- Yaylov kengashi quyidagi majburiyatlarga ega:
- Yaylovlarni boshqarish rejasini ishlab chiqish;
- Yaylovdagi maksimal yuklama bo'yicha tavsiyalarga rioya qilish, alohida yaylovlarga kirishni ta'minlash uchun infrazilmani ta'minlash, o'z o'zini tiklashi uchun yayloving ba'zi uchastkalarini vaqtinchalik to'siqlar bilan o'rab qo'yish;
- O'rmon uchastkalarida chorvani boqishni cheklash va nazorat qilish.

Vositachi va monitoring tashkiloti:

12 kishidan iborat sohalararo guruh EXT shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish monitoringini amalga oshiradi. Baholash natijalari barcha asosiy manfaatdor sektorlarning vakillaridan, 20 a'zodan tashkil topgan loyihaning Muvofiqlashtiruvchi Kengashiga ko'rib chiqish va baholash uchun taqdim qilinadi.

Moliyaviy mexanizm

To'lov shakllari: hamma to'lovlardan o'zaro maqbul shakllarda amalga oshiriladi.

Erishilgan natijalar:

1) 2012-yil 7-mayda 4 gektar daraxtzor – 13.000 ko'chat qo'ziqorin teruvchilarning 32 nafar vakili va 3 nafar suvdan foy-dalanuvchilar tomonidan ekildi. Mazkur ko'chatlar suv taqsimotining yuqori qismidan o'rmon ekotizimining yaxshilashga yordam berishi va mazkur yerlarda eroziya yuzaga kelishi ehti-molini kamaytirishi kutilmoqda.

2) O'rmon xo'jaligi tomonidan o'rmon va yaylov o'rtasida-gi chegarada, o'rmon qismida bir nechta "mikroqo'riqxonalar"

yaratilgan. Mazkur to'siq bilan o'ralgan uchastkalardan maqsad chorva tomonidan ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirni, bu ta'sir natijasida tuproq degradatsiyasi, eroziya, o'simliklar tabiiy ravishda tiklanishi imkoniyati yo'qligini yaylov egalariga ko'rsatish hisoblanadi.

3) 2012-yil 5-sentyabrda EXT shartlari bajarilishi monitoringi va baholash bo'yicha birinchi tashrif o'tkazildi.

4) 2012-yil 6-sentyabrda Muvofiqlashtiruvchi Kengash shartnomani keyingi yilda davom ettirishga qaror qildi.

Shunday qilib, havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishni moliyalashtirishni turli manbalardan foydalanib amalga oshirish mumkin. Moliyalashtirishning hamma mexanizmlari va usullari yig'indisi havzaviy rejalarни bajarishni kafolatlash imkoniyatini beradi.

Biroq havzani rejalarishda tadbirlarni ishlab chiqish bosqichida taklif qilingan qaysi moliyaviy mexanizmlar u yoki bu tadbirlarda qo'llanilishini oldindan asoslash zarur.

O'z o'zini nazorat qilish savollari:

1. Havzaviy rejalarни ishlab chiqishda zaruriy xarajatlar turlari;
2. Havzaviy rejalarни amalga oshirishda zaruriy xarajatlar turlari;
3. Havzaviy rejalarни monitoring qilishda zaruriy xarajatlar turlari;
4. Havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishni moliyalashtirishning ehtimoliy manbalari;
5. Havzaviy rejalarни ishlab chiqish va amalga oshirishda moliyaviy manbalarni jalb etishning muqobil usul va yo'llari;
6. Ekotizim xizmatlari tushunchasining mazmuni;
7. Ekotizim xizmatlari uchun to'lov nima?

Adabiyotlar

1. A Handbook for Integrated Water Resources Management in Basins. THE GWP AND THE INBO. Printed by Elanders, Sweden, 2009. ISBN: 978-91-85321-72-8
2. Ahmed Tayia & Kaveh Madani. Transboundary water conflict resolution mechanisms. Available at <http://www.globalpolicy.org/security/natres/water/2001/1001fpol.htm>
3. Babbitt, Eileen, Diana Chigas, and Robert Wilkinson 2013: Theories and Indicators of Change Briefing Paper: Concepts and primers for conflict management and mitigation.
4. Barreteau, O. (2003). The joint use of role-playing games and models regarding negotiation processes: characterization of associations. *Journal of Artificial Societies and Social Simulation*, 6 (2). Available at <http://jasss.soc.surrey.ac.uk/6/2/3.html>, accessed 13 April 2010.
5. Burt, Murray and Bilha Joy Keiru 2013: "Community water management: Experiences from the Democratic Republic of the Congo, Afghanistan, and Liberia." Washington, DC: The Environmental Law Institute (ELI), United Nations Environment Programme (UNEP).
6. Butts, Kent Hughes 1997: "The Strategic Importance of Water," in Parameters, Spring 1997, pp. 65–83.
7. Castro, J. E. (2007). Water governance in the twentieth-first century. *Ambiente e Sociedade*, 10 (2), 97–118.
8. Chellaney, Brahma 2013: "Water, Peace, and War: Confronting the Global Water Crisis." Rowman & Littlefield.
9. Dewulf, A., Craps, M., Bouwen, R., Taillieu, T. and Pahl-Wostl, C. (2005). Integrated management of natural resources: dealing with ambiguous issues, multiple actors and diverging frames. *Water, Science and Technology*, 52, 115–24.
10. Environment Conflict and Cooperation 2010: "Water is

transboundary, even at the village level". Environment Conflict and Cooperation, ECC Newsletter, October 2010. Available at http://www.ecc-platform.org/index.php?option=com_content&view

11. Geldof, G. D. (1995). Adaptive water management: integrated water management on the edge of chaos. *Water Science and Technology*, 32 (1), 7–13.

12. GWP & INBO (2009) A handbook for Integrated Water Resources Management in Basins. Report of the Global Water Partnership and the International Network of Basin Organizations. Erlander's Publishers, Sweden.

13. Hooper, B (2006) Key performance indicators of river basin management. Alexandria, VA: Institute for Water Resources, US Army Corps of Engineers

14. Impacts, Adaptation and Vulnerability. Contribution of Working Group II to the Fourth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change, eds. M. L. Parry, O. F. Canziani, J. P. Palutikof, P. J. van der Linden and C. E. Hanson. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 173–210.

15. Introduction to the IWRM Guidelines at River Basin Level.
© UNESCO 2009

ISBN 92-9220-003-8, UNESCO, 2003. Printed in Canada

16. Jean Burton. Integrated Water Resources Management on a Basin Level. A Training Manual. Translated from the French book La gestion intégrée des ressources en eau par bassin. Manuel de formation, Institut de l'énergie et de l'environnement pour la Francophonie (IEPF), 2001, 280 pages, ISBN 2-8948-00-5 (www.iepf.org).

17. Kundzewicz, Z. W., Mata, L. J., Arnell, N. W. et al . (2007). Freshwater resources and their management. In Climate Change 2007:

18. Maktari, A.M.A. (1976) "Islamic water law," in G. Radosevich et al., editors, Proceedings of the International

Conference on Global Water Law Systems. Colorado State University, Natural Resources Journal (July) 33(3): 797–839.

19. Pahl-Wostl, C. (2007a). Requirements for adaptive water management. In Adaptive and Integrated Water Management. Coping with Complexity and Uncertainty, eds.
20. Pahl-Wostl, C. (2007b). Transition towards adaptive management of water facing climate and global change. *Water Resources Management*, 21 (1), 49–62.
21. Percival, Victoria and Thomas Homer-Dixon 1998: "Environmental Scarcity and Violent Conflict: The Case of South Africa," in *Journal of Peace Research*, Vol. 35, No. 3, pp. 279–298.
22. Phillips, D.J.H., Allan, J.A., Claassen, M., Granit, J., Jägerskog, A., Kistin, E., Patrick, M., and Turton A. (2008).
23. Postel, Sandra L. and Aaron T. Wolf 2001: "Dehydrating Conflict," in *Foreign Policy*, September/October 2001, pp. 60–67.
24. Shuval, H. "Approaches to resolving the water conflicts between Israel and her neighbors – A regional water-for-peace plan," *Water International* (September) 17(3): 133–143.
25. Smith, D.L. (1989) "The rewards of Allah" *Journal of Peace Research* 26(4): 385–398.
26. The TWO Analysis: Introducing a Methodology for the Transboundary Waters Opportunity Analysis. Report 23. Stockholm International Water Institute (SIWI): Stockholm, Sweden.
27. Toward convergence between theory and practice. Washington, DC: USAID and AMEX International. Available at <https://dec.usaid.gov/dec/content/GetDoc.axd?c=tID=ODVhZjk4N&WQtM2YyMi00YjRmLTkxNjktZTcxMjM2ND B m Y 2 U y & r I D = M z M z N D I 3 & p I D = N T Y w & a ttchmnt=VHJ1ZQ==&rdp=ZmFsc2U=>
28. Water & conflict. A toolkit for programming. USAID.
29. Welch, J.R. (1996) "The dry and the drier: Cooperation and

conflict in Moroccan irrigation," in J.B. Mabry, editor, *Canals and Communities: Small Scale Irrigation Systems*. Tucson: University of Arizona Press.

30. Wolf, Aaron T. 1999: Water and Human Security (AVISO No. 3, June 1999). Victoria, Canada: The Global Environmental Change and Human Security Project. Available at <http://cip.management.dal.ca/publications/>

31. Wolf, Aaron T. 1999: "Criteria for Equitable Allocations: The Heart of International Water Conflict," in *Natural Resources Forum*. Vol. 23 #1, February 1999. pp.

32. Wolf, Aaron T., Alexander Carius, and Geoffrey Dabelko 2005: Managing Water Conflict and Cooperation: State of the World 2005: Chapter 5 "Redefining Global Security." Washington, DC: The World watch Institute. Available at http://tbw.geo.orst.edu/publications/abst_docs/wolf_sow_2005.pdf

33. World Bank (2009). Strategic Environmental Assessment- Improving Water Resources Governance and Decision Making: Case Studies, Paper No. 116., Washington, DC, USA

34. Методическое пособие по созданию Бассейновых советов. Проект ПРООН «Разработка национального плана по Интегрированному управлению водными ресурсами и водосбережению в Казахстане». Алматы, 2005. – 48 стр.

35. Планы интегрированного управления водными ресурсами. Учебное пособие и руководство по применению. International Network for Capacity Building in Integrated Water Resources Management. 2005. – 103 стр.

36. Пособие по бассейновому планированию. Алма-Аты, РЭЦЦА, 2014. – 40 стр.

37. РЭЦ ЦА (2011). Анализ деятельности в области адаптации к изменению климата в Центральной Азии. Потребности, рекомендации, практики, Алматы.

Ilmiy-ommabop nashr

**Salohiddinov A.T.
Ashirova O.A.**

SUV RESURSLARINI HAVZAVIY REJALASHTIRISH VA BOSHQARISH

Muharrir: Vohid Umirov
Sahifalovchi: Muhiddin Xoldarov
Texnik muharrir: Muhiddin Xoldarov

Litsenziya raqami: AI №28.08.2011 yilda berilgan.

Bosishga 17.07.2020 yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16. Nashr tobog'i 13,50.

“Cambria” garniturasi.

Ofset usulida bosildi. Adadi 200 nusxa.

Ushbu qo'llanma bo'yicha fikr-mulohazalaringizni
quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz:

“Info Capital Group” nashriyoti, 100128,

Toshkent shahri, Labzak ko'chasi, 29/55

Tel.: (+998 71) 241-32-21; Mob.: (+998 99) 899-89-11

Elektron pochta qutisi: publishing@infocapital.uz